Sherzod Aktamov, Saodat Boranbayeva, Anvar Nizamov

IQTISODIYOT VA BIZNES



Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

UO‘K 330.101(075.3)
KBK 65.01ya72
A 43

Aktamov Sh.R. Iqtisodiyot va biznes 9-sinf [Matn]: darslik/ Sh. R. Aktamov, A. N. Nizamov, S. X. Boranbayeva. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026. – 120 b.

MAS’UL MUHARRIR
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich

TAQRIZCHILAR:

Sharipov Quvandiq Baxtiyorovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori;

Abdullayeva Ra’no Gafurovna – O‘zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti;

Xotamov Ibodullo Sa’dulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti kafedra professori, iqtisodiyot fanlari nomzodi;

Askarov Farxod Axmatovich – Farg‘ona shahridagi Prezident maktabi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi;

Isoqulova Mohinur To‘lqin qizi – Jizzax shahridagi Prezident maktabi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi;

Zaripova Anora Nabiyevna – “Istiqbolli ta’lim” nodavlat ta’lim muassasasi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi;

Ermatova Shaxodat Abduvakilovna – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 152-umumiy o‘rta ta’lim maktabi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi.

Ushbu darslik Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

ISBN 978-9910-247-42-2

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026

MUNDARIJA

I BOB. MOLIYAVIY BILIMLARGA KIRISH

1.1. Cheksiz ehtiyoj va istaklar 7
1.2. Pul 10
1.3. Hayot bosqichlarida shaxsiy moliyani boshqarish 16
1.4. Moliyaviy maqsadlarni belgilash 19
Qo‘shimcha topshiriqlar 23

II BOB. DAROMAD

2.1. Daromad 25
2.2. Mehnat ehtiyoji 28
2.3. Mehnat bozori 31
Qo‘shimcha topshiriqlar 34

III BOB. XARAJAT

3.1. Oqilona va impulsiv xaridlar 36
3.2. Oila moliyasini boshqarish 40
3.3. Bank-moliya xizmatlari 46
3.4. Moliyaviy texnologiyalar (fintex) 52
3.5. Iste’molchi huquqlari 56
3.6. Shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash 60
3.7. Raqamli moliyaviy xavfsizlik 63
Qo‘shimcha topshiriqlar 66

4.1. Jamg‘arish 68
4.2. Bank depozitlari: oddiy va murakkab foizlarni hisoblash 71
4.3. Sug‘urta 74
Qo‘shimcha topshiriqlar..... 78

IV BOB. JAMG‘ARMA

V BOB. KREDIT

5.1. Muddatli to‘lov, kredit va lizing 80
5.2. Kredit turlari va foiz stavkasi 84
5.3. Kredit tarixi va skoringi 87
5.4. Moliyaviy zaxiralar va “xavfsizlik yostig‘i” .. 90
Qo‘shimcha topshiriqlar..... 94

6.1. Oqilona moliyaviy qaror qabul qilish 96
6.2. Aktiv va passiv daromadlar 100
6.3. Investitsiyalar 104
6.4. Shaxsiy mablag‘ni sarflash va tejash... 108
6.5. Moliyaviy risk 111
6.6. Moliyaviy risklarning oldini olish..... 114
Qo‘shimcha topshiriqlar..... 118

VI BOB. INVESTITSIYA

SO‘ZBOSHI

Zamonaviy O‘zbekistonda iqtisodiy sharoitlar sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Shu sababli har bir inson uchun moliyaviy jarayonlarni tushunish, o‘z daromad va xarajatlarini boshqarish hamda oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish nihoyatda muhimdir. Moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsiy farovonlikning, balki jamiyat iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishining ham asosiy omillaridan sanaladi.

Ushbu darslik orqali siz moliya olamiga qadam qo‘yib, kundalik hayotda zarur bo‘ladigan amaliy bilimlarni egallaysiz, to‘g‘ri moliyaviy tanlov qilishni o‘rganasiz. Maqsadimiz sizni ongli iste’molchi, mas’uliyatli fuqaro va kelajakda muvaffaqiyatli moliyaviy hayot barpo etadigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.

Darslikdan qanday foydalanish kerak?

Hurmatli o‘quvchi! Ushbu darslikdagi har bir mavzu tizimli ravishda quyidagi ruknlarni o‘z ichiga oladi:

“Bugungi darsda” – mavzuni o‘rganish davomida qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishingizni ko‘rsatadi.

“O‘ylab ko‘ring!” – mavzuga oid qiziqarli savol yoki hayotiy vaziyat asosida mustaqil fikrlashga undaydi.

“Guruh muhokamasi” – sinfdoshlaringiz bilan hamkorlikda bajariladigan amaliy topshiriqlardan iborat.

“Ma’lumot uchun” – mavzuni chuqurroq tushunishingizga yordam beruvchi qo‘shimcha qiziqarli ma’lumotlar.

“Savol va topshiriqlar” – o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

“Uyga vazifa” – uyda mustaqil bajarish uchun beriladigan topshiriqlar.

Ushbu tizim orqali siz nazariy bilimlaringizni amaliyot bilan bog‘lashni, mustaqil va tanqidiy fikrlashni, guruh bo‘lib ishlashni hamda olgan bilimlaringizni baholashni o‘rganasiz.

I BOB.

MOLIYAVIY BILIMLARGA KIRISH

1.1. Cheksiz ehtiyoj va istaklar
1.2. Pul
1.3. Hayot bosqichlarida shaxsiy moliyani boshqarish
1.4. Moliyaviy maqsadlarni belgilash
Qo‘shimcha topshiriqlar

1.1. CHEKSIZ EHTIYOJ VA ISTAKLAR

Bugungi darsda:

– “ehtiyoj” va “istak” tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilib olasiz;
– “ehtiyoj” va “istak” atamalarini farqlaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Vaziyatlarni o‘qing va qaysi biri ehtiyoj, qaysi biri istak ekanini aniqlang. Javobingizni asoslab bering.








Agar poyabzalimiz eskirib qolgan bo‘lsa, bu – … Agar shunchaki yangi model yoqqani uchun poyabzal xarid qilmoqchi bo‘lsak, bu – …	Ta’lim va shaxsiy rivojlanish uchun qo‘shimcha kitob xarid qilinsa, bu – ... Agar ta’lim olish va rivojlanish uchun zarur o‘quv qo‘llanmasi xarid qilinsa, bu – …	Agar til o‘rganish kurslariga borish kelajak kasbi uchun muhim bo‘lsa, bu – ... Agar til o‘rganish kurslariga faqat qiziqish uchun borilsa, bu – ...	Velosiped sayr qilish uchun olinsa, bu – … Agar velosiped maktabga yoki ishga borish uchun yagona qulay vosita bo‘lsa, bu –…	Agar meva sog‘lom ovqatlanish uchun zarur bo‘lsa, bu – … Agar qimmat mevani qiziqib, tatib ko‘rish uchun tanlasak, bu – …

Inson doimo turli ehtiyoj va istaklarni his qiladi: ovqatlanish, dam olish, sayr qilish, xarid qilish yoki boshqalar bilan muloqot qilish shular jumlasidandir. Hayotimiz aynan shu ehtiyojlarni qondirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Ehtiyojlar inson tug‘ilgan kundan boshlab paydo bo‘ladi va butun umr hamrohlik qiladi. Inson ulg‘aygan sari ehtiyojlari ham o‘zgaradi va ko‘payadi.

Asosiy ehtiyojlarga ovqat, suv, toza havo, boshpana, sog‘liq va ta’lim kiradi.



Ehtiyoj – insonning muayyan sharoitda yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlarga muhtojligi.

Ehtiyoj insonni faoliyatga undaydi, muayyan tovar va xizmatlarni izlash, yaratish yoki sotib olishga majbur qiladi. Bir ehtiyoj qondirilsa, uning o‘rnini boshqasi egallaydi. Bu jarayon jamiyatning rivojlanishiga va yangi mahsulot hamda xizmatlar yaratilishiga sabab bo‘ladi. Inson odatda nimadir yetishmaganda faol va harakatchan bo‘lib qoladi. Shuning uchun ehtiyojlar inson hayotining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Istak – ehtiyojni muayyan tovar yoki xizmat orqali qondirish xohishi.

Istaklar ehtiyojlardan farq qiladi. Ular cheksiz bo‘ladi. Chunki inson doimo hayotini yaxshilashni xohlaydi. Masalan, sifatli kiyim, yaxshi tibbiy xizmat, qulay transport, sayohat qilish va zamonaviy sharoitlarda yashashni istaydi.

Ochqadingizmi? Demak, sizda qorningizni to‘ydirish ehtiyoji mavjud. Tasavvur qiling, oldingizda 3 ta variant bor.



Osh – o‘zbek milliy taomi



Uyg‘ur lag‘moni – Osiyoda keng tarqalgan taom



Pitsa – an’anaviy italyan taomi

Siz qay birini tanlagan yoki istagan bo‘lardingiz? Aslida har bir yegulik sizning ochlik ehtiyojingizni qondiradi, ammo siz o‘z tajribangiz, madaniyatingiz, moliyaviy imkoniyatingiz va xohishingizga ko‘ra tanlov qilasiz.

Ehtiyoj – yashash va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan talab. Istak – ehtiyojni qondirishning shaxsiy xohish va tanlovga asoslangan shakli. Ehtiyoj turli istaklar orqali qondirilishi mumkin.

Guruh muhokamasi

Quyidagi tushunchalarni ehtiyoj turlariga ko‘ra taqsimlang va har biriga izoh bering: televizor, tibbiy xizmat, ta’tilda dam olish, toza havo, shaxsiy kompyuter, pul, mustaqil fikr bildirish imkoniyati, muzeyga sayohat, kamsitilishdan himoyalanish.

Amerikalik psixolog Abraham Maslou inson ehtiyojlari modelini ishlab chiqqan. Ushbu model “Maslou ehtiyojlar piramidasi” nomi bilan mashhur. Ushbu modelga ko‘ra, quyi darajadagi ehtiyojlar qondirilgan sari inson yuqori darajadagi ehtiyojlarni his eta boshlaydi va ularni qondirishga intiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Inson ehtiyojlari cheklanganmi yoki cheksizmi? Fikringizni misollar bilan izohlang.

2. Har bir ehtiyoj istakka aylanishi mumkinmi? Javobingizni hayotiy misollar orqali tushuntiring.

3. O‘ktam har kuni 2 km masofada joylashgan maktabga piyoda boradi. U 3 000 000 so‘mlik yangi velosiped sotib olmoqchi. Velosiped uning vaqtini tejaydi va qulaylik keltiradi, lekin piyoda yurish ham salomatlik garovi. Sizningcha, velosiped xaridi istakmi yoki ehtiyoj? Javobingizni asoslang.

4. Ba’zan odamlar o‘z istaklari bilan ehtiyojlarini adashtiradi. Masalan, Sodiq har oy maoshiga yangi kiyim sotib oladi, lekin kommunal, transport, dori-darmon kabi zarur xizmatlar to‘lovini ortga suradi. Shu sababli doim qarzga botib yuradi.

Sodiqning xaridlari qaysi toifaga kiradi: ehtiyojgami yoki istakka? Fikringizni izohlang.

Uyga vazifa

1. Hayotingizda muntazam uchraydigan ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarga misol keltiring. Ularni izohlab, daftaringizga qayd eting.

2. Maslou piramidasiga qo‘shimcha tarzda yana qanday takliflar bergan bo‘lar edingiz? O‘z ehtiyojlar piramidangizni chizing.

1.2. PUL



Bugungi darsda:

– pulga ta’rif berasiz;
– pulning vazifalarini muhokama qilasiz;
– pulning xususiyatlarini taqqoslaysiz.

Qadimda odamlar mahsulot va xizmatlarga ehtiyoj sezgan, lekin pul bo‘lmagan. Shuning uchun ular kerakli narsalarni ayirboshlash orqali olgan. Bu usul iqtisodiyotda **barter** deb ataladi.

Barter amalga oshishi uchun ikki tomonning ehtiyojlari mos kelishi kerak. Masalan, sizda un bor va uni qo‘yga almashtirmoqchisiz. Demak, qo‘yi bor va un kerak bo‘lgan odamni topishingiz lozim.

Keyinchalik odamlar pul sifatida ayrim tovarlardan foydalana boshladilar: chorva mollari, guruch, ziravorlar va qimmatbaho toshlar. Bunday vositalar **tovar pullar** deb atalgan. Vaqt o‘tishi bilan oltin va kumush keng qo‘llana boshlagan.

Odamlar oltin-kumushni bankda saqlab, evaziga qog‘oz hujjat olgan. Shu tariqa qog‘oz pul paydo bo‘lgan.

Zamonaviy iqtisodiyotda ishlatiladigan pullarning aksari esa fiat pul hisoblanadi. **Fiat pullar** – davlat tomonidan chiqariladigan va odamlar to‘lov vositasi sifatida qabul qiladigan pullar. Ularning qiymati oltin yoki kumushga bog‘lanmagan, balki davlat kafolati va insonlarning ushbu pulga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi.

O‘ylab ko‘ring!

Tasavvur qiling, hech kimda pul yo‘q – naqd ham, bank kartasida ham. Banklar yopiq. Ammo hayot davom etadi. Siz maktabga yetib olish uchun yo‘l haqi berishingiz, tushlik sotib olishingiz lozim. Xo‘sh, bunday vaziyatda nima qilgan bo‘lardingiz? Guruhlarga bo‘linib, ehtimoliy yechimlarni muhokama qiling.



Guruh muhokamasi

Pulga ta’rif bering. O‘z ta’rifingizni tushuntiring.

Pulning vazifalari

Muomala vositasi. Bu pulning eng muhim vazifasi bo‘lib, tovarlar va xizmatlarni sotish hamda sotib olish jarayonini osonlashtiradi. Pul orqali siz o‘z mahsulotingizni sotib, boshqa kimningdir mahsulotini sotib olishingiz mumkin.

Qiymat o‘lchovi. Pul barcha tovar va xizmatlar qiymatining yagona o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tufayli turli tovar va xizmatlarning narxini aniqlash va taqqoslash mumkin.

Jamg‘arish vositasi. Pul boylikni kelajak uchun saqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Pul yordamida jamg‘arilgan mablag‘dan keyinchalik tovar va xizmatlar xarid qilish uchun foydalanish mumkin.

To‘lov vositasi. Pul qarzlar, soliqlar va boshqa majburiyatlarni to‘lash uchun qo‘llanadi.

Jahon pullari xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan, boshqa valyutalarga oson ayirboshlanadigan va xalqaro bozorlarda keng qabul qilinadigan pullardir.

Guruh muhokamasi

Quyidagi suratlarda pulning qaysi vazifalari aks etgan? Izohlang.







Pul iqtisodiy muomalada to‘liq va samarali ishlashi uchun ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Ana shu xususiyatlar pulni boshqa har qanday tovardan ajratib turadi va uni ishonchli almashuv vositasiga aylantiradi. Pulning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

ixcham – saqlash, olib yurish va bir kishidan boshqasiga berish uchun qulayligi;

pishiq – vaqt o‘tishi bilan o‘z xususiyatlarini yo‘qotmasligi va tez yaroqsiz holga kelmasligi;

barqaror – uzoq vaqt o‘z qiymatini yo‘qotmasligi;

maydalanuvchi – turli kichik qiymatlarga bo‘linib, mayda hisob-kitoblarni ham aniq amalga oshirish imkonini berishi;

kamyob – qiymatga ega bo‘lishi uchun cheklangan miqdorda chiqarilishi;

soxtalashtirish qiyin – uni qalbakilashtirish qiyinligi;

oson tanib olinadigan – hamma uni tez va oson tanishi, farqlashi.

Guruh muhokamasi

Chorva, choy, guruch, chig‘anoq singari mahsulotlar tovar pul sifatida ishlatilganda ularda pulning qaysi xususiyatlari aks etmaydi? Ulardan pul o‘rnida foydalanganda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin? Bir-biringiz bilan fikr almashing. Javobingizni jadvalda qayd eting (1-jadval).

1-jadval

Tovar puli	Pulning xususiyatlariga mos emasligi	Pul o‘rnida ishlatishda yuzaga keladigan muammolar
Chorva	ixcham emas	tashish qiyin
...	...	...

Savol va topshiriqlar

1. Pul tovar va xizmatlar ayirboshlash jarayonini qanday osonlashtirishini chizma orqali tushuntiring.

2. Pulning aynan qaysi xususiyatlari uni kundalik ayirboshlashda eng qulay vositaga aylantiradi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

3. O‘ylab ko‘ring-chi, nima uchun davlatlar o‘z valyutasini joriy etadi? 1994-yilda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘mlik banknotlar muomalaga chiqarilgan. Hozirgi bir dona non narxini aniqlang va uni faqat shu banknotlar yordamida qanday to‘lash mumkinligini hisoblang. Nima uchun hozir mazkur banknotlar ishlatilmaydi? Bu holat pulning qaysi xususiyati bilan bog‘liq?

4. Pulning evolyutsiyasini rasm orqali tahlil qiling va uning kelajakdagi shakli qanday bo‘lishi mumkinligini daftaringizda tasvirlang.



barter



metall tangalar (oltin va metall)



qog‘oz pullar



elektron pullar (bank kartalari, mobil to‘lovlar)



kriptovalyutalar va boshqa raqamli aktivlar

Uyga vazifa

Pulning, umuman, to‘lovlarni amalga oshirishning qanday shakllarini bilasiz? Bu shakllardan birini tanlang va uning ijobiy hamda salbiy jihatlarini yozing.

Namuna

Bank kartasi	
Ijobiy: olib yurishga qulay	Salbiy: hamma joyda ham to‘lash imkoni bo‘lmasligi mumkin

1.2. PUL

Bugungi darsda:

– pulning qiymati qanday aniqlanishini o‘rganasiz;
– pulning qiymati o‘zgarishi insonlar hayoti, narx hamda iqtisodiyotga qanday ta’sir etishini tahlil qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Eski gazetadan olingan xabarni o‘qing. Xabarda qanday hodisa haqida gap ketmoqda? Shunga o‘xshash hodisani o‘z hayotingizda kuzatganmisiz? Masalan, ilgari 100 000 so‘mga qancha narsa olardingiz? Hozir-chi?

“TUSHLIKKA QO‘SHIMCHA PUL”

Narx-navo oshishi bizning poyabzal ishlab chiqarish birlashmamiz ishchilariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ilgari ishchilarimiz tushlikka 1 – 1,5 so‘m sarflagan bo‘lsa, hozir 2,5 – 3 so‘m ishlatmoqda.

Qog‘oz pul va tangalar naqd pul shakllaridir. Bank tizimi rivojlanishi tufayli bank hisob-varaqlarida mavjud bo‘lgan naqdsiz pullar paydo bo‘ldi. Ularni bankomat yoki bank bo‘limi orqali naqd ko‘rinishga keltirish mumkin. Shuningdek, elektron hamyondagi pul ham naqdsiz pulga kiradi. Bugungi kunda mamlakatda ko‘plab bitimlar naqdsiz bajarilmoqda, chunki ushbu usul tez, qulay va ishonchli hisoblanadi.

Uy xo‘jaliklari, firmalar va davlat tomonidan hisob-kitob, jamg‘arma uchun ishlatiladigan naqd va naqdsiz pullar mamlakatning pul massasini shakllantiradi.

O‘zbekistonda milliy valyuta – o‘zbek so‘mini muomalaga chiqarish huquqi Markaziy bankka tegishli bo‘lib, bu jarayon **“emissiya”** deb ataladi.

Keling, bizga pul nima uchun kerakligini o‘ylab ko‘raylik. Biz uning vositasida kerakli narsa-buyumlarni sotib olamiz. Demak, pulning qiymati bizda qancha pul borligiga emas, balki shu pulga qancha tovar va xizmat xarid qila olishimizga bog‘liq.

Pul qiymati – uning xarid qobiliyati, ya’ni pul birligiga qancha miqdorda tovar yoki xizmat sotib olish mumkinligini bildiradi.



Agar pulning xarid qobiliyati oshsa, u holda shu miqdordagi pulga ko‘proq mahsulot olish mumkin. Aksincha, xarid qobiliyati kamaysa, narx oshadi va shu miqdordagi pulga kamroq mahsulot sotib olinadi. Shuning uchun pulning xarid qobiliyati aholi turmush darajasi va moliyaviy farovonligiga bevosita ta’sir qiladi.

Pul qiymatining o‘zgarishi iqtisodiyotda turli oqibatlarga olib keladi.

Pul qadrsizlanganda (inflyatsiya): narx oshadi, aholi jamg‘armalari va real daromadlari kamayadi, natijada insonlar turmush darajasi pasayadi.

Pulning xarid qobiliyati oshganda (deflyatsiya): narxlar pasayadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Pul qiymati barqaror bo‘lganda: iqtisodiyotga ishonch ortadi, savdo jonlanadi va sarmoya uchun qulay muhit shakllanadi.

Inflyatsiya (narx o‘sishi) va deflyatsiya (narx pasayishi), mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat (o‘sish yoki pasayish kuzatilayotgani), hukumat qarorlari (masalan, soliqlarni oshirish yoki kamaytirishga doir qarorlar), talab va taklif, texnologiyadagi o‘zgarishlar singari omillar pulning xarid qobiliyatiga ta’sir etadi.

Pul qiymatini saqlash mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va moliyaviy xavfsizlikni kafolatlashda muhim hisoblanadi.

Pulning xarid qobiliyati – ma’lum miqdordagi pulga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori.

Guruh muhokamasi

Quyidagi vaziyatlarda pulning xarid qobiliyati qanday o‘zgarishini tahlil qiling. Savollarga javob berishda ushbu o‘zgarishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar va uning ehtimoliy oqibatlarini tushuntiring (2-jadval).

2-jadval

Vaziyat tavsifi	Muhokama savollari
Rustamning oilaviy daromadi o‘zgarmagan, ammo oziq-ovqatga sarf ulushi 50 foizdan 40 foizga kamaygan.	Nega ulush kamaydi? Bu narxlar bilan bog‘liqmi yoki boshqa sabab bormi? Ushbu holat ularning yashash darajasiga qanday ta’sir qiladi?
Hukumat import oziq-ovqatlarga bojxona to‘lovini 15 foiz oshirdi.	Bu qaror ichki bozorga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga foydasi bormi? Mamlakatda oziq-ovqat narxlari qanday o‘zgaradi?
Qishda 1 kg pomidor 40–50 ming so‘m edi, yozda esa shu pulga 8 kg olish mumkin.	Nega narx shunchalik pasaydi? Bu mavsumiylik bilan bog‘liqmi? Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qanday o‘zgarishlar kuzatiladi?

Ma’lumot uchun

O‘zbekiston milliy valyutasi “so‘m” deb atalib, turkiy tillarda “sof” degan ma’noni anglatadi. Tarixiy jihatdan bu tushuncha toza, aralashmasiz oltin yoki kumush bilan bog‘liq bo‘lib, pulning barqarorligi va haqiqiy qiymatini ifodalagan.

Manba: Finlit.uz

Savol va topshiriqlar

1. Pulning xarid qobiliyati nima?

2. Pulning xarid qobiliyati qanday o‘zgarganini bilish nima uchun muhim?

3. 2023-yilda bir litr o‘simlik yog‘i narxi 20 000 so‘mni tashkil etgan. Har yili narx 10 foiz oshib borgan bo‘lsa, 2025-yilda o‘simlik yog‘i narxi qancha bo‘lishini aniqlang va jadvalda qayd eting.

Yil	Narx (so‘mda)	O‘tgan yildagidan farq (%)	Izoh
2023-yil	...	...	...

4. 2022-yilda Diyorbek 500 000 so‘mga 25 kg un, 10 kg shakar va 5 litr sut xarid qilgan. 2026-yilga kelib, ushbu mahsulotlar narxi o‘rtacha 2 baravar oshgan. Diyorbek hozir 500 000 so‘mga qancha un, shakar va sut xarid qila oladi? Hisoblang. Mahsulot miqdoridagi o‘zgarishni rasm yoki diagramma ko‘rinishida tasvirlang.

Uyga vazifa

Siz odatda sotib oladigan biron-bir tovar yoki xizmat narxining o‘zgarishini tahlil qiling. Narx-navo va pulning xarid qobiliyati qanday o‘zgargani, bundan qanday xulosalar chiqarish mumkinligi haqida esse (250–300 so‘z) yozing yoki infografika tayyorlang.

1.3. HAYOT BOSQICHLARIDA SHAXSIY MOLIYANI BOSHQARISH

Bugungi darsda:

– inson hayot sikli bosqichlarini aniqlab, ularning daromad, xarajat, jamg‘arma, qarz va investitsiyalarga ta’sirini tahlil qilasiz;

– shaxsiy moliyaviy maqsadlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri belgilash zaruratini asoslaysiz;

– moliyaviy maqsad turlarini o‘rganib, ularga erishishda rejalashtirish va intizomning ahamiyatini muhokama qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Sxemani diqqat bilan o‘rganing va “Nafaqaga chiqqandan keyin ham moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish va munosib daromadga ega bo‘lish uchun hayotning turli bosqichlarida bajariladigan faoliyat shakllari” mavzusida intellektual xarita tuzing.



Shaxsiy moliyaviy hayot sikli – insonning turli yosh davrlarida daromadlari, xarajatlari va moliyaviy maqsadlarining o‘zgarib borishini ifodalovchi jarayon. Inson hayoti muayyan bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda moliyaviy ehtiyojlar, imkoniyatlar va ustuvorliklar o‘zgaradi. Ushbu bosqichlarni tahlil qilish shaxsiy moliyaviy rejalashtirishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki daromad topish, xarajatlarni boshqarish, jamg‘arma yaratish, qarz olish yoki investitsiya kiritish bilan bog‘liq moliyaviy qarorlari inson hayotining qaysi bosqichida ekaniga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Inson hayot siklining bosqichlari

Birinchi bosqich – bolalik va o‘quv davri.	Bu davrda inson hali mehnat faoliyatiga kirishmagan bo‘ladi. Asosiy daromad manbayi – ota-onaning yoki homiylarning moddiy yordami. Asosiy xarajatlar ta’lim va kundalik ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Jamg‘arma va investitsiya deyarli mavjud emas, biroq aynan shu bosqichda moliyaviy savodxonlik shakllana boshlaydi.
Ikkinchi bosqich – yoshlik davri (ta’lim va ilk ish yillari).	Bu davrda shaxs mustaqil daromad manbalarini topa boshlaydi: birinchi ish joyi, kichik biznes yoki yarim stavka faoliyat orqali daromad oladi. Asosiy xarajatlar ta’lim, ijara, transport va kundalik ehtiyojlarga sarflanadi. Aynan shu davrda moliyaviy mustaqillikning ilk tajribasi shakllanib, jamg‘arish odati paydo bo‘ladi. Ayrim hollarda o‘qish yoki uy-joy uchun kredit olish ehtiyoji tug‘iladi.

Uchinchi bosqich – oila qurish va faol mehnat davri.	Bu davrda daromad manbalari barqarorlashadi: doimiy ishhaqi, biznes yoki qo‘shimcha daromad shakllanadi. Xarajatlar ko‘payib, oila ehtiyojlari, uy-joy, farzandlar ta’limi va sog‘liq uchun mablag‘ sarflanadi. Jamg‘arma va investitsiya imkoniyatlari oshadi. Uy-joy, transport vositalarini sotib olish yoki ta’lim xarajatlarini qoplash uchun kreditlardan foydalanishga ehtiyoj paydo bo‘ladi.
To‘rtinchi bosqich – keksalik va nafaqa davri.	Bu davrda faol daromad kamayadi, pensiya, oldingi yillarda yig‘ilgan jamg‘armalar va investitsiya daromadlari asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Xarajatlar ko‘proq sog‘liqni saqlash va kundalik ehtiyojlarga yo‘naltiriladi. Shu sababli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun ilgari to‘plangan jamg‘armalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Har bir inson moliyaviy jihatdan barqaror, mustaqil va farovon bo‘lishni istaydi. Bunga esa aniq rejalashtirilgan moliyaviy maqsadlar orqali erishiladi.

Shaxsiy moliyaviy maqsad – insonning daromadini qanday ishlatishi, jamg‘arishi yoki ko‘paytirishini belgilab beradigan reja.

Moliyaviy maqsadlar insonning hayotdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Ular daromadni oqilona boshqarish, tejash va kelajakdagi ehtiyojlarni oldindan rejalashtirishga yordam beradi. To‘g‘ri belgilangan moliyaviy maqsad insonni mas’uliyat bilan xarajat qilishga, ustuvorliklarni ajrata olishga va barqaror hayot tarziga o‘rgatadi. Moliyaviy maqsadni belgilash faqat niyatdangina iborat emas, unga erishish uchun aniq reja tuzish ham talab etiladi.

Guruh muhokamasi

Rasmga qarab siz hozir qaysi hayot bosqichida ekaningizni aniqlang hamda mavjud sharoitingizdagi xavf va imkoniyatlarni tahlil qiling.

Moliyaviy maqsad turlari



Shaxsiy moliyaviy maqsadlar inson moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Moliyaviy maqsadlar vaqt va resurslarga bog‘liq bo‘lib, ularni samarali amalga oshirish uchun rejalashtirish va intizom zarur. Moliyaviy maqsadlar *qisqa, o‘rta* va *uzoq muddatli* turlarga bo‘linadi.

Qisqa muddatli maqsadlar (1 yilgacha) – tez orada erishish mumkin bo‘lgan moliyaviy rejalar. Masalan, qisqa ta’tilga borish yoki kichik jamg‘arma yig‘ish. Ushbu maqsadlar odatda kundalik yoki qisqa muddatli ehtiyojlarni qamrab oladi va ular uchun muntazam tejash va xarajatlarni nazorat qilish talab etiladi.

O‘rta muddatli maqsadlar (1–5 yil) – biroz uzoq muddatga rejalashtirilgan va ko‘proq moliyaviy resurs talab qiladigan moliyaviy rejalar. Masalan, kompyuter yoki mebel sotib olish, o‘qishga to‘lov qilish yoki avtomobil xarid qilish uchun mablag‘ jamg‘arish. O‘rta muddatli maqsadlarga erishishda muntazam rejalashtirish, xarajatlarni cheklash va tejash intizomi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq muddatli maqsadlar (5 yildan ortiq) – shaxsning hayotidagi eng katta moliyaviy rejalar bo‘lib, ular kelajakda moliyaviy barqarorlik va mustaqillikni ta’minlaydi. Masalan, uy-joy sotib olish, biznesni yo‘lga qo‘yish, pensiya jamg‘armasini yaratish yoki investitsiya kiritish. Uzoq muddatli maqsadlar ro‘yobga chiqishi uchun qat’iy reja tuzish, moliyaviy intizomga rioya etish va belgilangan vaqt davomida mablag‘ni oqilona boshqarish zarur.

Hayot siklining asosiy bosqichlarini bilgan holda, 5–10 yilga mo‘ljallangan uzoq muddatli moliyaviy reja tuzish zarur. Moliyaviy maqsadlarni qo‘yish va ularni tartibga solish, ya’ni ularning muhimligiga qarab tartibini belgilash (masalan, avtomobil sotib olish, to‘y qilish, kvartira sotib olish) muhim hisoblanadi. Maqsadlar ro‘yxatiga 3–6 oylik xarajat miqdorida “xavfsizlik uchun pul zaxirasi”ni shakllantirishni ham kiritish shart.

Savol va topshiriqlar

1. A) Hayotingizning qaysi bosqichida siz uchun jamg‘arish yoki sarmoya kiritish eng muhim bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

B) Agar hech qanday qarzingiz bo‘lmasa, bu kelajakdagi moliyaviy maqsadlaringizni qanday o‘zgartiradi?

D) Uzoq muddatli maqsadlarga erishishda eng katta to‘siq nima deb o‘ylaysiz?

2. Savollarga javob berish orqali moliyaviy yo‘l xaritangizni tuzing.

A) Asosiy daromad manbalaringiz va asosiy xarajatlaringiz nimalardan iborat bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

B) Kelajakda daromadingizni qaysi maqsadlar uchun jamg‘arishni rejalashtirasiz?

D) Qaysi hollarda qarz olishga majbur bo‘lishingiz mumkin?

E) Agar siz hozir hayot siklining 2-bosqichida bo‘lsangiz, kelgusi bosqichlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun bugundan nimalarni boshlaysiz?

Uyga vazifa

Hayotingizdagi moliyaviy maqsadlaringizni uch toifa (qisqa, o‘rta va uzoq muddatli)ga ajrating. Har bir toifa uchun kamida 2 tadan aniq moliyaviy maqsad yozing va quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring:

Maqsad	Toifa (qisqa/o‘rta/uzoq)	Zarur mablag‘ (so‘m)	Jamg‘arish rejasi	Vaqt
...	...	...	...	...

1.4. MOLIYAVIY MAQSADLARNI BELGILASH

Bugungi darsda:

– SMART mezonlarning mohiyatini tushunib olasiz;
– moliyaviy maqsadlarni belgilashda SMART mezonlardan foydalanishni o‘rganasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Guruhingiz a’zolari turli moliyaviy maqsadlarni ko‘zlaydi: biri pul tejamoqchi, biri ish boshlamoqchi, biri qarzdan qutulmoqchi, boshqasi orzusi uchun pul jamg‘armoqchi. “Maqsadlar xaritasi”ni yarating (jadval, diagramma yoki rasm ko‘rinishida) va xulosa qiling.

Hayotda maqsad qo‘yish va unga erishish muhim. Maqsadni to‘g‘ri belgilamaslik oqibatida hayot siz boshqara olmaydigan tartibsiz voqea-hodisalar ketma-ketligiga aylanib qolishi mumkin. Insoniyat tarixidagi yirik muvaffaqiyatlar o‘z vaqtida oqilona rejalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlar samarasi bo‘lgan. Quyida orzularingizga yetishishning zamonaviy, samarali va ilmiy asoslangan SMART usulidan foydalanishni o‘rganamiz.

SMART – maqsadlarni aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin, mazmunan dolzarb va muayyan muddat bilan chegaralangan tarzda belgilash usuli.

Ushbu usuldan foydalanishning o‘ziga yarasha foydali jihatlari mavjud:
– aniq maqsadlar insonni harakatga undaydi;
– maqsadlar orqali yangi ko‘nikmalar va bilimlarga ega bo‘lish mumkin;
– maqsadlar yordamida reja tuzish va unga rioya qilish osonlashadi;
– maqsadlar orqali erishilgan natijalarni aniq baholash imkoni mavjud.

SMART mezonlar – orzularni reja shakliga keltiruvchi vosita. Agar moliyaviy maqsadlaringizni shu shaklda belgilasangiz, pulni tejash, sarflash va rejalashtirish siz uchun osonroq va foydaliroq kechadi.

SMART mezonlar

Aniq
(Specific)

Maqsad aniq, tushunarli va ravshan bo‘lishi kerak.

O‘lchanadigan
(Measurable)

Maqsadni baholash imkoni bo‘lishi kerak.

Erishish mumkin bo‘lgan
(Achievable)

Imkoniyatlaringiz sharoitingiz va resurslaringizga mos bo‘lishi kerak.

Muvofiq va tegishli
(Relevant)

Hayotiy qadriyat-laringiz, ehtiyoj-laringiz va uzoq muddatli rejala-ringizga uyg‘un bo‘lishi kerak.

Muddatli
(Time Bound)

Har bir maqsadning ijro muddati bo‘lishi kerak.



Aniq

Aniq maqsad *nimani?, qayerda?, kim bilan? va nima uchun?* kabi savollarga javob beradi. Masalan, ingliz tilida erkin gapira olish darajasiga yetish. Aniq maqsad sizga yo‘nalish beradi. Ko‘zlangan manzilni bilsangizgina to‘g‘ri yo‘l tanlaysiz.



O‘lchanadigan

Siz natijani qanday aniqlaysiz? Bu juda muhim savol. Masalan, har oyda ingliz tili bo‘yicha 2 ta yangi mavzuni o‘zlashtiraman. O‘lchovli maqsadlar orqali siz qanchalik oldinga siljiganingizni aniq ko‘rasiz.



Erishish mumkin bo‘lgan

Maqsad kichik, real va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan bo‘lishi lozim. Masalan, har kuni ingliz tilini o‘rganishga 1 soat vaqt ajratib, 3 oy ichida kundalik suhbatda oddiy gaplarni erkin ayta olish. Real maqsad – muvaffaqiyat garovi. Juda qiyin maqsad shijoatni so‘ndiradi, juda osoni esa rivojlanishga turtki bermaydi.



Muvofiq va tegishli

Har bir insonning maqsadi hayot yo‘nalishiga xizmat qilishi kerak. Agar maqsad sizning kelajakdagi orzularingizga mos bo‘lmasa, vaqt va kuchingiz havoga sovuriladi. Masalan, ingliz tilini o‘zlashtirish orqali xorijiy universitetda tahsil olish. Bu mezon sizning “Nega?” degan savolingizga javob beradi. Maqsad hayotingizdagi katta rejalar bilan mos bo‘lishi zarur.



Muddatli

Vaqt chegarasi mas’uliyatni oshiradi. “Biror kun qilarman” deya yondashilgan maqsad hech qachon amalga oshmaydi. Aniq sana yoki muddat sizni harakatga undaydi. Masalan, kelasi 6 oy ichida ingliz tilida erkin gapira olishni o‘rganaman. Muddat maqsadni rejaga aylantiradi. Bu orqali nazorat, intizom va vaqtni samarali ishlatish ko‘nikmasiga ega bo‘lasiz.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun biz SMART usulini o‘rganishimiz kerak?
2. SMART usulidan qayerda va qachon foydalanish mumkin?
3. Quyidagi savollarni SMART mezonlarga moslashtiring:
Maqsadga erishish uchun zarur bilim va resurslar mavjudmi?
Belgilangan muddatda maqsadga erishishga qanday omillar to‘sqinlik qilishi mumkin?
Meni qay jihatlar qoniqtirmaydi?
Jarayonni qancha muddatda kuzatib borish kerak?
Maqsadga erishgandan keyin hayotim qanchalik o‘zgaradi?

Mezonlar	To‘g‘ri qo‘yiladigan savollar
Aniq	
O‘lchanadigan	
Erishish mumkin bo‘lgan	
Muvofiq va tegishli	
Muddatli	

Guruh muhokamasi

SMART mezonlar asosida moliyaviy maqsad qo‘yish

“Men pul tejamoqchiman” degan xayolda yurgan paytlaringizni eslang. Bu SMART maqsadmi yoki yo‘qmi? Endi ko‘rsatilgan namunaga qarab o‘z maqsadlaringizni SMART mezonlarga moslab, jadvalga yozing (3-jadval).

SMART moliyaviy maqsad namunasi: “Men har hafta cho‘ntak pulimdan 25 000 so‘m tejab, 6 hafta ichida 150 000 so‘m yig‘aman va simsiz quloqchin sotib olaman”.

3-jadval

Aniq	O‘lchovli	Erishish mumkin	Muvofiq	Muddatli
Men simsiz quloqchin sotib olish uchun pul yig‘aman.	Men sotib olmoqchi bo‘lgan simsiz quloqchin narxi 150 000 so‘m.	Men har hafta 25 000 so‘m tejab, 6 hafta ichida 150 000 so‘m yig‘aman.	Simsiz quloqchin menga onlayn darslarni tinglash va kundalik foydalanish uchun kerak.	Men 6 hafta ichida 150 000 so‘m yig‘ib, simsiz quloqchin xarid qilaman.
...	...	...	...	...

Uyga vazifa

Vaziyat. Tez orada kuzgi ta’til boshlanadi. SMART usulidan foydalanib, ta’til davomida erishmoqchi bo‘lgan maqsadingizni belgilang va uni rasm, sxema yoki xarita ko‘rinishida tasvirlang yoxud daftaringizda aniq reja shaklida bayon qiling.


Sayohatga chiqish


Kitob o‘qish/ Yangi qiziqish yo‘nalishi


O‘t yoqib, taom tayyorlash


Teatrga borish


1 kun telefonsiz hayot


Muzeyga borish


Ota-onaga yordam


Maqsadlar qo‘yish/ Kundalik yuritish

QO‘SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1-vaziyat.

Kamola pensiya haqida ma’lumot olish uchun Pensiya jamg‘armasi haqidagi axborot materiallarini o‘qib chiqdi va internetdagi pensiya kalkulyatori yordamida kelajakda oladigan pensiyasi miqdorini hisoblab ko‘rishga qaror qildi. Kamola hozir 35 yoshda, u ishlaydi.

Ilgari u kelajakdagi pensiyasi haqida deyarli o‘ylamagan edi, ammo endi xavotirga tushdi: bu pul bilan qarilikda qanday yashash mumkin?

1. Kamola pensiyaga chiqqanida daromadi pensiya kalkulyatori ko‘rsatgan miqdordan yuqoriroq bo‘lishi uchun bugundan boshlab qanday ishlarni qilishi lozim?

2. Pensiyani kalkulyator orqali aniqlash va shu asosida qaror qabul qilish qanchalik to‘g‘ri deb hisoblaysiz? Javobingizni asoslab bering.

3. Ro‘yxatda keltirilgan pensiya turlari va uning tarkibiy qismlariga tayanib izoh bering: agar inson faqat pensiyaning bazaviy qismiga tayanib qolsa, bu uning qarilik davridagi hayoti sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Shuningdek, pensiyaning qaysi tarkibiy qismi inson moddiy ahvolini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin?

O‘zbekiston fuqarolariga pensiya hisoblash tartibi

Pensiya ta’minoti turlari:

yoshga doir pensiya;

nogironlik bo‘yicha pensiya;

boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha pensiya.

Turli xil pensiyani olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar faqat bittasini tanlashi mumkin.

Pensiyangiz nimalardan tashkil topadi?

Pensiyaning bazaviy miqdori (mehnat staji 7 yildan boshlab) o‘rtacha oylik ishhaqining 55 foizi, ammo yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Mehnat staji uchun ustama. Har bir to‘liq ishlangan yil uchun pensiyaning bazaviy miqdori o‘rtacha oylik ishhaqining 1 foiziga oshiriladi.

Individual koeffitsiyentlar mehnat turi, sog‘liq, oilaviy ahvol va boshqa xususiyatlarga bog‘liq.

Jamg‘arib boriladigan pensiya

– ixtiyoriy ravishda oylik ishhaqining 1 foizi miqdorida ijtimoiy soliq to‘langanda shakllanadi;

– mablag‘lar maxsus hisobraqam (INPS)ga tushadi;

– ushbu mablag‘dan pensiyaga chiqqandan so‘ng foydalanish mumkin.

2-vaziyat.

O‘zbekiston rasmiy vebsaytlaridan mehnat shartnomasi namunasini toping va o‘rganing. 16 yoshli o‘quvchi kuryer sifatida ishga joylashdi. Ish beruvchi u bilan rasmiy mehnat shartnomasi tuzmadi va ishhaqini 2 haftadan beri to‘lamayapti.

Xodimning huquqlari buzilganmi? Ushbu vaziyatda mehnat qonunchiligining qaysi normalari buzilgan deb hisoblaysiz? O‘quvchi bunday holatda nima qilishi kerak? Rasmiy mehnat shartnomasisiz ishlash mumkinmi?

II BOB.

DAROMAD

2.1. Daromad
2.2. Mehnat ehtiyoji
2.3. Mehnat bozori
Qo‘shimcha topshiriqlar

2.1. DAROMAD

Bugungi darsda:

– daromad va uning turlarini ta’riflaysiz;
– daromadning muqobil turlari (ishhaqi, tadbirkorlik daromadi, passiv daromad, davlat to‘lovlari)ni o‘rganasiz;
– daromadlarni boshqarish, to‘g‘ri rejalashtirish va prognoz qilishni o‘zlashtirasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Sevara 3 000 000 so‘m pulni bir yil muddatga bankka omonatga qo‘ydi. Shartnomaga ko‘ra, bank omonat summasiga har oy foiz hisoblab, uni Sevaraning hisobraqamiga o‘tkazib boradi. Bir oy o‘tgach, uning hisobraqamiga 50 000 so‘m tushdi.
Dilshod reklama banneri dizaynini ishlab chiqib, mehnati uchun 500 000 so‘m haq oldi.
Bu ikki daromadni taqqoslang.

Insonning ma’lum vaqt davomida (bir oyda yoki bir yilda) ishlab topgan va qo‘lga kiritgan barcha moddiy hamda pul tushumlari **daromad** deb ataladi. Daromad iqtisodiyotning muhim tushunchalaridan biridir. Bu insonning yashash manbayi, ehtiyojlarini qondirish va kelajak uchun jamg‘arish imkonini beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Guruh muhokamasi

Hovlida qurilgan hovuz (basseyn) daromad keltirishi mumkinmi? Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qilib, fikringizni asoslang.

Daromad mehnat, tadbirkorlik (jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida), ijodiy faoliyat, investitsiya hamda boshqa iqtisodiy faoliyat orqali topilishi mumkin. U ishhaqi, nafaqa, stipendiya, pensiya, dividendlar va boshqa manbalardan kelib tushadigan mablag‘larni o‘z ichiga oladi. Daromad har doim ham pul ko‘rinishida bo‘lavermaydi. Masalan, oila o‘z tomorqasida sabzavot yetishtirib, uni iste’mol qilsa, bu bevosita pul daromadi bo‘lmasa ham, ehtiyojlarini qoplashga xizmat qilgan daromad hisoblanadi.

Daromad – jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan iqtisodiy faoliyat, mehnat, mulkka egalik qilish, investitsiyalar hamda boshqa daromad manbalari natijasida olingan foyda yoki tushumlar.

Daromad insonning yashash darajasini belgilaydi. Shuning uchun uni to‘g‘ri boshqarish, jamg‘arish va investitsiya qilish talab etiladi.

Daromadning asosiy turlari

Mehnat daromadi
Insonning o‘z mehnati, kuchi, bilimi yoki malakasi evaziga oladigan daromadi. Boshqacha aytganda, ishhaqi, xizmat haqi, mukofot yoki bonus shaklida olinadigan barcha tushumlar mehnat daromadiga kiradi.

Passiv daromad
Doimiy ishlamasangiz ham kelib turadigan daromad. Misol uchun, mulk ijara haqi, litsenziya huquqlari, aksiyalardan olinadigan dividend. Passiv daromad yaratish uchun boshlang‘ich kapital, vaqt yoki kreativ/innovatsion fikr zarur.

Tadbirkorlik daromadi
Biznes ochish, mahsulot yoki xizmatni bozorga olib chiqish va foyda olish natijasida keladi. Bunda shaxs faol mehnat bilan bir qatorda biznes strategiyasi, kapital qo‘yish, risklarni boshqarish bilan shug‘ullanadi.

Davlat to‘lovlari yoki transferlar
Davlat tomonidan taqdim etiladigan nafaqa, stipendiya, subsidiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlar. Masalan, yoshlar uchun ta’lim stipendiyalari, pensiya to‘lovi, ijtimoiy himoya dasturlari. Bunday daromad odatda shaxsning iqtisodiy holatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Guruh muhokamasi

Agar inson faqat bitta daromad manbayiga tayanib yashasa, qanday xavflar yuzaga kelishi mumkin? Hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, bir nechta daromad manbayiga ega bo‘lishning ustunliklarini tahlil qiling.

Daromadni rejalashtirish va prognoz (bashorat) qilish bosqichlari

1. Daromad manbalarini aniqlash bosqichi. Inson yoki oila qayerdan daromad olishini aniqlaydi. Bu bosqichda barcha mavjud va kutilayotgan daromad manbalari ro‘yxati tuziladi.

2. Daromad miqdorini hisoblash. Har bir manbadan oylik yoki davriy tushum miqdori aniqlanadi. Masalan: ishhaqi – 2 000 000 so‘m, stipendiya – 540 000 so‘m, qo‘shimcha ish uchun to‘lov – 300 000 so‘m: jami daromad = 2 840 000 so‘m.

3. Daromadni taqsimlash rejasini tuzish. Bu bosqichda daromad quyidagilarga foiz yoki summalar bo‘yicha bo‘linadi: zarur xarajatlar (ovqat, transport, kiyim), jamg‘arma, o‘yin-kulgi yoki dam olish, yordam (xayriya, sovg‘a va boshqalar). Maqsad – har bir so‘mni oqilona taqsimlash.

4. Daromad o‘sishini prognoz qilish. Bu bosqichda inson kelajakda daromad miqdori qanday o‘zgarishini taxmin qiladi: ishhaqi oshishi, yangi ishdan olinadigan daromad, mavsumiy daromadlar, investitsiya yoki jamg‘arma foizlari. Prognoz orqali kelajakdagi moliyaviy imkoniyatlar baholanadi.

5. Natijalarni tahlil qilish va tuzatish. Reja amalga oshganidan keyin daromad kutilganidek tushgani yoki tushmagani tahlil qilinadi. Agar farq mavjud bo‘lsa, keyingi davr uchun reja qayta ko‘rib chiqiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun ayrim insonlar bir xil ishhaqi olsa-da, biri tez boyiydi, boshqasi esa doimo qarzga botib yuradi?

2. Siz yosh mutaxassissiz va oylik daromadingiz 5 million so‘m. Keyingi 3 yilga mo‘ljallangan shaxsiy moliyaviy rejangizni tuzing. Namuna:

1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	4-bosqich	5-bosqich
Ishhaqi; qo‘shimcha ish.	Ishhaqi – 5 mln so‘m; qo‘shimcha ishhaqi – ...?	__% zarurat; __% jamg‘arma; __% dam olish.	Prognoz qilish 5 mln → ..?	Har oyda moliyaviy rejani qayta ko‘rib chiqish.

3. Berilgan tovar va xizmatlarni jadvalda taqsimlang va tanlovingizni izohlang.



Sayohat Suv Kiyim Tuz Smartfon Non Avtomobil

Hashamat tovarlari	Oddiy tovarlar	Zarur tovarlar
...	...	...

Ma’lumot uchun

Odam hayoti davomida o‘rtacha taxminan 80 ming soat vaqtini ishda o‘tkazadi. Ya’ni inson hayotining katta qismi daromad topishga sarflanadi. Shu sababli daromadni to‘g‘ri rejalashtirish va taqsimlash moliyaviy barqarorlikning muhim kalitidir.

Manba: Finlit.uz

Uyga vazifa

1. Oilangizdagi daromad manbalaridan bittasini tanlab, uni qanday oshirish mumkinligini yozing.

2. O‘z daromadingizni (yoki cho‘ntak pulingizni) 3 oy davomida jamg‘arish rejasini tuzing.

2.2. MEHNAT EHTIYOJI

Bugungi darsda:

– insonlarning ishlashga bo‘lgan ehtiyojini tushunasiz;

– kelajak rejasini tuzishda kasb tanlashga ta’sir qiluvchi shaxsiy omillar (qiziqish, qobiliyat, bozor talabi, maosh, imkoniyatlar)ni tahlil qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Insonlar nima uchun mehnatga ehtiyoj sezadi?



Inson turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida boshqa kishilar bilan iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadi. Mehnat orqali u o‘z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan mablag‘ topadi. Zamonaviy iqtisodiyot talab yuqori va iste’molchi xarid qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Ishlab chiqarishning taraqqiyoti, texnologik o‘zgarishlar va innovatsiyalar nafaqat insonning ehtiyojlari, afzalliklari va istaklari doirasini kengaytiradi, balki ularning o‘zgarishiga ham sabab bo‘ladi.

Mehnat – insonning rivojlanishi va tabiat resurslarini moddiy, aqliy hamda ma’naviy ne’matlarga aylantirishi jarayoni.

Guruh muhokamasi

Uy vazifasini bajarishni mehnat deb hisoblash mumkinmi? Javobingizni misollar orqali izohlang.

Mehnat – insonning o‘zi yoki boshqalarga naf keltiradigan har qanday faoliyati. U har doim ham pul topish bilan bog‘liq bo‘lavermaydi. Masalan, dalahovlida ota-onangizga hosilni yig‘ishtirishda yordam berish yoki uy yumushlarini bajarish pul mukofoti bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin, biroq bu faoliyat ham mehnat hisoblanadi. Mehnat – insonning ma’naviy qiyofasini shakllantirishning asosi, mehnatsevarlik esa shaxsning eng muhim fazilatlaridan biridir. U orqali inson o‘zini namoyon etadi, iste’dodi va qobiliyatini rivojlantiradi.






Guruh muhokamasi

Quyidagi holatlarni o‘qing va har birida insonning mehnat ehtiyoji nimada namoyon bo‘layotganini aniqlang. Bu vaziyatlarning qaysilarida mehnatga ehtiyoj kuchliroq? Qaysi holatda mehnat nafaqat daromad manbayi, balki o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lgan? Agar insonning mehnatga ehtiyoji past bo‘lsa, bu uning hayotiga qanday ta’sir qilishi mumkin?

1. Nodira yozgi ta’tilda oilaviy byudjetga hissa qo‘shish uchun mahalliy bolalar bog‘chasida tarbiyachi yordamchisi sifatida ishlay boshladi.
2. Kamron o‘zi qiziqqan sohada tajriba orttirish uchun axborot texnologiyalari (AT) kompaniyasida amaliyotchi sifatida ishlamoqda.
3. Muxlisa o‘qish bilan birga kichik onlayn do‘kon ochib, qo‘lda tayyorlagan buyumlarini sotmoqda.
4. Kamol ishsiz qolganidan so‘ng yangi kasb o‘rganish uchun qisqa muddatli kursga yozildi.
5. Sardor ishlamaslikni afzal ko‘radi. Chunki ota-onasi uni pul bilan ta’minlab turadi.

Kasb tanlashda iqtisodiy omillar muhim. Ishhaqi, ish o‘rni barqarorligi, kasbga talab va hududiy mehnat bozori imkoniyatlari kelajakdagi daromad va istiqbolni belgilaydi. Shu bilan birga, inson o‘z qiziqishi, qobiliyati, imkoniyatlari va orzularini ham inobatga oladi.

Kasbni o‘rganish rejasi – shaxsiy rivojlanish va karyerani rivojlantirish uchun aniq maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini qat’iylashtiruvchi strategiya. Unga kirishish uchun shaxsiy va kasbiy maqsadlarni aniqlash zarur. Bu o‘zingizni kelgusida qaysi kasbda, qaysi sohada ko‘rishni istashingizni aniqlashga yordam beradi. Insonlarning qiziqishlari ularga mos keladigan kasbni topishda asqatadi. Misol uchun, siz biologiya va kimyo fanlariga qiziqsangiz, tibbiyot yoki farmatsevtika yo‘nalishida kasb tanlaganingiz ma’qul.



Savol va topshiriqlar

1. I. Mehnatdan ko‘zlangan asosiy maqsad nimadan iborat?

A) Bo‘sh vaqtni samarali va foydali o‘tkazish

B) Jamiyatga foyda keltirish orqali daromad topish va ehtiyojlarni qondirish

D) Pul jamg‘arish va investitsiya qilish

E) Dam olish imkoniyatini yaratish va sayohatlarga chiqish

II. Quyidagi omillardan qay biri mehnat bozoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi?

A) Iqlimning mavsumiy o‘zgarishi

B) Aholi soni o‘zgarishi va kasbiy malaka talablarining oshishi

D) Sport musobaqalarining mavsumiy tashkil etilishi

E) Tabiiy resurslarning kamayishi va yo‘qolib ketishi

2. Tasavvur qiling, siz non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Oltin non” nomli mahalliy korxonada ishlovchi kichik tahlilchilar jamoasi a’zosisiz. U yerda non, somsa, shirinliklar va boshqa un mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarishni kengaytirish rejalashtirilmoqda va rahbariyat yangi xodimlar yollamoqchi.

Korxona muvaffaqiyatli ishlashi uchun qaysi kasblar zarurligini aniqlang va ularning ahamiyatini baholang. Quyidagi jadvalni to‘ldiring (har bir guruh o‘z xulosasiga ko‘ra ball qo‘yadi):

Kasb nomi	Mehnat bozori talabi	Ishdagi vazifasi	O‘rtacha daromad	Zarurlik darajasi (1–5 ball)
Novvoy				
Sotuvchi				
Haydovchi				
Farrosh				
Buxgalter				

Qaysi kasb novvoyxona uchun eng zaruri deb o‘ylaysiz? Nega?

Har bir kasb egasi korxona muvaffaqiyatiga qanday hissa qo‘shadi?

Mehnatning iqtisodiy qiymatini qanday aniqlash mumkin?

Uyga vazifa

Doimiy mehnat bilan band oila a’zolaringiz haqidagi ma’lumotlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Kasb nomi	U nima ish qiladi?	Mehnatining jamiyatga foydasi	Sizningcha, bu kasbning eng muhim jihati nimadan iborat?
...	...	...	...

2.3. MEHNAT BOZORI

Bugungi darsda:

– mehnat bozori va unda ta’limning rolini tavsiflaysiz;

– mehnat bozorida zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar – kasbiy malaka, muloqot, raqamli savodxonlik va muammolarni hal qilish qobiliyati haqida bilib olasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Aziza kelajakda qaysi soha mutaxassisi bo‘lish haqida fikr yuritmoqda. U bolaligidan rasm chizishni yaxshi ko‘radi va dizayner bo‘lishni istaydi. Lekin ota-onasi “Dizayner diplomi bilan ish topish qiyin, shifokor bo‘lganing ma’qul”, deb maslahat berishdi.

Aziza internet orqali mehnat bozori haqida ma’lumot izladi va O‘zbekistonda ham, xorijda ham grafik dizayner hamda kontent yaratuvchi kasblari juda talabgir ekanini bilib oldi. Nima uchun Aziza mehnat bozori haqidagi ma’lumotlarni o‘rganishga qaror qildi?



Mehnat bozori – ishchilar o‘z mehnatini taklif qiladigan, ish beruvchilar esa talab asosida ularni ishga yollaydigan bozor turi.

Barcha bozorlarda bo‘lgani kabi mehnat bozorida ham ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif ishhaqi miqdorini belgilaydi. Agar biror sohada ishchilarga talab ortsa, odatda ishhaqi oshadi. Aksincha, taklif, ya’ni ish izlayotganlar soni ko‘p, biroq talab yetarli bo‘lmasa, bu sohada ish topish qiyinlashadi va maosh kamayishi mumkin.

Mehnatga talab va taklif



Mehnat bozorida ishhaqiga faqat talab va taklif emas, balki boshqa omillar ham ta’sir qiladi. Ulardan biri – davlat tomonidan belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori. Ish beruvchilar xodimga bu miqdordan kam maosh to‘lay olmaydi.

Mehnat bozorida raqobat kuchli bo‘lib, har bir inson yaxshi ish topishi uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Ta’lim esa bu ko‘nikmalarni shakllantiruvchi eng muhim omillardan biridir. Kasblar murakkablashib borayotgan sharoitda bilimli, malakali va yangiliklarga ochiq yoshlar mehnat bozorida ustunlikka ega bo‘ladi. Ta’lim insonga

qiziqishlarini aniqlash, kelajakdagi yo‘nalishini tanlash, o‘z imkoniyatlarini ko‘rish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun faqat bilimning o‘zi yetarli emas. Ish beruvchilar turli ko‘nikmalarga ega, mas’uliyatli va har tomonlama rivojlangan mutaxassislarni izlaydi. Shu sababli yoshlar mehnat bozorida muhim bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borishi lozim.

Kasbiy malaka. Tanlangan kasb bo‘yicha kerakli bilim va amaliy ko‘nikmalar majmuyi. Malaka shaxsning ta’lim darajasi, kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ish tajribasi ham muhim omil bo‘lib, nomzodning avvalgi ish joylari, egallagan lavozimlari va orttirgan amaliy tajribasi uning mehnat bozori qiymatini, jumladan, ishhaqi miqdorini belgilashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Muloqot ko‘nikmalari. Har qanday ishda boshqa odamlar bilan fikr almashish, o‘z fikrini tushunarli tarzda yetkazish va tinglay bilish juda muhim. Yuqori muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxs jamoaviy faoliyatda samaradorlikka erishadi, nizolarni murosa yo‘li bilan hal etadi va o‘z pozitsiyasini aniq hamda ravon yetkaza oladi.

Raqamli savodxonlik. Bugungi kunda deyarli barcha sohalarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Shu bois kompyuterda samarali ishlash, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan va internetdan xavfsiz va maqsadli foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish hamda turli dasturiy vositalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish zarur. Raqamli savodxonlik endilikda faqat axborot texnologiyalari (AT) mutaxassislari uchun emas, balki barcha kasblar uchun muhim va majburiy kompetensiyaga aylanmoqda.

Muammolarni hal qilish qobiliyati. Ish jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va samarali hal eta olish muhim. Muammoni tahlil qilish, uning sabablarini aniqlash va eng maqbul yechimni tanlash ko‘nikmalari barcha sohalar uchun zarur bo‘lib, ular shaxsning mustaqil fikrlashi hamda mas’uliyatli qaror qabul qilishini ta’minlaydi.

Ma’lumot uchun

Professionallik odatda hayotiy ko‘nikma deb hisoblanmaydi, lekin ish beruvchilarning xodimlarga talabi xususida so‘z borganda, eng avval ana shu xususiyat tilga olinadi. Professionallik ko‘pincha intizom, tashqi ko‘rinishga e’tibor, ishbilarmonlik, odob-axloq, vazminlik kabi sifatlarda namoyon bo‘ladi.

Manba: Finlit.uz

Guruh muhokamasi

1. Qaysi uchta ko‘nikma mehnat bozorida qiymatga ega, ya’ni yuqori haq to‘lanadigan ish topishga yordam berishi mumkin? Quyidagi jadvalni to‘ldiring va javobingizni izohlab bering.

Ko‘nikma va uning ta’rifi	Ko‘nikma talab qilinadigan soha / kasb	Ko‘nikmaning kasb uchun ahamiyati
...	...	...

2. Bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi e’londa xodimning majburiyatlari (bajarishi kerak bo‘ladigan vazifalar), xodimga qo‘yiladigan talablar (malaka va shaxsiy fazilatlar) hamda ish beruvchi xodimga nima taklif qilishi (ishhaqi, qo‘shimcha imtiyozlar va hokazo) yoziladi.

Quyidagi e’lonlarni o‘qib, muhokama qiling. Qaysi kasb sizni qiziqtirdi? Bu kasb uchun qanday malaka talab qilinadi?

Sotuv menejeri majburiyatlari:
– chakana savdo do‘konlarini topish;
– mahsulotlarni chakana sotuvchilarga targ‘ib qilish;
– chakana sotuvchilar bilan munosabatlarni boshqarish;
– chakana sotuvchilardan to‘lovlarni yig‘ish va ularning mahsulotga talabini o‘rganish;
– kompaniya brendi va marketing targ‘iboti qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish.

Izoh: **chakana savdo** – tovarlarni yakuniy iste’molchiga shaxsiy foydalanish uchun oz miqdorda sotish jarayoni.

Talablar:
– oliy ma’lumot;
– ijobiy muloqot ko‘nikmalari;
– sotuv bo‘yicha tajriba;
– mehnatsevarlik va maqsadga intilish.

Ishhaqi va bonuslar:
– kelishilgan maosh;
– chet elda malaka oshirish.

Haydovchi majburiyatlari:
– xodimlarni tashish uchun tashkilot avtomobilini haydash;
– pochta, hujjatlarni yetkazish, rasmiy xodimlarni aeroportda kutib olish, mehmonxonaga joylashtirish;
– biriktirilgan avtomobilga kundalik texnik xizmat ko‘rsatish, uning soz holatini ta’minlash hamda transport vositasini ozoda va tartibli holda saqlash.

Talablar:
– o‘rta ma’lumot, haydovchilik guvohnomasi (B toifa);
– kamida 2 yillik ish tajribasi;
– avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatish va mayda ta’mirlash bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Ishhaqi va bonuslar:
– kelishilgan maosh;
– tibbiy sug‘urta.

Savol va topshiriqlar

1. Mehnat bozorida talabni kim shakllantiradi? Taklifni-chi?
2. Ishhaqiga qaysi omillar ta’sir qiladi? Qaysi ko‘nikmalar yuqori haq to‘lanadigan ishga joylashishga yordam berishi mumkin?
3. Shaxs norasmiy ishlab, maoshini naqd pul shaklida oladi. Bunday holat qanday moliyaviy va huquqiy risklarni keltirib chiqarishi mumkin?

Uyga vazifa

Orzungizdagi kasb haqida fikr yuriting. Bu kasb uchun hozir sizda yetishmayotgan bilim va ko‘nikmalar ro‘yxatini hamda ularni egallash rejasini tuzing.

QO‘SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1-vaziyat.

A) Jadvalni tahlil qiling. Nima sababdan korxona ajratgan pul bilan xodim qo‘liga olgan pul o‘rtasida farq bor? Bu farq xodimning kelajakdagi ijtimoiy himoyasiga (pensiya, nafaqa) qanday ta’sir qiladi?

Korxona xodimga ishhaqi uchun ma’lum miqdorda pul ajratdi	Xodim qo‘liga olgan ishhaqi miqdori	Davlatga to‘langan mablag‘
2 700 000 so‘m	2 349 000 so‘m	351 000 so‘m

B) Ayrim kasblar va faoliyat turlari vaqtincha yoki to‘liq daromad solig‘idan ozod etilgan. Agar yosh mutaxassis shunday kasb egasi bo‘lsa, bu holat uning kelajakdagi pensiyasi va ijtimoiy kafolatlariga qanday ta’sir qiladi? Javobingizni izohlang.

2-vaziyat.

Suratlarda turli kasb egalari tasvirlangan: orkestr boshqaruvchisi (dirijyor), balet artistlari, hayvon o‘rgatuvchi, qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari, rassom va murabbiy. Ushbu kasb egalarini mehnat bozori ishtirokchilari deb hisoblash mumkinmi? Nima uchun “Ha” yoki nima uchun “Yo‘q”? Javobingizni tushuntirib bering.








III BOB.

XARAJAT

3.1. Oqilona va impulsiv xaridlar
3.2. Oila moliyasini boshqarish
3.3. Bank-moliya xizmatlari
3.4. Moliyaviy texnologiyalar (fintex)
3.5. Iste’molchi huquqlari
3.6. Shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash
3.7. Raqamli moliyaviy xavfsizlik
Qo‘shimcha topshiriqlar

3.1. OQILONA VA IMPULSIV XARIDLAR

Bugungi darsda:

– impulsiv xarid va xarid terapiyasi tushunchalarini taqqoslaysiz;
– ularning ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qilasiz;
– iste'mol madaniyatida oqilona xaridning ahamiyatini tushunib olasiz.

O'ylab ko'ring!

Tasavvur qiling, sinfdoshlaringiz yaqinda ochilgan istirohat bog'iga bormoqchi. Ammo sizda ular bilan birga borish uchun yetarli pul yo'q. Qanday yo'l tutasiz? Sinfdoshlaringiz bilan istirohat bog'iga bora olmasangiz, o'zingizni qanday his qilasiz? Bu vaziyatda siz qanday qaror qabul qilgan bo'lardingiz? Nima uchun?

Bugungi kunda reklama, marketing, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor to'lov tizimlarining kengayishi natijasida iste'molchilarning xulqi, xatti-harakatlari sezilarli darajada o'zgardi. Ayniqsa, impulsiv xarid va xarid terapiyasi kabi tushunchalar kundalik hayotda ko'p uchramoqda. Ular bir-biriga o'xshash ko'rinsa ham, aslida xaridorning ruhiy holati, motivatsiyasi va moliyaviy oqibatlar jihatidan farq qiladi.

Impulsiv xarid – odamning oldindan rejalashtirmagan, hissiyotga asoslangan tezkor qarori natijasida sodir bo'ladigan xarid. Bunda xaridor mahsulotning zarurati, muqobil variantlari yoki narxini puxta o'ylab ko'rmaydi.

Bunday xaridlar ko'pincha "chegirma", "oxirgi dona", "faqat bugun" kabi marketing signallari ta'sirida yuzaga keladi. Xaridor mahsulotning chindan zarurligi, narxi yoki muqobil variantlarini chuqur o'ylab ko'rmasdan, o'sha paytdagi kayfiyat yoki hayajon ta'sirida qaror qabul qiladi. Natijada impulsiv xariddan keyin pushaymonlik, afsus hissi yoki keraksiz xarajat oqibatida moliyaviy tanglik yuzaga kelishi mumkin.



Guruh muhokamasi

Nima uchun:
• do'kondagi kassa oldiga shirinlik, saqich, o'yinchoq singari mahsulotlar terib qo'yiladi?
• chegirmalar e'lon qilinganda eski narx ham qo'shib ko'rsatiladi?
• aksar mahsulotlar narxi 399 000 so'm, 199 000 so'm kabi yoziladi?

Impulsiv xarid rejasiz sodir bo‘lsa, xarid terapiyasi ko‘proq ichki kechinmalarni yengillashtirish istagidan kelib chiqadi. Ba’zan inson o‘zini chalg‘itish yoki “mukofotlash” niyatida xaridni amalga oshiradi. Bu jarayon qisqa muddat ijobiy hissiyot uyg‘otishi mumkin, biroq oxir-oqibat moliyaviy nazorat susayib, keraksiz yoki ortiqcha sarf-xarajatlar paydo bo‘ladi. Xarid terapiyasi insonning hissiy ehtiyojini vaqtincha qondirsa-da, uzoq muddatli xotirjamlik bermaydi va ba’zan qayta-qayta xarid qilish odatini shakllantiradi.

Xarid terapiyasi – kayfiyatni ko‘tarish yoki tushkunlik holatidan chiqish uchun biror narsa xarid qilish.

Ba’zan odamlar o‘zini yaxshiroq his qilish uchun narsa-buyum sotib olishadi. Chunki bu hol ularga o‘z hayotimni o‘zim boshqaryapman, degan tuyg‘uni bag‘ishlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, impulsiv xarid ham, xarid terapiyasi ham insonning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Moliyaviy rejalashtirishning buzilishi, kredit yoki bo‘lib to‘lash majburiyatlarining ortishi, pulni samarasiz sarflash odatining shakllanishi eng ko‘p uchraydigan moliyaviy oqibatlardir.

Guruh muhokamasi

Impulsiv xarid va xarid terapiyasi qaror qabul qilish, sabab, natija va rejalashtirish jihatidan qanday farq qilishini jadvalda qayd eting (1-jadval).

1-jadval

Impulsiv xarid belgilari	Xarid terapiyasi belgilari
...	...

Insonlarning xarid qilish odatlari va mablag‘ni boshqarish madaniyati jamiyatning umumiy farovonligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oqilona xarid shunchaki tejamkorlik emas, balki ongli, mas’uliyatli va maqsadli iste’mol madaniyatining ifodasidir. Oqilona xarid qiluvchi inson o‘z ehtiyojlarini aniq biladi, moliyaviy imkoniyatlarini inobatga oladi va har bir xarid ortida uzoq muddatli foyda yoki zarar borligini tushunadi.

Oqilona xarid – ehtiyoj va imkoniyatlar hisobga olingan holda, moliyaviy bilim asosida avvaldan rejalashtirilgan xarid.

Oqilona xarid iste’mol madaniyatining ajralmas qismidir. U jamiyatda mas’uliyatni oshiradi, isrofgarchilikni kamaytiradi, moda ortidan quvish va impulsiv xaridlar o‘rniga buyumlardan uzoq muddatli foydalanish ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv nafaqat shaxsiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, balki atrof-muhit himoyasiga ham xizmat qiladi. Har bir ongli xaridor chiqindilarni kamaytiradi, ortiqcha iste’moldan tiyiladi va natijada ekologik muvozanatni saqlashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Iste’mol madaniyati – aholining mahsulot va xizmatlarga yondashuvi, xaridlarga oid qadriyatlar va jamiyatda shakllangan odatlar majmuyi.

Oqilona xaridning moliyaviy jihatdan afzalliklari talaygina. Avvalo, bu pulni tejashga yordam beradi va ortiqcha xarajatlarning oldini oladi. Shuningdek, kutilmagan vaziyatlar uchun jamg‘arma yig‘ish osonlashadi. Oqilona xarid qiluvchi inson o‘z qarorlarida adashmaydi, tashvishlardan uzoq bo‘ladi va kundalik hayoti oson kechadi. Buning uchun murakkab qoidalar shart emas, xarid ro‘yxatini tuzish, keraksiz narsani sotib olmaslik yoki sifatli, zarur mahsulotni tanlashning o‘zi yetarli. Shu tariqa oqilona xarid qilish odati insonni mas’uliyatli va mustaqil iste’molchi sifatida shakllantiradi.

Guruh muhokamasi

Muhokamadan so‘ng xulosa chiqaring (2-jadval).

2-jadval

Vaziyat	Impulsiv xaridmi? Ha / Yo‘q	Sababi
1. Maktabda do‘stingiz bilan arazlashib qoldingiz. O‘zingizni xursand qilish uchun kinoteatrga borib, yangi chiqqan filmni tomosha qildingiz.		
2. Oshxonaga tushlik qilgani kirdingiz. Lag‘mon buyurtma qilmoqchi edingiz, ammo yoningizdagi stolda qozonkabob yeyayotgan kishini ko‘rib, fikringiz o‘zgardi va siz ham shu taomga buyurtma berdingiz.		
3. Oziq-ovqat do‘koniga tayyor xarid ro‘yxati bilan kelib, ro‘yxatdagi narsalarni sotib oldingiz.		
4. Sevimli brendingizdagi futbolka uchun kutilgan chegirma e’lon qilindi va siz uni sotib olishga qaror qildingiz.		
5. Do‘stingiz sizni tug‘ilgan kuniga taklif qildi. Yig‘ayotgan pulingizga ensiklopediya xarid qildingiz va do‘stingizga tuhfa etdingiz.		
6. Maktabdagi musobaqada g‘olib bo‘lganingizni eshitib, xursandchilikdan sinfdoshlaringizga muzqaymoq olib berdingiz.		

1-keys. Dilshod imtihondan yiqilgach, juda xafa bo‘ldi. U kayfiyatini ko‘tarish uchun ancha vaqtdan buyon orzu qilgan, lekin aslida u qadar zarur bo‘lmagan qimmat sport krossovkasini sotib oldi. Xarid jarayonida u hayajon, quvonch va xotirjamlikni his qildi. Biroq oradan bir necha kun o‘tib, pushaymonlik va afsus tuyg‘usi paydo bo‘ldi – chunki u jamg‘argan pullariga qo‘shimcha adabiyotlar va imtihonga tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur o‘quv resurslarini xarid qilishi mumkinligini anglab yetgan edi. Endi u yana tushkun kayfiyatda.

Savollar:



1. Dilshodning bu xatti-harakati impulsiv xaridmi yoki xarid terapiyasimi?
2. Dilshodning qaroriga ichki va tashqi omillarning qaysi biri ta’sir ko‘rsatdi? Misollar bilan asoslang.
3. Agar shu kabi hodisa takrorlansa, bu kelajakda Dilshodning moliyaviy ahvoli, ruhiy holati va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga qanday ta’sir qilishi mumkin?
4. Dilshod stressni kamaytirish uchun xariddan tashqari qanday sog‘lom psixologik strategiyalardan foydalanishi mumkin edi? Uchta amaliy usulni taklif qiling va har birining afzalliklarini izohlab bering.

2-keys. Malika sinfidagi aksar qizlar urfga kirgan sumka xarid qilganini ko‘rdi. Tengdoshlaridan ortda qolmaslik va zamonaviy ko‘rinish istagida u ham ota-onasidan pul so‘rab sumka sotib oldi. Biroq oradan qisqa vaqt o‘tib, moda o‘zgardi va bu sumkaga qiziqish pasaydi. Natijada Malikaning uni ishlatgisi kelmay qoldi va mazkur xariddan pushaymon bo‘ldi.

Savollar:



1. Bu impulsiv xaridmi yoki xarid terapiyasi?
2. Malikaning qaroriga qaysi ijtimoiy psixologik omillar ta’sir ko‘rsatgan? Savolga javob berishda “tengdoshlar bosimi”, “ijtimoiy maqom” va “o‘zini namoyon qilish ehtiyoji” kabi tushunchalardan foydalaning.
3. Moda, reklama va ijtimoiy tarmoqlar Malikaning tanloviga qanday bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazganini izohlang.
4. “Modaga ergashish” va “ongli xarid” o‘rtasidagi farqni iste’mol madaniyati nuqtayi nazaridan tahlil qiling.

Uyga vazifa

“Reklama xaridga qanday undaydi?” mavzusida kichik plakat yoki slayd tayyorlang:

a) qaysi reklama sizni jalb qilganini yozing;

b) u sizni oqilona yoki impulsiv xaridga undaganini izohlang.

3.2. OILA MOLIYASINI BOSHQARISH

Bugungi darsda:

– oila byudjeti tushunchasini tavsiflaysiz;
– oila daromadlari va xarajatlari manbalarini tahlil qilasiz;
– oila byudjetini tuzish va hisoblashni o‘rganasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Saidbek o‘zi uchun moliyaviy maqsad belgiladi: qiymati 5 400 000 so‘m bo‘lgan elektrorolik sotib olish. Moliyaviy savodxonlikka bag‘ishlangan vebsaytdagi ma’lumotlar bilan tanishgach, u ushbu maqsadga erishish uchun daromad va xarajatlarini muntazam kuzatib borish zarurligini anglab yetdi. Shu sababli Saidbek 1-oktyabrdan boshlab “Mening byudjetim” mobil ilovasida daromadlari va xarajatlarini qayd etishga qaror qildi.

Saidbekning oylik daromadlari va xarajatlari jadvalda keltirilgan. Bundan tashqari, u tug‘ilgan kuni munosabati bilan 500 000 so‘m, Yangi yil bayrami uchun esa 200 000 so‘m sovg‘a puli oldi.

Oylik daromad	so‘m	Oylik xarajatlar	so‘m
Maktabda tushlik puli, cho‘ntak puli va yo‘lkira	750 000	O‘qish kunlarida tushlik Suv va ichimliklar uchun sarflar Transportda yurish	350 000 120 000 70 000
Jami:	750 000	Jami:	540 000

Saidbek bir oyda tejashi mumkin bo‘lgan mablag‘ miqdorini aniqlang.

Ushbu tejash miqdoriga ko‘ra, Saidbek olti oy ichida elektrorolik sotib olishi mumkinmi? Agar buning imkoni bo‘lmasa, oylik xarajatlarni maqbullashtirish hamda sovg‘a pullaridan oqilona foydalanish orqali elektrorolikni sotib olish uchun mumkin bo‘lgan eng qisqa muddatni aniqlang. Javobingizni asoslang.

Byudjet ma’lum vaqt (hafta, oy yoki yil) mobaynida daromad va xarajatlarning umumiy miqdorini ko‘rsatib beradi. U davlat, kompaniya, ma’lum bir inson yoki oilaga tegishli bo‘lishi mumkin. Byudjetni nazorat qilish pulni boshqarishdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu pulingizni tejash va mablag‘laringizdan maksimal darajada samarali foydalanishga yordam berib, moliyaviy maqsadlarga erishish imkonini yaratadi.

Oila byudjeti – muayyan vaqt davomida oila ixtiyoriga kelib tushadigan ishhaqi, turli xil yordam pullari va boshqa daromadlarning umumiy yig‘indisidir.

Oila daromadi – oilaning barcha a’zolari tomonidan ma’lum vaqt ichida (odatda bir oy davomida) olingan jami pul mablag‘lari yoki moddiy tushumlar.

Byudjetni rejalashtirish oilaning daromad va xarajatlarini to‘g‘ri hisoblash va tartibga solish jarayonidir. Bu jarayonda qaysi xarajatlar o‘ta zarur, qaysilari esa shunchaki xohish asosida qilinayotganini aniq tushunish juda muhim.

Majburiy xarajatlar

Bu shunday to‘lovlarki, ularning muddati va miqdoriga biz ta’sir o‘tkaza olmaymiz:
- soliqlar;
- kredit bo‘yicha to‘lov;
- kommunal xizmatlar va/yoki uy-joy ijarasi uchun to‘lov;
- bolalar bog‘chasi uchun to‘lov va boshqa majburiy to‘lovlar.

Doimiy (zaruriy) xarajatlar

Insonlar oziq-ovqat, kiyim-kechak, transport va aloqa xizmatlaridan foydalanishi zarur. Ba’zilar esa doimiy ravishda dori-darmonga xarajat qilishi kerak. Ushbu xarajatlardan butunlay voz kechish imkonsiz, lekin ularning miqdorini boshqarishimiz, ya’ni transport vositalari va tariflarni solishtirish orqali xarajatlarni maqbullashtirish mumkin.

O‘zgaruvchan xarajatlar

Bunday xarajatlar nisbatan kam uchraydi. Masalan, mebel, maishiy texnika va elektronika sotib olish, ta’tilda sayohat qilish yoki uyni ta’mirlash shu turga kiradi. Bunday xarajatlar bitta maosh bilan qoplanmaydi. Shuning uchun ularni oldindan rejalashtirish va asta-sekin jamg‘arib borish zarur.

Pul oqimini nazorat qilishning yo‘llari

Byudjet tuzish moliyaviy rejani shakllantirishdagi asosiy qadam hisoblanadi. Byudjet yuritishning bir necha bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Maqsadlarni belgilash.
2. Byudjetning daromad qismini shakllantirish.
3. Byudjetning xarajat qismini shakllantirish.
4. Byudjetni tuzish va yuritish (moliyaviy rejalashtirish).
5. Byudjet tahlili.

Daromadlar va xarajatlarni uzluksiz hisobga olish hamda nazorat qilish ularning o‘zgarish sur’atlarini kuzatib borish, maqsadsiz xarajatlarning oldini olish, jamg‘arish, turli vaziyatlarga avvaldan tayyorgarlik ko‘rish va moliyaviy beqarorlikni bartaraf etishga yordam beradi.

Agar ilgari oilaviy byudjet yuritmagan bo‘lsangiz, ishni nimadan boshlashingiz kerak? Javob oddiy va aniq: hoziroq daromad va xarajatlarni hisobga olishga kirishing. Quyida byudjetni hisoblash uchun namunaviy jadval keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Oylik oilaviy byudjetni rejalashtirish jadvali

Oy nomi (dekabr)		Oy kunlari bo‘yicha					
		1.12	2.12	3.12	4.12	5.12	6.12
Daromad							
Ota	Asosiy ishhaqi	16 168 773					
	Mukofot puli						
	Nafaqa						
Ona	Asosiy ishhaqi	10 672 414					
	Bonuslar						
Boshqa daromad manbalari							
Umumiy daromad							
Xarajatlar							
Majburiy xarajatlar	Kommunal to‘lovlar						
	Uyali aloqa va internet	200 000					
	Oziq-ovqat mahsulotlari	100 000	50 000	40 000	150 000	60 000	
	Sanoat mollari						
	Transport va benzin	500 000					
	Salomatlik						
Ixtiyoriy xarajatlar	Kiyim/Poyabzal				100 000		
	O‘yin-kulgi						100 000
	Uy xarajatlari						
	Ko‘zda tutilmagan xarajatlar						
Umumiy xarajatlar							
	Investitsiyalar	5 000 000					
Jami xarajatlar + Jamg‘armalar							
Oylik yakuniy hisobot							
Daromadlar	26 841 187						
Xarajatlar	21 425 698						
Qoldiq	5 415 489						

Savol va topshiriqlar

1. Oila byudjeti deganda nimani tushunasiz? Uni rejalashtirishdan maqsad nima?

2. Agar oila har oyda tushumning bir qismini tejab borishni odat qilsa, bu uzoq muddatda qanday ijobiy natija keltiradi?

3. Tasavvur qiling, oilangiz bir haftada quyidagicha daromad topdi:
ishhaqi: 5 000 000 so‘m; sovg‘a: 500 000 so‘m;
qo‘shimcha daromad: 300 000 so‘m; qarindoshdan yordam: 200 000 so‘m.
Shu haftada oilangiz qilgan xarajatlar:
oziq-ovqat: 2 000 000 so‘m; transport: 500 000 so‘m;
kommunal to‘lovlar: 600 000 so‘m; o‘yinchoqlar va o‘yin-kulgi: 500 000 so‘m;
kitoblar va o‘quv qurollari: 400 000 so‘m; tibbiy xizmatlar: 150 000 so‘m;
do‘stlar bilan uchrashuv va sayohat: 250 000 so‘m.
Sizningcha, qaysi xarajat turlarini qisqartirish hisobiga jamg‘armalarni ko‘paytirish mumkin?

Uyga vazifa

Tasavvur qiling, siz oilaning moliyaviy boshqaruvchisisiz. Sizdan 1 oylik oila byudjetini tuzish so‘ralmoqda. Barcha daromadlar va xarajatlarni jadval ko‘rinishida yozib, tegishli summani ko‘rsatish lozim. Ota-onangiz bilan maslahatlashing. To‘ldirilgan jadval keyingi dars uchun zarur bo‘lib, unda siz moliyaviy menejer sifatida oila byudjetini tahlil qilasiz.

3.2. OILA MOLIYASINI BOSHQARISH

Bugungi darsda:

– oila byudjetini tahlil qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Quyida daromad va xarajatlar jadvali keltirilgan. Jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qiling va xulosa chiqaring. Keyingi rejalarni belgilang.

Oylar soni	1	2	3	4
Oylik daromadlar	5 000 000	5 000 000	5 000 000	5 000 000
Oylik xarajatlar	5 000 000	5 800 000	6 000 000	4 000 000

Ilmiy nuqtayi nazardan byudjetning uch xil holatini ko‘rsatish mumkin: taqchil, muvozanatlashgan va profitsit.







Taqchil byudjet – hisobot davrida jami xarajat jami daromaddan oshib ketgan holat.

Muvozanatlashgan byudjet – hisobot davridagi jami xarajat jami daromadga teng bo‘lgan holat.

Profitsit byudjet – hisobot davrida umumiy daromadlar umumiy xarajatdan oshib ketgan holat.

Ko‘pincha oila byudjetida dastlab taqchillik kuzatiladi. Ammo inson hisob-kitob qilishni o‘rganib, xarajatlarni qanday kamaytirish mumkinligini tushunadi va muvozanatli byudjetga erishadi. Rejalashtirish bosqichida daromad xarajatdan oshib, dastlab profitsit byudjet hosil bo‘ladi, ya’ni jamg‘arma va investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi. Bu vaziyatda eng to‘g‘ri yo‘l – mablag‘ni biror moliyaviy vositaga yo‘naltirish, masalan, depozit yoki maxsus bank jamg‘arma hisobini ochish kerak. Shunda ular ma’lum miqdorda daromad keltiradi. Ammo bunday sarmoya muayyan bosqichda xarajat sifatida hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonda yakuniy byudjet profitsit emas, balki muvozanatlashgan bo‘ladi. Byudjetning eng maqbul holati jamg‘armalar va investitsiyalar uchun mablag‘ manbalari mavjud bo‘lgan muvozanatdir. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilalar umuman olganda oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy ehtiyojlar xarajatini nisbatan doimiy miqdorda taqsimlaydi.

Guruh muhokamasi

O‘rta, yuqori va past daromad holatlarida byudjetning xarajatlar qismini tahlil qiling va quyidagi savollarga javob bering:

4-jadval

Xarajatlar	Past daromad	Ulush (%)	O‘rta daromad	Ulush (%)	Yuqori daromad	Ulush (%)
Oziq-ovqat	2 500 000 so‘m	49,1	3 000 000 so‘m	34,1	3 500 000 so‘m	16,3
Kommunal xizmatlar	600 000 so‘m	11,3	800 000 so‘m	9,1	1 000 000 so‘m	4,7
Kiyim-kechak	500 000 so‘m	9,4	1 000 000 so‘m	11,4	2 000 000 so‘m	9,3
Transport va shaxsiy avtomobil xarajati	700 000 so‘m	13,1	1 500 000 so‘m	17,0	5 000 000 so‘m	23,3
Tibbiy xizmat	300 000 so‘m	5,7	600 000 so‘m	6,8	1 500 000 so‘m	7,0
Ko‘ngil ochish, dam olish	300 000 so‘m	5,7	900 000 so‘m	10,2	4 000 000 so‘m	18,5
Jamg‘arma	300 000 so‘m	5,7	1 000 000 so‘m	11,4	4 500 000 so‘m	20,9
Umumiy	5 200 000 so‘m	100,0	8 800 000 so‘m	100,0	21 500 000 so‘m	100,0

Past daromad holatida pul qanday sarflanadi? O‘rta va yuqori daromadda-chi? Daromad oshishi bilan oziq-ovqatga sarflanadigan xarajat ulushi qanday o‘zgaradi? Kiyim-kechak, transport va kommunal xizmatlar uchun xarajatlar ulushi haqida nima deyish mumkin? Daromad o‘sishi bilan ko‘ngilochar tadbirlarga sarflanadigan mablag‘ qanday o‘zgaradi (4-jadval)?

Jadvalni tahlil qilgandan so‘ng qanday xulosalar chiqarishimiz mumkin?

Past daromad holatida pulni asosan eng zarur narsalarga: oziq-ovqat, uy-joy va kamroq darajada kiyim-kechakka sarflashga to‘g‘ri keladi. Daromad ortishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘plab turlariga xarajat ham oshadi. Shunga qaramay, daromad oshishi bilan oziq-ovqat xarajati ulushi kamayadi. Lekin daromad oshishi bilan o‘yin-kulgi, avtomobillarga xarajatlar ulushi ortadi. “Engel qonuni”ning mohiyati ana shundan iborat.

Engel qonuni. Oilaning daromadi oshgani sayin oziq-ovqatga sarflanadigan xarajat ulushi kamayadi, kiyim-kechak, uy-joy va kommunal xizmatlar uchun xarajatlar ulushi deyarli o‘zgarmaydi. Madaniy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadigan mablag‘ ulushi esa sezilarli darajada ko‘payadi.

Byudjetning “oltin qoidasi”: 50/30/20

Byudjetni rejalashtirishning oddiy usuliga ko‘ra daromad quyidagicha taqsimlanadi.

Daromadning 50 foizi majburiy xarajatlarga ajratiladi: uy-joy, oziq-ovqat, kommunal xizmatlar, internet va mobil aloqa, transport va boshqalar; 30 foizi – istalgan xaridlarga: ko‘ngilochar, sport, sevimli mashg‘ulotlar, go‘zallik salonlari va boshqalar; 20 foizi – jamg‘armaga.



Savol va topshiriqlar

1. O‘ylab ko‘ring: har kuni 10 000 so‘mdan tejab borsangiz, 1 yilda 3 650 000 so‘m bo‘ladi. Bu kichik pulmi yoki katta imkoniyatmi? Fikringizni izohlang.

2. Sizningcha, oilada jamg‘arish odatini shakllantirish uchun ishni qanday qadamlardan boshlash kerak?

3. Oilada tejamkorlik odati shakllansa, bu oila a’zolarining moliyaviy tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

4. Oila byudjeti haqidagi quyidagi fikrlar to‘g‘rimi?

A) Oila byudjetida cho‘ntak xarajati uchun mablag‘ hisobga olinmaydi;

B) Oila byudjeti doimo bir yilga mo‘ljallab tuziladi.

1) Faqat A to‘g‘ri; 2) Faqat B to‘g‘ri;

3) Ikkala mulohaza ham to‘g‘ri; 4) Ikkala mulohaza ham noto‘g‘ri.

Uyga vazifa

Deylik, sizning oylik cho‘ntak pulingiz 300 000 so‘m. Bu mablag‘ni 50/30/20 qoidasi asosida taqsimlamoqchisiz. Ammo siz hozir zarur bo‘lgan 180 000 so‘mlik mahsulot xarid qilishingiz kerak. Qanday qaror qabul qilasiz: pulni qoida bo‘yicha taqsimlaysizmi yoki xaridni amalga oshirasizmi? Daftaringizga qaroringizni asoslab yozing.

3.3. BANK-MOLIYA XIZMATLARI

Bugungi darsda:

– bank moliyaviy xizmatlari va masofaviy xizmatlar haqida bilib olasiz;
– bank va nobank tashkilotlarni solishtirasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Madina bir necha yildan beri ishlab, pul jamg‘arib kelmoqda. U mablag‘ini uyda saqlaydi. Chunki “Naqd pul qo‘limda bo‘lsa, ishonchliroq” deb hisoblaydi. Ayni vaqtda Diyor kichik ishlab chiqarish korxonasini kengaytirish uchun moliyaviy resurs izlamoqda. Unda yaxshi loyiha bor-u, yetarli mablag‘ yo‘q. Ikkalasi ham bitta shaharda, ammo biri – ortiqcha pul egasi, ikkinchisi – qo‘shimcha mablag‘ga muhtoj. Ular qaysi tashkilot orqali bir-biriga yordam berishi mumkin?

Bank moliyaviy tashkilot bo‘lib, omonatlarni qabul qiladi, kreditlar beradi, to‘lov operatsiyalarini amalga oshiradi, valyuta ayirboshlaydi va boshqa qator moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatadi. Bankning asosiy vazifasi – iqtisodiyot ishtirokchilari o‘rtasida pul harakatini ta’minlash.

Markaziy bank – mamlakatning asosiy banki bo‘lib, butun bank tizimi ishini tartibga soladi va nazorat qiladi.

Markaziy bank – mamlakatda narxlar barqarorligi, bank tizimi barqaror faoliyat yuritishini va to‘lovlar uzluksiz amalga oshishini ta’minlaydigan davlat organidir. U pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, ya’ni pul muomalasini va kreditlar bo‘yicha qoida-tartiblarni belgilaydi. Shuningdek, tijorat banklari, to‘lov tashkilotlari va ayrim nobank kredit tashkilotlari (masalan, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar) faoliyatini litsenziyalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi.



Markaziy bank milliy valyutaning barqarorligini saqlaydi, inflyatsiya darajasini nazorat qiladi va valyuta kursini kuzatib boradi. Tijorat banklari uchun zaxira me’yorlarini belgilab, ularning xavfsiz ishlashiga yordam beradi. Bundan tashqari, u davlatning oltin-valyuta zaxiralarini boshqaradi va mamlakatdagi to‘lov tizimlarining xavfsiz, tez va uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Tijorat banki – bank faoliyatini tijorat asosida amalga oshiruvchi kredit tashkiloti bo‘lib, mablag‘larni jalb qiladi, kreditlar ajratadi, bank hisobvaraqlarini ochadi va yuritadi, to‘lov operatsiyalarini amalga oshiradi hamda boshqa bank xizmatlarini ko‘rsatadi.

Tijorat banklari jamg‘arma egalari bilan moliyaviy resurslarga muhtoj bo‘lganlar o‘rtasida vositachilik qiladi. Ular iqtisodiyotning “qon tomir tizimi” bo‘lib, aholi va biznesning jamg‘armalarini qayta taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta’minlaydi. Bunday vositachilik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Tijorat banklari vositachi sifatida omonatlarni ulardan foydalanganlik uchun foiz to‘lash sharti bilan jalb qiladi va bu mablag‘larni aholi hamda tadbirkorlarga kreditlar va boshqa moliyalashtirish shakllari orqali foiz asosida taqdim etadi.

Guruh muhokamasi

Agar tijorat banklari iqtisodiyotning “qon tomir tizimi” bo‘lsa, ular faoliyati izdan chiqishi iqtisodiyotda qanday oqibatlarni yuzaga keltiradi? Chizma (sxema) shaklida tasvirlang va tushuntirib bering.

Nobank moliyaviy tashkilotlar (NMT) – moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi, biroq bank faoliyatini amalga oshirish uchun to‘liq litsenziyaga hamda aholi omonatlarini qabul qilish huquqiga ega bo‘lmagan yuridik shaxslar. Ularga mikrokredit tashkilotlari (MKT), lombardlar, kredit iste’mol kooperativlari, sug‘urta va lizing kompaniyalari, investitsiya fondlari kiradi.

Mikromoliyaviy tashkilotlar
kichik biznes subyektlari va kam daromadli aholini moliyalashtirish uchun kichik miqdordagi kreditlar beradi.

Lombard
garov evaziga qisqa muddatli qarz ajratuvchi moliyaviy tashkilot.

Sug‘urta kompaniyalari
kutilmagan hodisalar oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qiladi.

Lizing kompaniyalari
uskuna yoki transport vositasini uzoq muddatga ijaraga berib, keyinchalik sotib olish imkonini yaratadi.

Investitsiya fondlari
investorlarning mablag‘larini birlashtirib, professional boshqaruv asosida investitsiya faoliyatiga yo‘naltiradigan tashkilot.

Banklar, nobank moliyaviy tashkilotlar, investitsiya kompaniyalari, sug‘urta firmalari va fintex xizmatlari moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun keng ko‘lamli moliyaviy imkoniyatlar yaratadi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun iqtisodiyotning barqaror ishlashida tijorat banklarining uzluksiz faoliyati muhim hisoblanadi?

2. Siz mijoz sifatida quyida berilgan vaziyatlar yuzasidan qaror qabul qilishingiz va mos bank-moliya xizmatini tanlashingiz kerak. Daftaringizga jadvalni ko‘chiring va to‘ldiring.

Vaziyat	Qaysi tashkilot xizmat ko‘rsatadi? Markaziy bank/ Tijorat banklari / Nobank tashkiloti
Siz talaba bo‘ldingiz va o‘qish uchun pul yig‘moqchisiz.	
Otangiz chet elga pul jo‘natmoqchi.	
Akangiz muddatli to‘lovga yangi kompyuter olmoqchi.	
Oilangiz uy mebelini yangilamoqchi.	
To‘lov tizimida muammo yuzaga keldi, banklararo hisob-kitoblar sekinlashdi.	

Nima sababdan bank xizmatlari mijozlarning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga qarab farqlanishi zarur? Sizningcha, moliyaviy qaror qabul qilishda eng muhim omil nima: foyda, xavfsizlik, qulaylik yoki tezlik? Javobingizni izohlang.

Uyga vazifa

Oilangizda so‘nggi bir oyda amalga oshirilgan 5 ta moliyaviy operatsiyani aniqlang va “Moliyaviy detektiv kundaligi” shaklida yozing. Har bir operatsiyani uni kim, nima maqsadda amalga oshirgani va bu qaror oqilona bo‘lgan yoki bo‘lmaganini qisqacha izohlang.

3.3. BANK-MOLIYA XIZMATLARI

Bugungi darsda:

– karta to‘lovlari, tranzaksiyalar, valyuta konvertatsiyasi kabi bank-moliya xizmatlari hamda masofaviy xizmatlar haqida bilib olasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Kamola tovarlarni O‘zbekistonga yetkazib beruvchi xalqaro internet-do‘konda yangi quloqchinga buyurtma berdi. Quloqchin narxi 25 AQSH dollari deb ko‘rsatilgan. U summani xalqaro bank kartasi orqali konvertatsiya qilib to‘ladi. Lekin Kamolaning kartasidan kutilganidan ko‘proq mablag‘ yechildi. Bunga nima sabab bo‘lishi mumkin?

Oldingi mavzuda Markaziy bank, tijorat banklari va nobank tashkilotlarning iqtisodiyotdagi vazifalarini ko‘rib chiqdik. Tijorat banklarining eng muhim vazifalaridan biri aholi va tadbirkorlarga qulay moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishdir. Hozirgi globallashuv davrida bank kartalari nafaqat to‘lov vositasi, balki tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan kundalik moliyaviy xizmatlardan tezkor, xavfsiz va qulay foydalanish imkonini beruvchi zamonaviy moliyaviy instrumentdir.

Kartalar orqali:

– mobil ilovada to‘lash;
– onlayn xarid qilish;
– kommunal xizmatlar uchun to‘lash;
– o‘zaro pul o‘tkazish;
– shaxsiy bank hisoblarini boshqarish imkoniyati mavjud.

Guruh muhokamasi

Chet elga sayohat qilganda O‘zbekistonda chiqarilgan qaysi bank kartasidan foydalanish mumkin? Suratdagi kartalar orasidan tanlab, sababini tushuntiring.



Bank kartalari haqida gap ketganda “tranzaksiya” atamasi tez-tez uchraydi. U bank kartasidan foydalanilganda hisobvarag‘ingizdagi mablag‘lar harakatiga ta’sir qiladigan har qanday operatsiyani anglatadi. Masalan, ishhaqining kartaga tushishi, do‘konda to‘lov qilish, naqd pul yechib olish, pul o‘tkazish yoki karta hisobvarag‘ini to‘ldirish – bularning barchasi tranzaksiya hisoblanadi. Mazkur jarayon odatda kartani to‘lov terminaliga tegizish yoki tegishli QR kodni telefon orqali skanerlash bilan boshlanadi. Shundan so‘ng bank hisobvarag‘ingizda yetarli mablag‘ bor-yo‘qligi va kartaning amal qilish holatini tekshiradi.

Ba’zan bank turli sabablarga ko‘ra operatsiyani rad etishi mumkin. Masalan:

– hisobda yetarli mablag‘ bo‘lmasa;
– kartaning amal qilish muddati tugagan bo‘lsa;
– pinkod noto‘g‘ri kiritilsa;
– texnik nosozlik yuz bersa.



Har bir tranzaksiyaga alohida, takrorlanmaydigan raqam beriladi. Ushbu raqam tranzaksiyani aniqlash, tekshirish va nazorat qilishda juda muhim. Masalan, biror to‘lov bo‘yicha savol tug‘ilsa, bank aynan o‘sha raqam orqali tranzaksiya haqidagi barcha ma’lumotlarni topishi mumkin.

Valyuta konvertatsiyasi – banklar tomonidan ko‘rsatiladigan muhim xizmatlardan biri bo‘lib, bir davlat valyutasini boshqa davlat valyutasiga avtomatik almashtirish jarayoni. Masalan, siz BAAning Dubay shahriga sayohatingizda hisobida o‘zbek so‘mi mavjud bo‘lgan xalqaro bank kartasi bilan do‘konda pul to‘ladingiz. To‘lov vaqtida bank kartangizdagi so‘m mablag‘larini avtomatik tarzda to‘lov amalga oshirilayotgan BAA dirhamiga yoki AQSH dollariga konvertatsiya qiladi. Siz to‘lovni so‘mda qilgan bo‘lsangiz ham sotuvchi o‘ziga kerak summani valyutada oladi. Bu jarayon:

– xalqaro savdo va sayohatni osonlashtiradi;
– xaridor uchun qulaylik yaratadi (valyutani oldindan ayirboshlash zarurati bo‘lmaydi).

Agar bir mamlakatdan boshqasiga pul o‘tkazish kerak bo‘lsa, Butunjahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiya jamiyati – SWIFT (Society for Worldwide Interbank

Financial Telecommunication) tizimidan foydalanish mumkin. SWIFT pul o‘tkazish tizimi emas, balki xavfsiz xabar almashish tarmog‘idir. “Visa”, “Mastercard” yoki “Zolotaya Korona” kabi to‘lov tizimlari SWIFT tizimida mustaqil faoliyat yuritadi.

Masofaviy bank xizmatlari bankka bormasdan turib, kompyuter yoki mobil telefon orqali turli bank amaliyotlarini bajarish imkonini beradi.

Bunday xizmatlar yordamida mijoz:

– hisobvaraq holatini tekshirishi;
– to‘lovlarni amalga oshirishi;
– pul o‘tkazishi;
– bank kartasini boshqarishi hamda boshqa ko‘plab amaliyotlarni uydan chiqmasdan bajarishi mumkin.

QR to‘lovi – mobil telefon yordamida QR kodni skanerlash orqali amalga oshiriladigan tezkor to‘lov usuli. Afzalliklari:

a) tez va qulay – telefon kamerasi yordamida to‘lov bir zumda amalga oshiriladi, bank kartasidan foydalanish yoki to‘lov terminalini qidirish shart emas.

b) xavfsiz – bank kartasi ma’lumotlarini kiritish talab etilmaydi, shu sababli firibgarlik xavfi kamayadi.

Guruh muhokamasi

Oila a’zolari chet elda o‘qishi uchun Bekzodga 2200 AQSH dollari yuborishi kerak. Jadvalda keltirilgan variantlarni ko‘rib chiqing. Har bir variantning afzalliklari hamda kamchiliklarini izohlang (5-jadval).

5-jadval

Usul	Komissiya	Yetib borish vaqti	Xususiyati
Bankka borib, xalqaro SWIFT orqali o‘tkazish	1–2 foiz	1–3 kun	Ish vaqti cheklangan
Contact, Western Union Digital	0,6–1 foiz	Bir necha daqiqa	Mobil telefon orqali
Naqd pulni tanish orqali berib yuborish	0 foiz	Samolyot reysiga bog‘liq	Biror shaxs orqali

Uyga vazifa

Quyidagi jadvalni kamida beshta moliyaviy xizmat bo‘yicha to‘ldiring. Oilangiz kelajakda moliyaviy tizimning qaysi xizmatlaridan ko‘proq foydalanishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.

Moliyaviy xizmat	Bank kartasi / QR / Bank / Nobank	Afzalligi	Kamchiligi
...	...	...	...

3.4. MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTEX)

Bugungi darsda:

– moliyaviy texnologiyalar (fintex) tushunchasining mazmunini bilib olasiz;
– kundalik hayotda qo‘llanishini izohlaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Rasmda ko‘rsatilgan xizmatlardan kundalik hayotda qaysi vaziyatlarda va qay holatlarda foydalanamiz? Ulardan foydalanishda qanday qulayliklar yoki muammolar yuzaga kelishi mumkin?



Raqamli texnologiyalar moliyaviy xizmatlarni tubdan o‘zgartirdi: odamlar naqd pul ishlatish, bankka borish va qog‘oz hujjatlardan foydalanishni kamaytirmoqda. Buning asosida moliyaviy texnologiyalar (fintex) turadi.

Fintex – moliyaviy xizmatlarni raqamli texnologiyalar yordamida tez, xavfsiz, shaffof va avtomatlashtirilgan tarzda ko‘rsatish imkonini beruvchi texnologiya.

Moliyaviy texnologiyalarning asosiy funksiyalari:

- bank xizmatlaridan internet orqali foydalanish mumkin;
- to‘lovlarni bevosita telefon yoki boshqa mobil qurilmalar orqali amalga oshirish mumkin;
- pul o‘tkazmalari darhol, real vaqt rejimida bajariladi;
- shaxsiy bank hisobvaraqlarini boshqarish osonlashadi;
- naqd puldan foydalanish zarurati kamayadi.

Fintex yashirin mexanizm kabi ishlaydi. Biz uni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rmaymiz, lekin ta’sirini har qadamda sezamiz: tranzaksiyalar tez bajariladi, interfeyslar qulay bo‘ladi va hisob-kitoblar aniq bajariladi.

Guruh muhokamasi

4-5 kishilik guruhlarga bo‘lining. Quyidagi jadvalda kundalik hayotda uchraydigan moliyaviy vaziyatlar keltirilgan. Har bir jarayon qanday yengillashtirilgani va bunda qaysi moliyaviy texnologiyalar qo‘llanganini guruhlarda muhokama qiling (6-jadval).

6-jadval

Transport to‘lovlari	Do‘konlardagi xaridlar uchun to‘lovlar	Mobil aloqa, kommunal xizmat va boshqa turli xizmatlar uchun to‘lovlar	Kino, konsert, teatr chiptalari uchun to‘lovlar	Raqamli valyuta operatsiyalari
...	...	...	...	..

Fintexdan samarali foydalanish uchun xizmatlar o‘zaro bog‘lanishi muhim. Mobil ilova, elektron hamyon va raqamli to‘lovlar yaxlit tizimda ishlaganda ma’lumotlar tez va oson almashiladi. Buning uchun turli ilovalar va moliyaviy tizimlarning o‘zaro ma’lumot almashishini ta’minlaydigan texnologiyalar (masalan, API va veb xizmatlar) qo‘llanadi. Natijada foydalanuvchi barcha amaliyotlarni yagona platforma orqali tezkor va qulay bajarishi mumkin.

API (Application Programming Interface) ilova dasturlash interfeysi – dasturlar va xizmatlarning o‘zaro ma’lumot almashishi hamda birgalikda ishlashini ta’minlaydigan dasturiy interfeysi.

Har qanday muhim innovatsiya singari fintex ham afzalliklar bilan bir qatorda, ehtimoliy xavf va kamchiliklarga ega. Ushbu jihatlarni tushunish fintexning jahon iqtisodiyoti va jamiyat hayotiga ta’sirini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Afzalliklari	Kamchiliklari va risklari
Foydalanuvchilar doirasini kengaytirish Fintex yechimlari moliyaviy xizmatlarni an’anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholi uchun ham yanada qulay va ochiq qiladi. Bu moliyaviy inklyuzivlik (moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyati)ni kengaytiradi. **Samaradorlikni oshirish** Fintex texnologiyalari moliyaviy jarayonlarni soddalashtirib, tranzaksiyalarni tezlashtiradi va moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshiradi. **Xarajatlarni kamaytirish** Fintex yechimlari moliyaviy xizmatlar xarajatini kamaytirib, ularni biznes va foydalanuvchilar uchun yanada arzon va qulay qiladi.	**Xavfsizlik muammolari** Boshqa raqamli tizimlar kabi fintex ham kibertahdidlarga duch keladi. **Huquqiy tartibga solish masalalari** Fintex yechimlari turli mamlakatlar qonunchiligi talablariga mos bo‘lishi kerak. Masalan, xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirish qoidalari mamlakatlarga qarab farq qilishi mumkin. Bu esa ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. **Axloqiy va ijtimoiy masalalar** Moliyaviy texnologiyalardan foydalanishda foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari yetarli darajada himoyalanmasa, ular uchinchi shaxslarga tarqalib ketishi yoki ayrim foydalanuvchilar xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Guruh muhokamasi

Quyidagi raqamli moliyaviy texnologiyalarning kamida bittadan afzalligi va kamchiligini daftaringizga yozing (7-jadval).

7-jadval

	Afzalligi	Kamchiligi
Mobil ilovalardan foydalanish		
QR kodli to‘lovlar		
Elektron hamyonlar		
Raqamli to‘lov tizimlari		

Sun’iy intellekt fintex sohasida to‘lovlarni tez va xavfsiz amalga oshirish, firibgarlik holatlarini aniqlash hamda foydalanuvchilarga moliyaviy tavsiyalar berishda keng qo‘llanadi.

Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda axborot xavfsizligi, foydalanuvchini tekshirish (autentifikatsiya) va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya etish juda muhim. Bu talablar tranzaksiyalar ishonchliligi hamda ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlaydi, raqamli moliyaviy xizmatlardan mas’uliyatli va xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Quyidagi jadvalda fintex xizmatlaridan foydalanishda amal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy xavfsizlik qoidalari keltirilgan (8-jadval).

8-jadval

Yo‘nalish	Nima uchun muhim?
Parol o‘rnatish	Murakkab va noyob parol hisobingizni begonalardan muhofaza qiladi va xavfsizlikni ta’minlaydi.
Ikki bosqichli tasdiqlash (2FA)	Hisobga kirishda qo‘shimcha tasdiqlash talab qilinadi. Bu esa begona shaxslar hisobga ruxsatsiz kirishining oldini oladi.
Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish	Ma’lumotlar shifrlanadi, natijada ularning o‘g‘irlanishi va ruxsatsiz foydalanish xavfi kamayadi.
Ilovani muntazam yangilash	Yangilanishlar dasturdagi xatoliklarni bartaraf etadi va xavfsizlik darajasini oshiradi.
Firibgarlikdan himoyalanish	Soxta linklar, SMS va qo‘ng‘iroqlarga ishonmaslik hisobni va mablag‘ni himoya qiladi.
Bildirishnomalarni tekshirish	Shubhali operatsiyalar aniqlansa, ularni darhol tekshirish va bank bilan bog‘lanish zarur.
Faqat rasmiy ilova va xizmatlardan foydalanish	Norasmiy yoki ishonchsiz ilovalardan foydalanmaslik hisob va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga yordam beradi.

Jadvalda keltirilgan qoidalar raqamli to‘lov jarayonida shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, tranzaksiyalarni nazorat qilish va faqat ishonchli raqamli xizmatlardan foydalanish kabi muhim qoidalarni eslatadi. Ushbu qoidalarga rioya qilish fintex xizmatlaridan mas’uliyatli va xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Fintex deganda nimani tushunasiz? Ushbu texnologiyalarning kundalik hayotdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?

2. Raqamli to‘lov va mobil ilovalardan foydalanishning qanday afzalliklari bor?

3. Uzoq muddat davomida fintex xizmatlaridan muntazam va oqilona foydalanish foydalanuvchiga qanday ijobiy natijalar beradi?

4. Oilangiz byudjetiga bir haftada tushgan daromad:

– Elektron hamyon orqali qabul qilingan pul: 150 000 so‘m;
– Mobil ilova orqali jamg‘arma kartaga o‘tkazilgan pul: 500 000 so‘m;
– Do‘stingizning karta orqali pul o‘tkazmasi: 200 000 so‘m;
– Onlayn platformadan tushgan kichik daromad: 120 000 so‘m.

Shu hafta oilangiz qilgan xarajat:

– QR kodli to‘lov orqali transport xarajati: 60 000 so‘m;
– Mobil ilovada internet uchun to‘lov: 80 000 so‘m;
– Bank kartasi yordamida terminal orqali oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun: 180 000 so‘m;
– Mobil o‘yinlar uchun elektron hamyon orqali to‘lash: 40 000 so‘m;
– Onlayn dars platformasi uchun to‘lov: 70 000 so‘m;
– Mobil ilovada kitob xaridi: 50 000 so‘m.

1. Bir haftalik raqamli operatsiyalardan so‘ng pul qoldig‘i mavjudmi?
2. Operatsiyalar qaysi fintex vositalari orqali bajarilgan bo‘lishi mumkin?
3. Qaysi xarajatlarni qisqartirish mumkin deb o‘ylaysiz?

Uyga vazifa

Quyida keltirilgan fintex xizmatlaridan birini tanlang. Masalan: mobil ilova, to‘lov terminali, elektron hamyon. Ularning har biri bo‘yicha quyidagi savollarga javob toping:

1. Qayerda qo‘llanadi?
2. Qanday qulaylik yaratadi?
3. Qaysi holatlarda undan foydalanish eng samarali hisoblanadi?

Tahlil natijalarini 100–120 so‘zdan iborat hisobot shaklida yozing.

3.5. ISTE’MOLCHI HUQUQLARI

Bugungi darsda:

– iste’molchi huquqlari haqida bilib olasiz;
– iste’molchi huquqlarini amalda qo‘llash usullarini o‘rganasiz;
– iste’molchi sifatida o‘z huquqlaringizni himoya qilish usullarini tushunib olasiz.

O‘ylab ko‘ring!

“Agar tovardan, ish (xizmat) natijalaridan foydalanish, ularni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish (chiqindilarni qayta ishlash) iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki yoki atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, tayyorlovchi (ijrochi, sotuvchi) zarar sabablari bartaraf etilguniga qadar ularni ishlab chiqarishni (ijro etishni, sotishni) darhol to‘xtatishi, ularni muomaladan chiqarish va iste’molchilardan qaytarib olish choralarini ko‘rishi shart”.

Berilgan matn qonun normalariga o‘xshayaptimi? U qaysi huquqiy hujjatga tegishli bo‘lishi mumkin? Jarayonda qaysi tomonlar ishtirok etadi va ularning roli qanday? Nima uchun iste’molchining hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini himoya qilish davlat uchun muhim?

Har kuni do‘konlarda mahsulot xarid qilganimizda, turli xizmatlardan (tibbiy, kommunal, ta’lim va boshqalar) foydalanganimizda, o‘zaro shartnoma tuzganimizda, barchamiz iste’molchi ekanimizni unutmasligimiz kerak. O‘z ehtiyoji uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qiluvchi **yuridik shaxslar** va **yakka tartibdagi tadbirkorlar** iste’molchi sifatida e’tirof etilmaydi.

Iste’molchi – mahsulot, ish yoki xizmatni shaxsiy iste’mol niyatida, foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarda sotib oladigan fuqaro.

O‘zbekiston Respublikasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish – davlatning muhim vazifalaridan. Bundan ko‘zlangan maqsad iste’molchi bilan tovar ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi yoki sotuvchi o‘rtasida adolatli munosabatlarni ta’minlashdir. Bu boradagi asosiy tartib-qoidalar “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan bo‘lib, u iste’molchilarning xavfsiz va sifatli tovar, xizmatga ega bo‘lish huquqini himoya qiladi.

Iste’molchi huquqlari – tovar va xizmatlarni xarid qilish jarayonida fuqarolarga o‘z manfaatlarini himoya qilish imkonini beruvchi qonuniy haq-huquqlar.

Guruh muhokamasi

Nega ayrim tadbirkorlar “Sotilgan tovar qaytarib olinmaydi” degan yozuvdan foydalanishadi? Bu iste’molchi huquqlariga qanchalik mos keladi?

O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni iste’molchi manfaatlari himoyalanishini ta’minlaydi.

1



Ma’lumot olish

2

Tovar va xizmatlarning xavfsizligi



3



To‘lovlarning qoplanishi

4

Tanlash huquqi



Bu huquqlarni bilish sizga o‘z manfaatlaringizni himoya qilishda asqatadi. Shuningdek, tadbirkorlarni sifatli tovarlar va xizmatlar taqdim etishga undaydi.

Axborot olish huquqi

Iste’molchi sotib olinayotgan mahsulot yoki xizmat haqida to‘liq va to‘g‘ri ma’lumot olishga haqli. Masalan, dori-darmonning tarkibi va qo‘llanish qoidalari, kiyimning o‘lchami va matosi, texnikaning esa energiya sarfi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, iste’molchi ham mas’ul: yo‘riqnoma yoki shartnomani o‘z vaqtida o‘qib chiqmasa, keyin shikoyat qilish foyda bermaydi.

Tovar va xizmatlar xavfsizlik huquqi

Iste’molchi sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfsiz bo‘lgan mahsulot, xizmatlardan foydalanishga haqli. Mahsulotlar zararli moddalarsiz, standartlarga mos bo‘lishi kerak. Masalan, o‘yinchoqlarda zaharli kimyoviy moddalar bo‘lmasligi, oziq-ovqat tarkibi xavfsiz bo‘lishi, texnika vositalari esa tegishli talabga javob berishi zarur. Onlayn xaridlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muhim.

Nuqsonli tovar bo‘yicha talab qo‘yish huquqi

Agar mahsulot nuqsonli bo‘lsa, iste’molchi pulini qaytarib olish, tovarni almashtirish, ta’mirlash yoki tovon pulini talab qilish huquqiga ega.

Tanlash huquqi

Iste’molchi narx, sifat, xavfsizlik, brend va xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra mustaqil tanlov huquqiga ega. Raqobatga asoslangan bozorda tanlov imkoniyatlarining ko‘pligi narxlarning pasayishiga va tovarlar hamda xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Eshitilish huquqi

Iste’molchining shikoyati, fikri yoki taklifi tinglanishi, kompaniyalar murojaatni ko‘rib chiqishi va tegishli muddatda javob berishi shart. Bugungi kunda kompaniyalar ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlarni ham kuzatadi. Chunki ularni e’tiborsiz qoldirish obro‘ va mijozni yo‘qotishga olib kelishi mumkin.

Sog‘lom atrof-muhit huquqi

Iste’molchi salomatlikka zarar yetkazmaydigan mahsulotlardan foydalanish va sog‘lom muhitda (sof havo va toza suv) yashash huquqiga ega. Ishlab chiqaruvchi hamda sotuvchilar esa ekologik xavfsiz faoliyat yuritishi shart.

Bu huquqlarni himoya qiluvchi asosiy davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasidir. Agar tovar sifatsiz chiqsa, narx asossiz oshirilsa yoki reklama aldamchi bo‘lsa, iste’molchi ushbu qo‘mitaga murojaat qilishi mumkin. Zarurat tug‘ilganda iste’molchi o‘z e’tirozini sud orqali ham bildirishga haqli.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun iste’molchi xarid qilishdan oldin mahsulot yoki xizmat haqida yetarli ma’lumot yig‘ishi kerak?

2. Iste’molchi huquqlarini bilmaslik qanday moliyaviy zarar keltirishi mumkin? Hayotiy misol keltiring.

3. Mahsulot sotib olayotganda siz uchun eng muhim mezon qaysi: narx, sifat, kafolat, brend, foydalanuvchi izohlari yoki xavfsizlik?

4. Qaysi vaziyatda iste’molchi huquqi buzilganini aniqlang. Siz bu holatlarda iste’molchining o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutar edingiz? Agar iste’molchilar e’tiroz bildirmasa, haq-huquqini talab qilmasa, bu jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

1-vaziyat. Mahalliy kiyim-kechak do‘konida “50 foiz chegirma” aksiyasi e’lon qilindi. Biroq xaridor kassaga borganda chegirma barcha mahsulotlarga emas, faqat ayrimlariga tatbiq etilishi ma’lum bo‘ldi. E’lon orqali xaridorlarni chalg‘ituvchi ma’lumot tarqatilgan ekan.

2-vaziyat. Kitob do‘konidan sotib olingan o‘quv qo‘llanmada muhim sahifalar yetishmasligi aniqlandi. Biroq do‘kon ma’muriyati uni almashtirishdan bosh tortib, “Sotib olingandan keyin mahsulotga javob bermaymiz”, dedi.

3-vaziyat. Shifokor ko‘rsatmasiga ko‘ra xarid qilingan dori aks ta’sir qildi. Ammo dorixona sotuvchisi pulni qaytarishdan bosh tortib, qadog‘i ochilgan dorilar qaytarib olinmasligini aytdi.

1-keys. Quyidagi vaziyatlarni o‘qib chiqing va iste’molchilarning qaysi huquqi buzilganini aniqlang. Daftaringizda jadvalni to‘ldiring (9-jadval). Eslatma: bir vaziyatda bir nechta huquq buzilgan bo‘lishi mumkin.

9-jadval

Vaziyat	Iste'molchining qaysi huquqi buzilgan?
1. Dorixonadan sotib olingan vitaminlarning yaroqlilik muddati o'tgani aniqlandi. Xaridor pulini qaytarishni so'radi, ammo sotuvchi bu talabni rad etdi.	
2. Makaron mahsulotining yorlig'ida vazni "1 kg" deb ko'rsatilgan. Biroq mahsulot uy sharoitida tarozida qayta tortilganda 870 gramm ekani aniqlandi.	
3. O'quvchi avtobus chiptasini onlayn xarid qildi. Avtobus belgilangan vaqtdan 3 soat kechikib keldi. Shu sababli o'quvchi pulini qaytarishni so'radi, ammo unga rad javobi berildi.	
4. Onlayn do'kondan buyurtma qilingan poyabzal yetkazib berildi, ammo uning o'lchami mos kelmadi. Xaridor mahsulotni almashtirishni so'radi, biroq almashtirib berilmadi.	
5. Sug'urta kompaniyasi shartnomani juda mayda shrift bilan rasmiylashtirdi, natijada muhim bandlar aniq ko'rinmay qoldi.	

2-keys. Qaysi holatlarda mahsulotning xavfsizligi uchun mas'uliyat sotuvchidan iste'molchiga o'tadi? Jadvalni daftaringizda to'ldiring va javoblaringizni izohlang (10-jadval).

10-jadval

Vaziyat	Kim mas'ul: sotuvchimi yoki iste'molchi?
Muddati o'tgan mahsulotni sotuvchi yashirib sotdi.	
Xaridor mahsulotning yo'riqnomasini o'qimadi va undan noto'g'ri foydalandi.	
O'yinchoqda "3+ yosh" deb yozilgan, lekin ota-ona uni 1 yoshli farzandiga berdi.	
Foydalanish yo'riqnomasi bor, lekin xaridor unga rioya qilmadi.	
Sotuvchi mijozga noto'g'ri ma'lumot berdi.	

Uyga vazifa

Biror mahsulotni sotib olganingiz yoki xizmatdan foydalanganingizdan so'ng undan norozi bo'lgan holatingizni eslang.

Bu kompyuter, kiyim, oziq-ovqat, transport, internet, dori-darmon yoki istalgan boshqa mahsulot bo'lishi mumkin.

Savollarga yozma javob bering.

1. Qaysi mahsulotni sotib olganingiz yoki qaysi xizmatdan foydalanganingizdan norozi bo'lgansiz?
2. Sizningcha, iste'molchi sifatida qaysi huquqingiz buzilgan?
3. Muammoni hal qilish uchun qanday choralar ko'rgansiz?
4. Yana shunday holatlar yuz bersa, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
5. Bo'lgan voqeadan qanday xulosa chiqargansiz?

3.6. SHAXSIY MA’LUMOTLARNI HIMOYALASH

Bugungi darsda:

– shaxsga doir ma’lumotlar haqida bilib olasiz;
– shaxsiy ma’lumotlar turlarini o‘rganasiz;
– shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish xavfini tahlil qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Tasavvur qiling, siz kirgan kafeda bepul Wi-Fi bor ekan. Tarmoqqa ulanayotganingizda “Ro‘yxatdan o‘tish uchun telefon raqami va ijtimoiy tarmoqdagi akkauntingizga kirishga ruxsat bering” degan so‘rov chiqadi. Internetga tezroq kirish uchun barcha so‘rovlarni tasdiqlaysiz. Ertasiga esa ijtimoiy tarmoqdagi sahifangizda notanish postlar paydo bo‘la boshlaydi.

Siz qaysi ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat berdingiz? Jamoat joylarida Wi-Fi tarmoqlaridan foydalanganda nimalarga e’tibor berish kerak? Bu holatda qanday ehtiyot choralarini ko‘rishingiz mumkin edi?

Bugungi kunda deyarli barchamiz internetdan foydalanamiz: telefonimizga ilovalar yuklaymiz, turli onlayn xizmatlarga murojaat etamiz, ijtimoiy tarmoqlarga kiramiz. Har bir shunday harakatimiz orqali esa bilmagan holda o‘zimiz haqimizda raqamli iz qoldiramiz. Masalan, ismimiz, telefon raqamimiz, joylashuvimiz yoki qiziqishlarimiz kabi ma’lumotlar turli tizimlarga yozib boriladi.

Shaxsga doir ma’lumotlar – insonning shaxsini aniqlash yoki tanib olishga yordam beradigan har qanday axborot.

Shaxsga doir ma’lumotlar turlari

Shaxsga doir ma’lumotlar inson hayotining turli sohalariga taalluqli bo‘lib, uchta asosiy toifaga ajratiladi.

1. Umumiy ma’lumotlar.

Bu kundalik hayotda ko‘p uchraydigan, lekin ehtiyotkorlik bilan berilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlardir. Agar bu ma’lumotlar begona shaxslar qo‘liga tushsa, ular sizni izlab topishi yoki siz haqingizda ko‘proq ma’lumot olishi mumkin.

Shaxsga doir ma’lumotlar



2. Maxsus ma’lumotlar.

Bu insonning shaxsiy hayoti, qarashlari yoki salomatligiga taalluqli ma’lumotlar bo‘lib, ularni oshkor etish katta xavf tug‘diradi. Masalan: milliy mansublik, diniy yoki siyosiy qarashlar, sog‘liq holatiga doir axborot. Bunday ma’lumotlar tarqalsa, insonning obro‘si, ruhiy holati yoki xavfsizligiga zarar yetishi mumkin.

3. Biometrik ma’lumotlar.

Bu insonning tanasi bilan bog‘liq, takrorlanmaydigan ma’lumotlar. Masalan: barmoq izi, yuz tasviri, ovoz namunasi, DNK, ko‘zning to‘r pardasi. Bu ma’lumotlar o‘ta nozik hisoblanadi va yuqori darajada himoyani talab qiladi. Shuning uchun har bir kishi qaysi ma’lumot qay bir toifaga kirishini bilishi va uni himoya qilishi muhim.



O‘zbekistonda shaxsiy ma’lumotlar **“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”**gi qonun bilan himoyalanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, ma’lumotlar faqat shaxsning roziligi bilan yig‘ilishi va ishlatilishi mumkin. Ularni ruxsatsiz tarqatish yoki ulardan o‘zboshimchalik bilan foydalanish taqiqlanadi. Har bir fuqaro o‘ziga doir ma’lumotlarni ko‘rish, tuzatish yoki o‘chirishni talab qilish huquqiga ega.

Guruh muhokamasi

Nega ko‘pchilik oddiy surat yoki telefon raqami ham shaxsiy ma’lumot hisoblanishini tushunmaydi? Bunday xato qanday xavfli holatlarga olib kelishi mumkin?

Ma’lumot maxfiyligi – shaxsga doir ma’lumotlarning faqat ruxsat etilgan shaxslar tomonidan ko‘rilishi va foydalanilishini ta’minlaydigan himoya tamoyili.

O‘smirlar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarga o‘z suratlarini joylaydi, yashash manzili yoki telefon raqamini ochiq ko‘rsatadi. Bu esa firibgarlarning e’tiborini tortishi mumkin. Ular soxta sahifalar orqali yoshlarni aldab, ulardan yana boshqa ma’lumotlarni ham olishga harakat qilishadi. Ko‘p odamlar faqat pasport ma’lumotlarinigina shaxsiy ma’lumot deb o‘ylaydi.

Aslida esa ism, familiya, telefon raqami, elektron pochta, manzil va hatto ijtimoiy tarmoqdagi oddiy surat ham shaxsiy ma’lumot hisoblanadi. Demak, internetda har qanday ma’lumotni ulashishdan ehtiyot bo‘lish kerak.

Har qanday shaxsiy ma’lumotlar muhim sanaladi. Agar ular ruxsatsiz tarqatilsa, bu qaltis oqibatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ham bunday ma’lumotlar qonun yo‘li bilan himoya qilinadi. Yuzaga kelgan oqibatlarning og‘ir-yengilligiga qarab ma’muriy, fuqaroviy yoki jinoiy ish ochiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Internetda ro‘yxatdan o‘tish yoki ilova yuklashdan oldin shaxsiy ma’lumotlar qayerda saqlanishini bilish nima uchun muhim?

2. Internetda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilmaslik qanday xavflarni yuzaga keltirishi mumkin? Hayotiy misol keltiring.

3. Onlayn ilovadan foydalanganda siz uchun qaysi omil eng muhimi: maxfiylik siyosati, xavfsizlik sozlamalari, ilovaning ishonchliligi, foydalanuvchi sharhlari yoki so‘ralayotgan ruxsatlar? Nima uchun?

4. 1-vaziyat.

Jasur savdo markazida mahsulot sotib olmoqchi bo‘ldi. Kassadagi xodim unga:

“Chek berishimiz uchun telefon raqamingizni aytishingiz shart”, dedi.

Jasur telefon raqamini aytishga majbur bo‘ldi. Xodimning talabi to‘g‘rimi? Javobingizni izohlab bering.

2-vaziyat.

Kunlik dars jadvalini ko‘rsatadigan oddiy mobil ilova sizdan quyidagilarga ruxsatni so‘ramoqda: kontaktlarni o‘qish, joylashuvni aniqlash, telefon kamerasiga kirish. Ilovaning vazifasi esa faqat dars jadvalini ko‘rsatishdan iborat.

Ushbu ruxsat berish shaxsiy ma’lumotlaringizga qanday xavf tug‘dirishi mumkin?

Ilova vazifasiga taalluqli bo‘lmagan amaliyotga ruxsat so‘rashi qonuniymi?

Siz bu talablarga rozilik bermasdan ham ilovadan foydalanish huquqiga egamisiz? Nima uchun?

3-vaziyat.

Dorixonada bonus karta berish uchun o‘quvchidan ism-familiyasi, tug‘ilgan sanasi, telefon raqami bilan birga sog‘lig‘iga oid ma’lumotlar (masalan, surunkali kasalliklari yoki ichilayotgan dorilari) so‘raldi. Dorixona bunday shaxsiy va sog‘liq haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish uchun qanday shartlarga rioya qilishi kerak? Dorixonaning bu kabi ma’lumotlarni so‘rashi qonuniymi? O‘quvchi bu ma’lumotlarni bermaslik huquqiga egami? Nima uchun?

Uyga vazifa

Siz foydalanadigan ijtimoiy tarmoq yoki onlayn ilovada qaysi shaxsiy ma’lumotlaringiz mavjud? Ularni umumiy, maxsus va biometrik guruhlarga ajrating hamda kamida uchta himoya usulini yozing.

3.7. RAQAMLI MOLIYAVIY XAVFSIZLIK

Bugungi darsda:

– moliyaviy xavfsizlikning mazmuni va qoidalarini bilib olasiz;

– moliyaviy firibgarlikning asosiy shakllari, jumladan, soxta vebsaytlarning belgilarini tavsiflaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Tasavvur qiling, telefoningizga bank xabarnomasiga o‘xshash ogohlantirish keldi: “Hisobingizda shubhali tranzaksiya aniqlandi. Uni tasdiqlash uchun quyidagi havolaga kiring”. Havola rasmiy bank sahifasi dizayniga juda o‘xshash sahifaga yo‘naltiradi. Sahifada sizdan karta raqami, pinkod, SMS tasdiqlash kodlarini kiritish so‘raldi. Sizningcha, bunday xabar qanday xavf tug‘diradi? Qanday belgilar firibgarlik ekanidan dalolat beradi? Ushbu vaziyatda eng to‘g‘ri qaror qanday bo‘lardi?

Moliyaviy xavfsizlik – shaxs, korxona yoki davlatning mablag‘lari barqaror va himoyalangan holatda bo‘lishidir. U daromad va xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirish, pulni tejash, jamg‘arish, oqilona investitsiya qilish hamda moliyaviy xavflarni kamaytirishni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy xavfsizlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va aholining farovon yashashiga yordam beradi.

Raqamli to‘lovlar kengayib borayotgan hozirgi davrda har bir foydalanuvchi o‘z mablag‘larini himoya qilish uchun oddiy, ammo juda muhim xavfsizlik qoidalariga amal qilishi zarur. Quyida kundalik hayotda qo‘l keladigan asosiy moliyaviy xavfsizlik qoidalari bayon qilingan.

Moliyaviy xavfsizlikning asosiy qoidalari

01 Telefon va kompyuteringizni himoyalang. Antivirus dasturidan foydalaning, ishonchli va murakkab parol o‘rnating hamda uni hech kimga oshkor qilmang.

02 Shaxsiy ma’lumotlaringizni internetda oshkor qilmang. Pasport ma’lumotlari, bank kartasi raqami, pinkod va parollarni ijtimoiy tarmoqlar yoki forumlarda e’lon qilmang hamda ulashmang.

03 Noma’lum sayt va havolalardan ehtiyot bo‘ling. Shubhali xabarlar, reklama havolalari va noma’lum fayllarni ochmang. Onlayn xaridda faqat ishonchli vebsaytlarni tanlang, sayt manzili https:// bilan boshlanishini tekshiring.

04 3D Secure himoyasini o‘chirmang. Bu onlayn to‘lovlarda qo‘shimcha xavfsizlikni ta’minlaydi, ko‘p onlayn xarid qilsangiz, alohida bank kartasini ishlating.

05 Shubhali holatda darhol kattalarga yoki bankka murojaat qiling. Agar karta ishlamasa yoki hisobingizdan asossiz tarzda pul yechilsa, zudlik bilan bankka xabar bering.

Guruh muhokamasi

Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun oddiy fuqaro nimalarga e’tibor berishi kerak? Moliyaviy xavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha bitta aniq tavsiya ishlab chiqing.

Mobil bank ilovalarini faqat rasmiy ilova do‘konlaridan yuklab olish muhim. Bugungi kunda pul bilan bog‘liq ko‘plab jarayonlar raqamli muhitda amalga oshirilmoqda. Insonlar onlayn xarid qiladi, kommunal xizmatlar haqini to‘laydi, pul o‘tkazadi va jamg‘armalarini boshqaradi. Bu juda qulay va tez amalga oshadi. Biroq firibgarlar ham internet orqali insonlarni aldashning yangi usullarini o‘ylab topmoqda. Ba’zan shubhali havolani bosish yoki begona shaxsga SMS orqali yuborilgan tasdiqlash kodini aytib qo‘yish pul mablag‘larini yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham moliyaviy xavfsizlik juda muhim hisoblanadi. Har bir inson, ayniqsa, internetda faol o‘quvchilar onlayn to‘lovlar va mobil ilovalardan foydalanganda mablag‘ini himoyalash qoidalarini bilishi va ularga amal qilishi kerak.

Firibgarlik – birovning mol-mulki yoki pul mablag‘larini aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan egallash.

Moliyaviy firibgarlik shakllari

- Telefon va SMS orqali sodir etiladigan firibgarlik (o‘zini bank xodimi yoki yaqin inson sifatida tanishtirish)
- Internet orqali firibgarlik – fishing (phishing), ya’ni soxta vebsaytlar va soxta havolalar
- Bank kartasi ma’lumotlari bilan bog‘liq firibgarlik (pinkod, CVV kod, tasdiqlovchi SMS kodlarni olish)
- Qalbaki yutuq va sovrinlar orqali firibgarlik, soxta mobil ilovalar orqali firibgarlik
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali firibgarlik

Vebsayt (yoki sayt) – yagona elektron manzil (domen nomi yoki IP manzil) orqali foydalanish mumkin bo‘lgan o‘zaro bog‘langan vebsahifalar majmuasi. Bu manzil domen nomi (masalan, google.com) yoki IP manzil ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Vebsahifa esa vebsayt tarkibidagi alohida sahifadir. Demak, bitta vebsayt bir yoki bir nechta vebsahifadan iborat bo‘lishi mumkin.

Guruh muhokamasi

Jadvaldagi vebsaytlarga diqqat bilan qarang. Ular orasidan soxta vebsaytlarni toping va fishing saytlarini aniqlash qoidalarini ishlab chiqing.

https://dnssec.uz	http://www.yaytube.com/
https://www.youtube.com/	https://xabar.uz/7yhn
https:/xabaruuz/7yhn	https://dhssec.uz

Soxta vebsaytlar va havolalarni qanday qilib aniqlash mumkin?

Sayt domen nomiga e'tibor bering	Rasmiy vebsaytlarning domen nomi odatda qisqa, aniq va brend nomiga mos bo'ladi. Masalan, "cyber102.uz" o'rniga "cyber-102.info" kabi shubhali domen nomlariga ishonmang.
HTTPS belgisini tekshiring	Havola (URL) boshida https:// yozuvi va qulf belgisi bo'lishi kerak. Agar https:// yozuv bo'lmasa, bunday saytga ishonmang.
Havola manziliga diqqat qarating	Havola manzilidagi harflar ataylab o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, gooogle.com, g00gle.com yoki faceb00k.com kabi.
Haddan ziyod reklama va e'lonlar	Sahifada juda ko'p reklama yoki diqqatni tortuvchi yorqin chaqiriqlar mavjud bo'lsa, bu saytning soxta ekanidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun internetda ro'yxatdan o'tishdan yoki onlayn to'lov qilishdan oldin sahifa xavfsizligini tekshirish kerak?

2. Sizningcha, nima uchun banklar mijozlardan hech qachon pinkod, CVC/CVV yoki SMS tasdiqlash kodini so'ramaydi?

3. Agar o'smirlar moliyaviy xavfsizlik qoidalarini bilmasa, bu ularning shaxsiy mablag'i va raqamli xavfsizligiga qanday tahdid tug'diradi? Firibgarlik sxemalarining belgilariga qarab ulardan himoyalanish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini jadvalda ko'rsating.

Sxema turi	Belgilari	Himoya
Soxta bank xodimi	"Kartangizda muammo bor", deydi.	
Arzon tovarlar	Juda past narx taklif etiladi, ammo sotuvchi bilan bog'lanish imkoni yo'q.	
SMS orqali aldash	Kodlar, havolalar yuboriladi.	
"Kredit olgan ekansiz"	Sizga tegishli bo'lmagan kreditdan so'z ochiladi.	
"Hisobingiz bloklangan"	Shaxsiy ma'lumotlaringizni olishga harakat qilishadi.	

Uyga vazifa

1. O'zingiz foydalanadigan biror onlayn ilova (bank ilovasi, to'lov ilovasi yoki ijtimoiy tarmoq)ni tanlang va unda qaysi moliyaviy xavfsizlik sozlamalari mavjudligini aniqlang. Masalan: ikki bosqichli tasdiqlash, maxfiylik sozlamalari, parol murakkabligi va boshqalar.

2. Internetda uchrashi mumkin bo'lgan firibgarlikning ikki xil turini tanlang va ularning qanday ishlashini 3-4 jumlada tushuntirib bering.

3. Soxta vebsaytni aniqlashda yordam beradigan uchta belgini toping va daftaringizga yozing. Har bir belgi nima uchun muhimligini qisqacha izohlang.

QO‘SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1-vaziyat.

Berilgan ma’lumotlarga asoslanib, ushbu xizmat qaysi tashkilotga tegishli ekanini aniqlang. Fikringizni asoslab bering.

Nima uchun bizni tanlashadi?



Tezlik
Mikrokreditni 15 daqiqada rasmiylashtiramiz.



Maxfiylik
Shaxsiy ma’lumotlar qat’iy maxfiy saqlanadi.



Ishonchli xizmat
Zargarlik buyumlarining xavfsizligini kafolatlaymiz.



Foydali shartlar
Zargarlik buyumlariga haqiqiy baho beramiz va yashirin komissiyalarsiz foydali foiz taklif qilamiz.

2-vaziyat.

Jadvalni tahlil qiling. Biri 1980-yilda, ikkinchisi esa 2025-yilda bank xizmatlaridan foydalangan ikki mijozni tasavvur qiling. Ulardagi imkoniyat va qulayliklarni taqqoslang. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish qanday xavflarni keltirib chiqarishi mumkin? Sizningcha, qulaylik va xavfsizlik o‘rtasida qanday muvozanat bo‘lishi kerak? Javobingizni izohlang.

Banklarni kompyuterlashtirish (1950–1990-yillar)	Internetga chiqish (1990–2010-yillar)	Smartfonlar davri (2010–2020-yillar)	Zamonaviy fintex (2020-yildan hozirgacha)
Banklar ishini kompyuter yordamida bajargan. Dastlab oddiy dasturlar yaratilgan, keyin elektron to‘lov tizimlari va bankomatlar paydo bo‘lgan. Texnologiyalar asosan bank ichida ishlatilgan, mijozlar esa ulardan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanmagan.	Onlayn banking paydo bo‘lgan. Elektron hamyon va internet orqali to‘lov tizimlari rivojlangan. Odamlar bankka bormay, internet orqali pul o‘tkazib, to‘lov qilish imkoni bilan tanishgan. Shu bosqichda fintex keng tarqala boshlagan.	Smartfonlar keng tarqaldi va ko‘plab moliyaviy ilovalar paydo bo‘ldi: mobil banking, onlayn to‘lovlar, pul o‘tkazmalari va xarajatlarni kuzatish ilovalari. Fintex startaplari rivojlanib, banklar bilan raqobat qila boshladi. Fintex insonlarning kundalik hayotidan mustahkam o‘rin egallay boshlagan.	Moliyaviy xizmatlar yanada rivojlandi va hayotimizga chuqur kirib keldi. Onlayn banklar, blokcheyn texnologiyalari va yangi raqamli to‘lov tizimlari paydo bo‘ldi. Moliyaviy xizmatlar internet-do‘konlar, sayohat xizmatlari va boshqa raqamli platformalarga ham integratsiya qilindi. Bugungi kunda fintex hayotimizning ajralmas va muhim qismiga aylangan.

IV BOB.

JAMG‘ARMA

4.1. Jamg‘arish
4.2. Bank depozitlari:
oddiy va murakkab foizlarni hisoblash
4.3. Sug‘urta
Qo‘shimcha topshiriqlar

4.1. JAMG‘ARISH

Bugungi darsda:

– mablag‘larni sarflash va tejashning shaxsiy hamda ijtimoiy ahamiyatini tushuntirasiz;
– daromadni nafaqat ishhaqi, balki jamg‘arilgan mablag‘lardan olinadigan foizlar orqali ham oshirish mumkinligini tushuntirasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Turli savdo do‘konlari (tovar, benzin va boshqalar) ilovasi orqali olingan bonus yoki keshbeklar jamg‘arma hisoblanadimi? Misollar keltirib, javobingizni izohlang.



Jamg‘arish madaniyatini shakllantirish

Har bir inson pulni tejash va jamg‘arishga odatlanishi kerak. Dastlab jamg‘arma miqdori kam bo‘lishi tabiiy hol. Muhimi, har bir holatda oz bo‘lsa ham pulni jamg‘arishga harakat qilishdir. Bu jarayon sport bilan shug‘ullanish, cholg‘u chalish yoki chet tilini o‘rganishga o‘xshaydi. Avvaliga qiyin bo‘lishi mumkin, lekin asta-sekin bu odatga aylanadi. Vaqt o‘tishi bilan jamg‘arma miqdori ortadi, moliyaviy holat esa yanada barqarorlashadi. Jamg‘arish – kelajak uchun manfaatli moliyaviy odatdir.

Jamg‘arish – daromadning bir qismini joriy xarajatlardan ajratib, kelajakdagi ehtiyojlar va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun saqlab borish jarayoni.

Byudjet asosida xarajatlarni oqilona rejalashtirish daromadning bir qismini tejash imkonini beradi. Tejalgan mablag‘lar jamg‘arma sifatida to‘planadi. Keyinchalik ularni daromad olish maqsadida investitsiyaga yo‘naltirish mumkin.

Investitsiya natijasida mablag‘ ko‘payadi, inson moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lib boradi. Bu jarayon nafaqat bir insonning moliyaviy ahvolini yaxshilaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Guruh muhokamasi

Ushbu rasmlarga diqqat bilan qarang. Jamg‘arish bilan va rasmdagi harakatlar o‘rtasida bog‘liqlik bormi? Javobingizni asoslang va xulosa chiqaring.






Suv, elektr energiyasi va issiqlikni tejab ishlatish xarajatlarni kamaytiradi. Tejalgan mablag‘ jamg‘armaga aylanadi. Yig‘ilgan mablag‘ esa kelajakda moliyaviy barqarorlik va mustaqillikni ta’minlaydi. Jamg‘arma pulni qayerdan olganingiz emas, uni qanday saqlayotganingiz bilan belgilanadi. Jamg‘armaning quyidagi asosiy shakllari mavjud:

- Qimmatbaho metall yoki tosh (zargarlik buyumlari) sotib olish
- Qiymatini yaxshi saqlaydigan mol-mulk va buyumlarni sotib olish (uy, yer uchastkasi va boshqalar)
- Doimiy talabga ega qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish
- Chet el valyutasini sotib olish
- Milliy valyutadagi naqd pulni uyda saqlash
- Milliy va xorijiy valyutadagi mablag‘larni bankda omonat yoki boshqa shaklda saqlash



Guruh muhokamasi

Yuqorida aytib o‘tilgan jamg‘arma shakllari qanday qilib daromad keltirishi mumkin? Misol keltiring va tushuntirib bering.

Jamg‘arma vositalarining xilma-xilligi insonga o‘z mablag‘larini qaysi shaklda saqlashni tanlash imkonini beradi. Bunda qaror turli mezonlar asosida qabul qilinadi.

Jamg‘arma shakllarini tanlash mezonlari



Likvidlik – jamg‘armani tez va oson naqd pulga aylantirish imkoniyati. O‘quvchi cho‘ntagi yoki bank kartasida saqlayotgan pulini istalgan payt ovqat yoki yo‘l haqiga ishlata oladi. Shu sababli bunday jamg‘arma yuqori likvidlikka ega hisoblanadi.



Xavfsizlik – jamg‘arilgan mablag‘ni kelajakda yo‘qotmasdan qaytarib olish imkoniyati. Pulni bank depozitida saqlash uyda naqd saqlashga qaraganda xavfsizroq, chunki bank tizimi uni yo‘qotish yoki o‘g‘irlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Qimmatbaho buyumlarni ishonchsiz joyda saqlash esa xavfli bo‘lishi mumkin.



Daromad normasi – jamg‘armaning qancha daromad keltirishini ko‘rsatadigan mezon. Bankka omonatga qo‘yilgan mablag‘ foiz evaziga ko‘payadi. Uyda saqlangan pul esa daromad keltirmaydi, aksincha, inflyatsiya ta’sirida o‘z qiymatini yo‘qotishi mumkin.

Guruh muhokamasi

Kichik loyiha ustida ishlang. Namuna: 1. Avval jamg‘ar, keyin sarfla – har qanday daromadning 5–10 foizini jamg‘armaga ajrating. Shu kabi qoidalarni ishlab chiqing va tavsiflang.

Iqtisodiy tizimda jamg‘arilgan mablag‘ bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar orqali muomalaga kiritiladi. Banklar ushbu mablag‘lar hisobidan kreditlar beradi va investitsiyalarni moliyalashtiradi, jamg‘arma egalari esa foiz ko‘rinishida daromad oladi.

Aholi jamg‘armalarining eng keng tarqalgan usullaridan biri bank omonat (depozit)laridir. Bank ushbu mablag‘lardan foydalanadi va buning evaziga omonatchiga foiz to‘laydi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun pulni oqilona sarflash bilan birga uning bir qismini jamg‘arib borish muhim?

2. Jamg‘arilgan mablag‘ni bankda saqlashning uyda saqlashdan farqi va afzalligi nimada?

3. Quyidagi holatlada bank depoziti yoki bankdan tashqari jamg‘arish usullaridan qaysi biri maqsadga muvofiq ekanini aniqlang va tanlovingizni tushuntiring.

A) Kutilmagan tibbiy xarajatlar yuzaga kelishi mumkin.

B) Pulni uzoq muddat saqlash va undan daromad olish rejalashtirilgan.

D) Mablag‘ni yo‘qotish xavfini kamaytirish maqsad qilingan.

E) Pulning qiymati pasayib ketishi xavfi mavjud.

4. Quyidagi jamg‘arish usullarini xavf darajasi bo‘yicha pastdan yuqoriga qarab tartiblang:

– bank depoziti;

– naqd pul;

– chet el valyutasi;

– oltin;

– investitsiya (aksiyalar, biznes yuritish).

Nima sababdan bunday tartibni tanlaganingizni tushuntiring.

Uyga vazifa

Quyidagi topshiriq yuzasidan 5-6 gapdan iborat matn yozing.

Jumlani davom ettiring: “Agar men jamg‘arishni hozir boshlamasam, kelajakda … bo‘lishi mumkin, chunki …”. Javobingizda bank depoziti va nobank jamg‘arish usullari o‘rtasidagi farqlarni izohlang hamda ularning qaysi biri sizga ko‘proq mos kelishini asoslab yozing.

4.2. BANK DEPOZITLARI: ODDIY VA MURAKKAB FOIZLARNI HISOBLASH

Bugungi darsda:

– bank depozitlari haqida tushunchaga ega bo‘lasiz;
– oddiy va murakkab (kapitallashtiriladigan) foizlarni hisoblaysiz va tahlil qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Bank omonati bo‘yicha foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik foydaliroq bo‘ladi degan fikrga qo‘shilasizmi? Javobingizni dalillar bilan asoslang.







Bank depoziti (u omonat ham deb ataladi) pul mablag‘larini saqlashning an’anaviy va ishonchli usullaridan biridir. Banklar pul mablag‘larini omonatga qo‘yish uchun sodda va tushunarli tizimni taklif etadi.

Bank depoziti (omonat) – fuqaroning mablag‘larini saqlash va foiz ko‘rinishida daromad olish maqsadida bankka ma’lum muddatga, talab qilib olingunga qadar yoki shartnomada belgilangan shartlar asosida bergan mablag‘i.

Depozitga pul jalb qilish huquqi faqat mamlakat Markaziy bankining tegishli ruxsatnomasi (litsenziyasi)ga ega banklarga beriladi. Omonatchi pulini qo‘yish uchun o‘zi xohlagan bankni tanlaydi. U bir yoki bir nechta bankka depozit qo‘yishi mumkin. Depozit turlari ham har xil. Banklar depozit ochishning minimal miqdori, valyutasi, turi, muddati va usulini belgilaydi. Maqbul depozit turini tanlash oson ish emas. Shuning uchun banklar mijozlarga bu borada yordam berish va taklif qilingan omonatlarni taqqoslash uchun o‘z vebsaytida omonat kalkulyatorini joriy etadi. Albatta, har bir omonatchi bankka qarz berish orqali qancha pul topishi mumkinligi bilan qiziqadi. U *foiz stavkasi* deb ataladigan qiymat bilan o‘lchanadi. Foiz stavkasi sizning daromadingizni belgilaydigan ko‘rsatkichdir. U yillik daromadingizning foizi sifatida ifodalanadi va bank depoziti shartnomangizda ko‘rsatiladi.

Foiz stavkasi – bank tomonidan omonat bo‘yicha to‘lanadigan daromad miqdori. U foizda ifodalanadi va ma’lum bir davr uchun hisoblanadi.

Depozit foizini hisoblashning ikki usuli mavjud: oddiy va murakkab. Oddiy usulda hisoblangan foiz depozitning asosiy summasiga qo‘shilmaydi, balki omonatchiga darhol

to‘lanadi. Murakkab usulda esa depozit summasiga qo‘shiladi va keyinchalik ularga ham foiz tatbiq etiladi. Keling, bu ikki usulni batafsil ko‘rib chiqaylik.

Oddiy foiz – shartnomada ko‘rsatilgan ma’lum bir muddat davomida dastlabki depozit summasiga nisbatan hisoblanadigan foiz.

Depozit bo‘yicha foizlar (daromad) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I = P \times \frac{r}{100} \times \frac{t}{12}$$

Bu yerda:

I – foizli daromadi; P – depozit summasi

r – yillik foiz stavkasi (%); t – muddat (oylarda)

Misol: omonatchi 1 000 000 so‘mni bankka ikki yilga 18% yillik stavkasida qo‘ysa, u 1 000 000 × (18%/100%) × 24/12 = 360 000 so‘m daromad oladi.

Murakkab foiz (kapitallashtiriladigan) – bankka qo‘yilgan dastlabki mablag‘ hamda unga avval hisoblangan foizlar ustidan yana foiz hisoblash jarayoni. Foizlar ma’lum vaqt oralig‘ida va shartnomada belgilangan muddat asosida hisoblanadi. Eslatma: quyidagi formulada foizlar yiliga bir marta kapitallashtiriladi deb hisoblanadi.

$$I = P\left(1+\frac{r}{100\%}\right)^{t/12} - P$$

$$1\ 000\ 000 \text{ so‘m} \times \left(1+\frac{18\%}{100\%}\right)^{24/12} - 1\ 000\ 000 \text{ so‘m} = 392\ 400 \text{ so‘m}$$

Kapitallashtirish – foizni yechib olmasdan, uni depozitga qo‘shib borish orqali daromadni oshirish usuli.

Guruh muhokamasi

O‘ylab ko‘ring, omonatchi uchun bir xil foiz stavkasida foizlar tez-tez hisoblanishi va kapitallashtirilishi foydalimi yoki yo‘qmi? Javobingizni asoslang.

Depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari turli banklarda va vaqt oralig‘ida sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Bank foiz stavkasini omonatning muddati, miqdori va valyutasi, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat kabi ko‘plab omillarni hisobga olgan holda belgilaydi.

Talab qilib olinguncha depozitlar
Bu omonat turida pulni istalgan vaqtda yechib olish mumkin. Foiz stavkasi juda past bo‘ladi yoki umuman bo‘lmasligi ham mumkin.

Muddatli depozitlar
Pul bankka ma’lum muddatga (3 oy, 6 oy, 1 yil va undan ko‘p) qo‘yiladi. Foizlar har oy, har chorak yoki muddat oxirida to‘lanadi. Foiz stavkasi yuqoriroq bo‘ladi.

Jamg‘arma depozitlari
Pulni ma’lum maqsadda (o‘qish, uy yoki mashina olish) yig‘ish uchun ochiladi. Odatda uzoq muddatli va to‘ldirish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun depozit tanlashda faqat foiz stavkasiga emas, balki foizlarni hisoblash usuliga ham e’tibor berish kerak?

2. Nima uchun uzoq muddatli depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari qisqa muddatli depozitlarga qaraganda yuqoriroq bo‘ladi?

3. Berilgan holatlarda omonatchilarning oddiy va murakkab foizlar farqini tushunmasligi ularning kelajakdagi moliyaviy qarorlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini izohlang.

1-vaziyat. Javohir 10 000 000 so‘m mablag‘ini 3 yilga depozitga qo‘ymoqchi. Bir bank unga 26 foiz oddiy foiz, ikkinchisi esa 24 foiz murakkab foiz (yillik kapitallashtirish) taklif qildi. Javohir faqat foiz stavkasiga qarab qaror qabul qildi.

2-vaziyat. Sevinch depozit shartnomasini diqqat bilan o‘qib chiqib, foizlar har yili asosiy summaga qo‘shib borilishini bilib oldi. Shu sababli u foiz stavkasi biroz past bo‘lsa ham murakkab foizli depozitni tanladi.

3-vaziyat. Aziz ikki bank depozitini solishtirdi, ikkalasida ham summa va muddat bir xil, ammo foiz hisoblash usuli turlicha. U avval hisob-kitob qilib, keyin qaror qabul qildi.

Uyga vazifa

Jadvalda berilgan ma’lumotlardan foydalanib, tijorat banklarida taklif etilayotgan omonatlar bo‘yicha 2 yil davomida olinadigan daromadni hisoblang. Hisoblashda birinchi yil oxirida olingan foiz daromadini asosiy summaga qo‘shib, omonatni ikkinchi yilga qayta joylashtiring. Har bir bank bo‘yicha ikkinchi yil oxirida jami summa va daromad qancha bo‘ladi? Qaysi bankka omonat qo‘yish foydaliroq deb hisoblaysiz? Nima sababdan shu bankni tanladingiz (foiz stavkasi, kapitalizatsiya, daromad miqdori va boshqalar)?

Bank	Boshlang‘ich summa (so‘m)	Yillik foiz stavkasi (%)	Omonat muddati (oy)	Omonatning yakuniy summasi (so‘m)
I	10 000 000	27 foiz	24 oy	
II	10 000 000	27,09 foiz	26 oy	
III	10 000 000	26 foiz	36 oy	

4.3. SUG‘URTA

Bugungi darsda:

– sug‘urtaning asosiy vazifalari va turlarini misollar bilan tushuntirasiz;
– omonatlarni kafolatlash faoliyatini tahlil qilasiz va O‘zbekiston misolida uning ahamiyatini tushuntirasiz.

O‘ylab ko‘ring!



Hayotiy vaziyat. Oila o‘rtacha daromadga ega. Uning favqulodda holatlar uchun yetarli jamg‘armasi yo‘q. Sizningcha, quyidagi xavflardan qaysi birini oila birinchi navbatda sug‘urtalashi kerak?

- Oila a’zosining sog‘lig‘i bilan bog‘liq kutilmagan xarajat;
- yo‘l-transport hodisasi;
- uy-joyga zarar yetishi;
- tabiiy ofat oqibatida moliyaviy yo‘qotish.

Javobingizni asoslab bering.

Biz yangiliklarda tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar yoki favqulodda voqealar haqida tez-tez eshitamiz. Aslida har bir inson har kuni turli darajadagi xavflarga duch kelishi mumkin. Hatto o‘zini juda omadli deb bilgan inson ham kutilmagan hodisalardan butunlay himoyalanmagan. Shu sabab, ko‘pchilik hayotini va mol-mulkini himoya qilishga, kutilmagan voqealar oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirishga intiladi. Bu borada sug‘urta keng tarqalgan va samarali himoya usullaridan biri hisoblanadi.

Sug‘urta – shaxs yoki tashkilotning moliyaviy manfaatlarini himoya qiladigan tizim bo‘lib, muayyan hodisa (masalan, yong‘in, avariya, kasallik) sodir bo‘lganda yetkazilgan zararni qoplashga xizmat qiladi.

Sug‘urta kompaniyalari – jismoniy shaxslar (fuqarolar) va yuridik shaxslar (korxonalar va tashkilotlar)ning xatarlarini sug‘urta shartnomasi asosida sug‘urtalaydigan moliyaviy tashkilot.

Sug‘urta qildiruvchi – sug‘urta hodisasi yuz berganda yetkazilgan zararni qoplash maqsadida sug‘urta shartnomasini tuzadigan shaxs yoki tashkilot.

KAFOLAT SUG‘URTA KOMPANIYASI AJ

UZBEKINVEST sug‘urta kompaniyasi

TEMIRYO‘L SUG‘URTA

Sug‘urta faoliyati – sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyat. Mazkur jarayonda turli subyektlar qatnashadi: sug‘urtalovchi (sug‘urta kompaniyasi), sug‘urtalanuvchi (o‘z hayotini yoki mulkini sug‘urtalayotgan shaxs), foyda oluvchi (zarar yuzaga kelganda sug‘urta tovonini oladigan shaxs) va sug‘urta bozorida faoliyat yurituvchi boshqa mutaxassislar.

Sug‘urta shartnomasi qat’iy hisobdagi blankada rasmiylashtiriladi. **Sug‘urta polisi** yozma, shuningdek, elektron shaklda tuziladi. Ikkala shakl ham bir xil yuridik kuchga ega. **Sug‘urta badali** – sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urtalovchiga to‘lanishi shart bo‘lgan sug‘urta haqi.

Sug‘urtaning asosiy vazifalari

Himoya vazifasi	Profilaktika vazifasi	Jamg‘arma vazifasi	Barqarorlashtirish vazifasi
Sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta kompaniyasi zararni qoplaydi.	Xavflarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni rag‘batlantiradi.	Mablag‘larni jamg‘arish imkonini beradi (asosan hayotni jamg‘arib sug‘urtalashda).	Katta zararlarning iqtisodiyotga salbiy ta’sirini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Sug‘urta turlari







Shaxsiy sug‘urta	Mulk sug‘urtasi	Javobgarlik sug‘urtasi
(insonning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati)	(uy-joy, avtomobil va boshqa mol-mulklar)	(kasbiy javobgarlik, fuqarolik javobgarligi)

Tijorat (biznes) sug‘urtasi tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy risklarni kamaytiradi.

Guruh muhokamasi

Sug‘urta kompaniyasi sug‘urta polisi egalariga sug‘urta tovonini to‘lash uchun mablag‘ni qayerdan oladi?

Mijozlar sug‘urta polisi sotib olayotganda sug‘urta mukofoti (sug‘urta badali) to‘laydi. Ko‘pchilik sug‘urta mukofoti to‘laydi, lekin hamma ham sug‘urta hodisasiga duch kelmaydi. Shu bois to‘plangan pul zarar ko‘rganlarga tegishli tartibda beriladi. Sug‘urta kompaniyasi sug‘urta to‘lovlarini to‘plangan sug‘urta mukofotlari, sug‘urta zaxiralari va investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar hisobidan qoplaydi.

Davlat ayrim hollarda majburiy sug‘urtani belgilaydi. Bunday hollarda ayrim fuqarolar yoki tashkilotlar qonunda belgilangan tartibda sug‘urtalanishi shart bo‘ladi. Agar shaxs sug‘urtalanish to‘g‘risida o‘zi qaror qilsa, bunday sug‘urta ixtiyoriy sug‘urta deb ataladi.

Guruh muhokamasi



Rasmda ko‘rsatilgan vaziyatlarda (uyda, maktabda, o‘yin va mashg‘ulotlarda, oromgohlarda, sayohatlarda va suv bo‘yida) bolalarga sug‘urta polisi kerakmi? Javobingizni asoslab bering. Sug‘urta polisini qayerda va qanday rasmiylashtirish mumkin?

Sug‘urta kompaniyalari yig‘ilgan sug‘urta badallarini investitsiyalarga yo‘naltiradi. Bu iqtisodiyotga qo‘shimcha moliyaviy resurslar kirib kelishini ta’minlaydi hamda yangi loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi. Sug‘urta tadbirkorlar uchun moliyaviy xatarlarni kamaytiradi. Natijada ular o‘z biznesini kengaytirish va yangi loyihalarga investitsiya kiritishda o‘zini ishonchliroq his qiladi. Masalan, yuklarini sug‘urtalagan transport kompaniyasi yangi yo‘nalishlarga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa sug‘urta iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bank omonatlarini sug‘urtalash

Omonat ochishdan oldin mijoz uchun eng muhim masalalardan biri – bank faoliyati tugatilganda, bank bankrot bo‘lganda yoki boshqa fors-major holatlar yuzaga kelganda pul mablag‘larining saqlanishi va ularning to‘liq qaytarilishi. Aynan shu maqsadda bank omonatlarini sug‘urtalash tizimi joriy etilgan.

Omonatlarni himoya qilishga kim kafolat beradi?	Bank faoliyatida muammolar yuzaga kelganda aholi omonatlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Buning uchun fuqarolar banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etilgan.
Kimning omonatlari kafolatlanadi?	Mazkur fond jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning banklardagi omonatlarini himoya qiladi.
Omonatning qancha miqdori qaytarilishi kafolatlanadi?	Fond fuqarolarning tijorat banklaridagi depozit hisobvaraqlariga qo‘ygan omonatlarini, ularning miqdoridan qat’i nazar, to‘liq qaytarilishini kafolatlaydi.
Onlayn omonatlar qaytarilishi kafolatlanganmi?	Onlayn omonatlarning qaytarilishi kafolatlanadi. Ularni qaytarish tartibi ham an’anaviy omonatlarniki bilan bir xil.

Guruh muhokamasi

Quyidagi vaziyatlarga tegishli vazifalarni (himoya, profilaktika, jamg‘arma, barqarorlashtirish) aniqlang. Tanlovingizni tushuntiring (1-jadval).

1-jadval

Vaziyat	Qaysi vazifa? Nima uchun?
Yong‘in tufayli zararlangan uyni ta’mirlash xarajatlari sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplab berildi.	
Korxona yong‘inga qarshi tizim o‘rnatgani uchun sug‘urta badali kamaytirildi.	
Sug‘urta kompaniyasi katta tabiiy ofat oqibatida yuzaga kelgan zararni qoplash uchun yig‘ilgan sug‘urta badallari hisobidan sug‘urta to‘lovini amalga oshirdi.	
Hududda kuchli shamol esganiga qaramay iqtisodiy faoliyat to‘xtab qolmadi. Chunki ko‘plab obyektlar sug‘urtalangan edi.	
Sug‘urta badallari jamg‘arilib, yirik sug‘urta fondi shakllantirildi. Shu tariqa keyingi yillardagi to‘lovlar uchun xavfsizlik zaxirasi yaratildi.	

Savol va topshiriqlar

1. A) Sug‘urtaning asosiy vazifalarini bilmaslik shaxs yoki korxona uchun qanday moliyaviy yo‘qotishlar keltirishi mumkin? Misollar bilan izohlang.

B) Sug‘urta kompaniyalari qanday qilib daromad topadi?

2. 1-vaziyat. Mahalliy korxonada qimmat uskunalar ishdan chiqdi. Korxona mulki sug‘urtalangan edi shu sababli sug‘urta kompaniyasi zararni qoplab berdi. Ammo qo‘shni do‘kon sug‘urtalanmagani sababli egasi barcha xarajatni o‘z hisobidan to‘lashga majbur bo‘ldi.

2-vaziyat. Korxona xavfsizlik choralarini kuchaytirdi: muntazam texnik ko‘rikdan o‘tkazdi, xavfli holatlarning oldini olish qoidalariga rioya qildi. Natijada sug‘urta kompaniyasi bu korxona uchun sug‘urta badalini kamaytirdi.

3-vaziyat. Kuchli shamol oqibatida bir nechta uyning tomi shikastlandi. Sug‘urta kompaniyasi tabiiy ofatlar bo‘yicha sug‘urta shartlariga muvofiq to‘lovlarni amalga oshirdi. Favqulodda hodisaga qaramay, hududda iqtisodiy hayot to‘xtab qolmadi.

Ushbu vaziyatlarda sug‘urtaning qaysi vazifalari samarali ishladi?

Agar sug‘urta tizimi bo‘lmaganida, yetkazilgan zarar kimning zimmasiga tushardi va bu holat jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatardi?

Uyga vazifa

Hayotingizda kutilmagan vaziyat yuz bergan holatni eslang (masalan, kompyuterning buzilishi, uy jihozining sinishi, kichik baxtsiz hodisa yoki transport vositasidagi nosozlik). Quyidagi topshiriqlarni oila a’zolaringiz bilan yozma ravishda bajaring:

- Yuz bergan vaziyatni qisqacha bayon qiling va u sizga qanday noqulaylik yoki moliyaviy zarar keltirganini tushuntiring.
- Ushbu holatda sug‘urtaning qaysi vazifasi (himoya, profilaktika, jamg‘arma yoki barqarorlashtiruvchi) foydali bo‘lishi mumkin edi? Javobingizni asoslang.
- Agar o‘sha paytda tegishli sug‘urta turi mavjud bo‘lganida, muammoni hal etish qay darajada yengillashardi? Fikringizni izohlang.
- Muammoni o‘sha vaziyatda qanday yo‘l bilan hal qilganingizni yozing.
- Shu kabi holat yana yuz berganda, xuddi shunday tanlov qilish siz uchun qanchalik oson bo‘lardi? Tanlovingiz sababini tushuntiring.

QO‘SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1-vaziyat.

Bu savollar sizni qanday moliyaviy maqsadlar qo‘yishga undaydi? Nima uchun? Xulosa chiqaring.

15 yildan keyin nima bo‘ladi?



- Siz inflyatsiyaga ta’sir qila olasizmi?
- Siz mamlakat va dunyo iqtisodiyotiga ta’sir qila olasizmi?
- Siz o‘z moliyaviy qarorlaringizga ta’sir qila olasizmi?

Maqsad:

2-vaziyat.

Bank omonati (depozit) shartlarini tahlil qiling va uzoq vaqt davomida pul saqlash uchun qaysi biri foydaliroq ekanini aniqlang. Tahlillaringiz asosida xulosa chiqaring.

Muddat	Foizi
3–24 oy	21%

Muddat	Foizi	Yechib olish
cheklanmagan	13%	+ hisobni to‘ldirish

3-vaziyat.



Manba: Markaziy bank tahlili

Diagrammaga ko‘ra, aholining salmoqli qismi umuman jamg‘armaga ega emas. Buning sabablari nimada va bu holat odamlarning moliyaviy barqarorligiga qanday xavf-xatarlar tug‘diradi? Xulosangizni diagrammada keltirilgan ko‘rsatkichlar bilan asoslang.

V BOB.

KREDIT

5.1. Muddatli to‘lov, kredit va lizing
5.2. Kredit turlari va foiz stavkasi
5.3. Kredit tarixi va skoringi
5.4. Moliyaviy zaxiralar va “xavfsizlik yostig‘i”
Qo‘shimcha topshiriqlar

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

5.1. MUDDATLI TO‘LOV, KREDIT VA LIZING

Bugungi darsda:

– qarz, uning rasmiy va norasmiy manbalarini tushuntirasiz;

– “muddatli to‘lov”, “kredit” va “lizing” tushunchalarini taqqoslaysiz hamda ular o‘rtasidagi farqlarni aniqlaysiz;

– muddatli to‘lov, kredit va lizingni kundalik hayotda ulardan foydalanishga oid misollar orqali tushuntirasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Kutilmagan xarajatlar yuz berdi: oshxonadagi suv jo‘mragi buzildi, ish faoliyati uchun yangi kompyuter zarur bo‘lib qoldi, darhol davolanishga ehtiyoj tug‘ildi yoki oilada favqulodda moliyaviy xarajat paydo bo‘ldi. Sizda yetarli mablag‘ yo‘q, lekin ehtiyojni darhol qondirish zarur. Zarur mablag‘ni qarindoshlar, do‘stlar yoki moliyaviy xizmatlar (bank, do‘kon, moliyaviy tashkilot)dan olish mumkin, biroq kelajakda uni qaytarish majburiyati mavjud, ayrim hollarda esa foiz ham to‘lanadi. Har bir variantning afzalliklari va kamchiliklarini guruh bilan tahlil qiling.



Hayotda inson ma’lum bir xarajatni darhol amalga oshirishi zarur, ammo buning uchun yetarli mablag‘i yo‘q holatlar ham bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda keyinroq qaytarish sharti bilan mablag‘ topish imkoniyatlari izlanadi. Ba’zi hollarda bunday yordam qarindoshlar yoki do‘stlar tomonidan ko‘rsatiladi, ayrim vaziyatlarda esa banklar, do‘konlar yoki maxsus moliyaviy tashkilotlar xizmatidan foydalaniladi. Har ikkala holatda ham inson hozirgi ehtiyojini qondiradi, biroq kelajakda belgilangan majburiyatlarni bajarishi lozim bo‘ladi. Bunda vaqt omili muhim ahamiyatga ega. Chunki bugun olingan pul yoki mahsulot kelajakda qaytarilishi kerak va ayrim hollarda esa foiz yoki boshqa qo‘shimcha to‘lov ham talab etiladi. Shuning uchun bunday moliyaviy qarorlarni qabul qilishda shartlarni diqqat bilan o‘rganish, moliyaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va mas’uliyat bilan yondashish lozim.

Qarz manbalari ikki turga bo‘linadi: *rasmiy* va *norasmiy (1-jadval)*.

Qarz – shaxs yoki tashkilot tomonidan foydalanish uchun olingan, kelajakda qaytarilishi lozim bo‘lgan mablag‘ yoki mol-mulk.

1-jadval

Rasmiy qarz manbalari	Norasmiy qarz manbalari
Qonuniy faoliyat yuritadigan moliyaviy tashkilotlar tomonidan beriladi. Shartnoma asosida rasmiylashtirilib, unda foiz stavkasi, qaytarish muddati va to‘lov shartlari oldindan belgilab qo‘yiladi. Bank kreditlari, mikromoliya tashkilotlari tomonidan beriladigan qarzlar, kredit uyushmalari hamda davlat dasturlari asosidagi kreditlar shular jumlasidan. Asosiy afzalligi shundaki, ular qonun bilan himoyalangan bo‘lib, shartlari aniq va shaffof.	Jismoniy shaxslar yoki rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan manbalardan olinadi. Ko‘pincha bunday qarzlar yozma shartnomasiz, og‘zaki kelishuv asosida beriladi. Qarindoshlar, do‘stlar, tanishlar hamda norasmiy qarz beruvchilardan olingan mablag‘lar shular jumlasiga kiradi. Bunday qarzning afzalligi shundaki, uni tez va oson olish mumkin. Asosiy kamchiligi esa huquqiy kafolatlarning mavjud emasligi sababli kelishmovchiliklar va nizolar yuzaga kelishi mumkin.

Muddatli to‘lov – mahsulot yoki xizmatni darhol olish, uning qiymatini esa belgilangan muddat davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lash shakli.

Muddatli to‘lov ko‘pincha savdo tashkilotlari tomonidan taklif etiladi. Masalan, mehmonxona uchun mebel to‘plamini 1 yil muddatga muddatli to‘lov asosida xarid qilish narxi 17 000 000 so‘mni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, xaridor bir yil davomida jami 17 000 000 so‘m to‘laydi, ya’ni undan qo‘shimcha foiz undirilmaydi. Odatda foiz xarajatlarini sotuvchi o‘z zimmasiga oladi. Agar foiz miqdori 2 000 000 so‘mni tashkil etsa, sotuvchi ushbu mablag‘ni bank yoki moliyaviy tashkilot tomonidan to‘lanadigan mablag‘dan chegirib qoladi. Natijada sotuvchi 15 000 000 so‘m (17 000 000 so‘m – 2 000 000 so‘m = 15 000 000 so‘m) oladi.

Bu holat muddatli to‘lovga misol bo‘ladi. Chunki xaridor mebel to‘plamini darhol oladi, biroq uning qiymatini bir yil davomida bo‘lib-bo‘lib to‘laydi. Xaridor uchun mahsulot narxi o‘zgarmaydi va u qo‘shimcha foiz to‘lamaydi.

Agar muddatli to‘lov bank orqali rasmiylashtirilsa, xaridor mahsulotni darhol oladi va to‘lovni bank orqali bo‘lib-bo‘lib to‘laydi. Bank ushbu xizmati uchun foiz yoki haq belgilashi mumkin. Agar foizni xaridor to‘lasa, bunday moliyaviy xizmat kredit hisoblanadi. Agar foizni sotuvchi qoplasa, u xaridor uchun muddatli to‘lov hisoblanadi.

Guruh muhokamasi

Ko‘rsatilgan xarid jarayonida xaridor, bank va do‘kon vazifalarini aniqlang.

1. Buyurtmani yetkazadi.	2. Buyurtmani qabul qiladi.	3. Saytda buyurtmani rasmiylashtiradi.	4. SMS orqali bank bilan shartnoma imzolaydi.	5. Kredit yoki muddatli to‘lovni ma’qullaydi.
Xaridor	**Bank**	**Xaridor**	**Do‘kon**	**Xaridor**
?	?	?	?	?

Kredit moliyaviy muammoni tez hal qilishga yordam berishi mumkin, ammo u noto‘g‘ri rejalashtirilsa, uzoq muddatli moliyaviy majburiyatga aylanishi ehtimoli ham mavjud. Kredit oluvchi mablag‘ni belgilangan muddatda va foizi bilan qaytarishi lozim.

Kredit – bank yoki boshqa moliyaviy tashkilot tomonidan beriladigan qarz.
Lizing – asosan qimmatbaho mol-mulk (avtomobil, uskunalar, texnika va boshqalar)ni uzoq muddatga ijaraga olish shakli.

Lizing muddati davomida foydalanuvchi muntazam to‘lovlarni amalga oshiradi. Muddat yakunida esa, agar shartnomada yozilgan bo‘lsa, mol-mulkni sotib olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Guruh muhokamasi

Sxemaga ko‘ra, mijoz lizing kompaniyasiga nima maqsadda murojaat qiladi? Lizing jarayonida mijoz, lizing kompaniyasi va mahsulot yetkazib beruvchi qanday ketma-ketlikda harakat qiladi? Shartnoma shartlari bajarilgandan so‘ng mijoz qanday huquqqa ega bo‘ladi?

1. Mijoz mablag‘i yetmagani sababli mulkni sotib olish uchun lizing kompaniyasiga murojaat qiladi.



2. Lizing kompaniyasi loyiha likvidligini baholab, mahsulot yetkazib beruvchidan mijozga zarur bo‘lgan lizing ko‘chmas mulki, uskuna, transport vositasi va boshqalarni sotib oladi. Mahsulot yetkazib beruvchi va mulkni mijoz tanlaydi.



3. Mijoz (lizing oluvchi) lizing mulkini ijaraga oladi. Bunda shartnomada quyidagilar aks etadi:

- lizing to‘lovi miqdori;
- ijara muddati;
- lizing mulkini sotib olish shartlari.



4. Mijoz lizing bitimining barcha shartlarini bajarganidan so‘ng lizing mulkiga egalik huquqini olishi mumkin.

Muddatli to‘lov, kredit va lizing xususiyatlari

2-jadval

	Muddatli to‘lov	Kredit	Lizing
Ishtirokchilar	Ikki tomonlama (sotuvchi – xaridor) shartnomaga asosan amalga oshiriladi.	Ikki tomonlama (kredit beruvchi – qarz oluvchi) shartnomaga asosan amalga oshiriladi.	Uch tomonlama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki tomonlama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Egasi kim	Mahsulotni sotib olgan zahoti uning egasiga aylanadi.	Kredit hisobiga sotib olingan mulkka egalik huquqi korxona, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxsga tegishli bo‘ladi.	Shartnomaning amal qilish muddati davomida lizing beruvchi mulk egasi hisoblanadi. Shartnomada nazarda tutilgan hollarda u mulkni qaytarib olish huquqiga ega.
To‘lovlar	Qo‘shimcha foiz to‘lamaydi.	Kredit bo‘yicha to‘lovlar (kredit foizlari, asosiy qarz, sug‘urta); boshlang‘ich to‘lov mavjud bo‘lmasligi mumkin.	Lizing bo‘yicha to‘lovlar (lizing foizlari va asosiy qarz); sug‘urta badallari; boshlang‘ich to‘lov mulk narxining 20–30 foizini tashkil etishi mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Bozor narxi 3,5 million so‘m bo‘lgan muzlatkichni muddatli to‘lov yoki kredit asosida xarid qilishning umumiy qiymatini aniqlang.

Kredit		**Muddatli to‘lov**	
Oylik to‘lov	330 958	Oylik to‘lov	399 000
Kredit muddati	12 oy	To‘lov muddati	12 oy
Kredit foizi	24 foiz	Muzlatkichning 12 oydan keyingi narxi	?
Muzlatkichning 12 oydan keyingi narxi	?		
Bozor narxidan past/yuqori qiymati (%)	?	Bozor narxidan past/yuqori qiymati (%)	?

Qaysi usul tejamliroq? Javobingizni izohlab bering.

Nima uchun ushbu to‘lovlar o‘rtasida farq bo‘lishiga qaramay, xaridorlar ko‘pincha muddatli to‘lovni tanlaydi? Javobingizni izohlab bering.

Uyga vazifa

Har bir vaziyatni tahlil qiling. Nima uchun birinchi vaziyatda muddatli to‘lovdan, ikkinchi vaziyatda esa lizingdan foydalanish maqsadga muvofiq ekanini tushuntiring. Har bir usulning bitta afzalligi va bitta ehtimoliy xavfini yozing.

1-vaziyat. Oila 7 000 000 so‘mlik kir yuvish mashinasini sotib olmoqchi. Do‘kon 12 oy muddatli to‘lovni taklif qilmoqda. Oilaning barqaror oylik daromadi mavjud.

2-vaziyat. Kichik tadbirkor yuk tashish xizmatini yo‘lga qo‘ymoqchi. Unga avtomobil kerak, lekin sotib olish uchun mablag‘i yetarli emas. Lizing kompaniyasi avtomobilni lizing asosida foydalanishga berishni taklif qilmoqda.

5.2. KREDIT TURLARI VA FOIZ STAVKASI

Bugungi darsda:

– kredit turlari va foiz stavkalarini farqlaysiz hamda kredit bo‘yicha foizlarni hisoblaysiz;
– kreditni qaytarish usullari (annuitet va differensial to‘lovlar)ni solishtirasiz hamda to‘lov miqdorini kalkulyator yordamida hisoblaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Jahongir yangi kompyuter sotib olmoqchi. Do‘konda unga har oy bir xil miqdordagi to‘lov yoki dastlabki oylarda ko‘proq, keyingi oylarda esa kamroq to‘lash variantlari taklif qilindi. Siz qaysi to‘lov usulini tanlagan bo‘lardingiz? Nima uchun?

O‘tgan darsda biz kundalik hayotda tez-tez uchraydigan kredit tushunchasi bilan tanishdik. Endi esa kreditning turli shakllarini ko‘rib chiqamiz. Banklar va moliyaviy tashkilotlar aholining ehtiyojlarini inobatga olgan holda turli xil kreditlarni taklif etadi. Bugungi darsda kredit turlari, ularning qaysi vaziyatlarda qo‘llanishi, shuningdek, har birining afzalliklari va ehtimoliy xavflari haqida bilib olamiz. Kredit turlarini farqlay olish iste’molchi uchun muhim ko‘nikma bo‘lib, moliyaviy qarorlarni ongli va mas’uliyat bilan qabul qilishga yordam beradi. Mamlakatimizda kreditlar turli belgilariga ko‘ra tasniflanadi. Keling, ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqaylik (3-jadval).

3-jadval

Foydalanish muddatiga ko‘ra	– qisqa muddatli (bir yilgacha); – uzoq muddatli (bir yildan ortiq).
Foydalanish maqsadiga ko‘ra	– ko‘chmas mulkni moliyalashtirish (uy-joy, garaj sotib olish va qurish, dala-hovlini obodonlashtirish) uchun. – iste’mol uchun: a) tovarlar (mebel, texnika) yoki xizmatlar (o‘qish, davolanish) sotib olish; b) avtokredit.
Qaytarishni ta’minlash usuli bo‘yicha	– ta’minlangan – garov yoki uchinchi shaxs kafilligi asosida beriladi. – ta’minlanmagan – garov yoki uchinchi shaxs kafilligisiz (odatda qat’iyroq shartlar va yuqoriroq foiz stavkasida) beriladi.
Taqdim etish usuliga ko‘ra	– biryo‘la beriladigan kredit – kredit summasi bir martada to‘liq hajmda ajratiladi. – kredit liniyasi – kredit mablag‘i shartnomaga muvofiq belgilangan muddat davomida bosqichma-bosqich ajratiladi.

Guruh muhokamasi

Quyida berilgan vaziyatlar uchun qaysi kredit turi mos kelishini aniqlang. Tanlovingizni muhokama qiling.

1-vaziyat. Otabekning sovitkichi buzilgan. Uning daromadi barqaror, biroq hozir katta miqdordagi pulni biryo‘la to‘lay olmaydi. Shu bois xarajatni 6 – 12 oy davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lashni ma’qul deb o‘yladi.

2-vaziyat. Rustamning onasini shoshilinch operatsiya qilish zarur. Buning uchun darhol pul topish kerak.

3-vaziyat. Diyoraning oilasi uy sotib olmoqchi. Oilaning jamg‘armasi bor, ammo mablag‘ uy narxining faqat yarmiga yetadi.

4-vaziyat. Mohira shirinlik ishlab chiqarish bo‘yicha kichik biznesni boshlamoqchi. Uskunalar va xomashyo sotib olish uchun qo‘shimcha mablag‘ talab etiladi.

Kreditni qaytarishda siz faqat olingan summani emas, balki undan foydalanganingiz uchun foiz ham to‘laysiz. Demak, depozit bo‘yicha foiz sizning daromadingiz, kredit bo‘yicha foiz esa sizning xarajatingiz hisoblanadi. Kredit foiz stavkasi odatda yillik foiz (%) ko‘rinishida belgilanadi. Masalan, agar kredit bo‘yicha yillik foiz stavkasi 12% bo‘lsa, bu bir yil davomida kredit summasining 12 foizi miqdorida foiz to‘lanishini anglatadi. Agar siz 1 000 000 so‘m kredit olgan bo‘lsangiz, bir yil uchun foiz to‘lovi 120 000 so‘mni tashkil etadi. Bundan tashqari, kreditning asosiy summasi ham qaytariladi, umumiy to‘lov 1 120 000 so‘mni tashkil qiladi.

Kredit bo‘yicha foiz stavkasi odatda depozit bo‘yicha foiz stavkasidan yuqori bo‘ladi. Buning sababi – bank uchun kredit berish xavfi yuqoriroq. Kredit turi, muddati va ta’minotiga qarab foiz stavkasi o‘zgaradi. Kreditni qaytarishda ikki asosiy to‘lov usuli keng qo‘llanadi: *differensial* va *annuitet* to‘lovlar (4-jadval).

4-jadval

	Differensial to‘lov	**Annuitet to‘lov**
Oylik to‘lov summasi	Har oy kamayib boradi. Eng katta to‘lovlar kreditning dastlabki oylarida amalga oshiriladi.	Kreditning to‘liq muddati davomida o‘zgarmaydi.
Kredit asosiy qarzi	Kreditning asosiy qarzi har oy teng qismlarga bo‘lib to‘lanadi.	Asosiy qarz har oy to‘lanadi, uning ulushi vaqt o‘tishi bilan ortib boradi.
Foiz	Foiz qolgan qarz summasiga nisbatan hisoblanadi. Qarz tez kamaygani uchun foiz ham tezroq kamayadi.	Foiz ham qolgan qarzga nisbatan hisoblanadi, lekin dastlab foiz ulushi ko‘proq bo‘ladi, keyinchalik esa kamayadi.
Umumiy ortiqcha to‘lov	Kamroq bo‘ladi, chunki asosiy qarz tezroq uziladi.	Ko‘proq bo‘ladi, asosiy qarz sekinroq kamayadi.

Savol va topshiriqlar

1. Agar siz bankir bo‘lganingizda, qaysi kredit turiga yuqoriroq foiz stavkasi qo‘yar edingiz? Nima uchun?

2. Annuitet to‘lovlar har oy bir xil bo‘lgani uchun qulay, lekin umumiy foiz ko‘proq to‘lanadi. Sizningcha, odamlar qulaylik uchun ko‘proq to‘lashga tayyormi yoki iqtisod qilishni tanlaydimi?

3. Kamol quyidagi mahsulot va xizmatni sotib olmoqchi: havo tozalagich (4 500 000 so‘m), velosiped (3 200 000 so‘m), o‘quv kursi (2 400 000 so‘m).

Daromadi: har oy cho‘ntak puli (350 000 so‘m) va qo‘shimcha daromadi (250 000 so‘m). Kamol oylik daromadining 50 foizini tejaydi.

a) Kamol har oy qancha tejaydi?

b) Har bir maqsadga yetish uchun necha oy kerak bo‘ladi?

d) Qaysi maqsadni birinchi bajarish mantiqan to‘g‘ri? Javobingizni asoslang.

Uyga vazifa

Ota-onagiz gadjetlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi kichik biznesni boshlamoqchi va buning uchun ularga 10 000 000 so‘m qo‘shimcha mablag‘ kerak. Kredit olish uchun banklar ota-onangizga uchta variantni taklif qilmoqda:

Kredit	Summa	Muddat	Foiz stavkasi	Tavsif
A	10 000 000 so‘m	12 oy	18%	Tez tasdiqlanadi, foizi yuqori.
B	10 000 000 so‘m	24 oy	16%	Foizi pastroq, ammo talab etiladigan hujjatlar ko‘p.
D	15 000 000 so‘m	10 yil	14%	Katta summa, uzoq muddat, kafolat talab qilinadi.

1. Har bir variantning afzallik va kamchiliklarini yozing.

2. Ota-onangiz biznesi uchun eng maqbul variantni tanlang va sababini yozma izohlang.

3. Agar ularga qo‘shimcha mablag‘ kerak bo‘lsa, tanlovingiz qay tarzda o‘zgaradi?

5.3. KREDIT TARIXI VA SKORINGI

Bugungi darsda:

– kredit tarixi, kredit skoringi va qarz yuki tushunchalarini farqlaysiz, ularning insonning moliyaviy barqarorligiga ta’sirini tushuntirasiz;

– kredit ta’minoti turlari (garov, kafolat va sug‘urta)ni tavsiflaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Farangiz va Sardor bir xil maqsadda – maishiy texnika sotib olish maqsadida bankka murojaat qildi. Ikkalasi ham kerakli hujjatlarni topshirdi. Bir necha kundan keyin bankdan xabar keldi: Farangizning kredit arizasi ma’qullandi, Sardorga esa “Hozircha kredit ajratib bo‘lmaydi”, degan javob berildi. Nima uchun bank ularga nisbatan turli qaror qabul qilgan bo‘lishi mumkin? Bank kredit ajratishda qaysi omillarga e’tibor beradi deb hisoblaysiz?

Kredit tarixi va kredit skoringi

Kreditor va kredit oluvchilarga qulaylik yaratish uchun axborot yig‘ish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Markaziy bank Kredit reyestri deb ataladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratgan. Bu tizim fuqarolarning kredit tarixini shakllantiradi, uni saqlaydi va banklarga kredit bo‘yicha zarur ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu banklarga mijozning kreditlarni qanday to‘laganini bilib, asosli va adolatli qaror qabul qilish imkonini beradi.

Kredit tarixi vaqt o‘tishi bilan shakllanadi va olingan har bir kredit unga ta’sir qiladi. Agar qarz oluvchi kreditini o‘z vaqtida va to‘liq qaytarib borsa, uning kredit tarixi ijobiy baholanadi. Aksincha, to‘lovlarni kechiktirish yoki kreditni qaytarmaslik kredit tarixining salbiy baholanishiga olib keladi.

Kredit tarixi – shaxsning olgan kreditlari va ularni qaytarish intizomi haqidagi ma’lumotlar majmuyi.



To‘liq versiyasi:
faqat o‘zingiz

Kredit tarixini kimlar ko‘rishi mumkin?

Asosiy qism:
bank; mikromoliya tashkiloti; sug‘urta kompaniyasi; ehtimoliy ish beruvchi

Axborot qismi:
faqat ssuda yoki kredit beruvchi yuridik shaxs

Kredit tarixi banklar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u mijozning moliyaviy intizomi va mas’uliyatini aks ettiradi. Shu sababli, hatto kichik miqdordagi kreditlarni ham o‘z vaqtida qaytarish kelajakda katta kredit olish imkoniyatini oshiradi. To‘lovlarni muntazam kechiktirish esa bankning ishonchini kamaytiradi va kredit olishni qiyinlashtiradi.

Kredit skoringi – qarz oluvchining kreditga layoqatini baholovchi ball tizimi. U kredit tarixi va boshqa moliyaviy ma’lumotlar asosida shakllantiriladi.

Kredit skoring modeli banklar yoki maxsus kredit byurolari tomonidan belgilanadi. Har bir bank o‘zining ichki qoidalariga asoslanib, qaysi ko‘rsatkichga qancha ball berilishini mustaqil aniqlaydi. Bu ballar:

– mijozning daromadi;
– ish joyi;
– kredit tarixi;
– qarzlarini qaytarish intizomiga bog‘liq bo‘ladi.

Kredit olish uchun zarur bo‘lgan minimal skoring balli barcha banklarda bir xil emas. Odatda maksimal ballning 60–70 foizi yoki undan yuqori natija mijozning kreditga layoqati yuqori ekanini bildiradi. Ballar mijoz haqidagi ma’lumotlar asosida avtomatik hisoblanadi.

Guruh muhokamasi

Bank kredit arizasini ko‘rib chiqishda mijozning kredit skoringini baholadi: doimiy daromad – +30 ball, oldingi kreditlarni vaqtida to‘lash – +30 ball, kechiktirilgan qarz – −20 ball, rasmiy ish joyi – +20 ball. Siz bank xodimi bo‘lganingizda, yuqoridagi ballar asosida kredit berarmidingiz? Nima uchun?

Moliyaviy qaror qabul qilayotganda inson faqat qancha kredit olayotganini emas, balki uni qaytarish oylik daromadiga va kundalik xarajatlariga qanday ta’sir qilishini ham hisobga olishi kerak. Bunda “qarz yuki” tushunchasi muhim ahamiyatga ega.

Qarz yuki – shaxs daromadining qancha qismi qarz to‘lovlariga sarflanishini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich.

Agar qarz yuki juda yuqori bo‘lsa, kundalik ehtiyojlar uchun pul yetmay qolishi tayin. Qarz yuki me’yorida bo‘lsa, inson o‘z xarajatlarini bemalol qoplay oladi. Shu sababli kredit olishdan avval qarz yukini to‘g‘ri baholash moliyaviy muammolarning oldini olishga yordam beradi. Qarz yuki odatda daromadga nisbatan foizlarda hisoblanadi.



Qarz yukini hisoblash formulasi:

(Oylik kredit to‘lovlari ÷ Oylik daromad) × 100% = Qarz yuki (%)

Daromadning 30% gacha bo‘lgan qismi kredit to‘lovlariga sarflansa, qarz yuki past hisoblanadi. 30–50% oralig‘i – o‘rtacha, 50% dan yuqori bo‘lsa, qarz yuki yuqori bo‘lib, moliyaviy xavflarni oshiradi.

Kredit ta’minoti bank uchun xavfni kamaytiradi, qarz oluvchi uchun esa kredit olish imkoniyatini oshiradi. Amaliyotda kredit ta’minotining quyidagi uch turi ko‘p uchraydi: garov, kafillik, sug‘urta.





Qarz beruvchi – da’vogar



Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, bank kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilayotganda qaysi omil eng muhimi hisoblanadi: daromad, moliyaviy intizom yoki barqarorlik? Nima uchun?

2. Bir marta kechiktirilgan to‘lov kelajakda kredit olish imkoniyatiga qanchalik ta’sir ko‘rsatadi?

3. Kafillik oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir qilishi mumkinmi? Nima uchun?

4. Loyihalar menejeri Akbar asosiy ish joyida 8 000 000 so‘m maosh oladi, yana o‘rindoshlik asosidagi ishi 4 000 000 so‘m daromad keltiradi. Bundan tashqari, u o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida xonadonni 4 000 000 so‘mga ijaraga beradi. Uning oyiga 6 000 000 so‘mlik ipoteka krediti va smartfon olgani uchun 1 000 000 so‘mlik krediti bor. Akbar mavjud kreditlarga qo‘shimcha ravishda oyiga 6 000 000 so‘m to‘lash sharti bilan avtokredit ham olmoqchi. Uning qarz yuki qancha ekanini aniqlang. Bank uning avtokredit bo‘yicha arizasini ma’qullaydimi? Agar ha bo‘lsa, qaysi shartlarda?

Uyga vazifa

Tasavvur qiling: siz bankda kredit bo‘yicha mutaxassis bo‘lib ishlaysiz. Bir mijoz kredit olish uchun ariza bilan murojaat qilgan. Siz uning ma’lumotlari asosida bank uchun xulosa tayyorlashingiz kerak. Mijoz haqida ma’lumot quyidagicha:

Oylik daromadi: 7 000 000 so‘m; oylik kredit to‘lovi: 2 800 000 so‘m.

Mijozning qarz yukini hisoblang va uning moliyaviy holatiga ta’sirini tushuntiring.

Siz ushbu kredit arizasini ma’qullarmidingiz? Javobingizni asoslang. Kreditni qanday shartlarda ajratgan bo‘lardingiz?

5.4. MOLIYAVIY ZAXIRALAR VA “XAVFSIZLIK YOSTIG‘I”

Bugungi darsda:

– qarz majburiyatlarini boshqarish, muqobil daromad manbalarini topish, moliyaviy zaxira va “xavfsizlik yostig‘i” yaratish usullarini tushuntirasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Anvar va Malika turli darajada daromadga ega. Anvarning daromadi yuqori, lekin u xarajatlarini oldindan rejalashtirmaydi, jamg‘armasi yo‘q. U “Hozircha pul yetarli, muammo yuzaga kelganda hal qilarman”, degan fikrda.

Malikaning daromadi Anvarnikidan kamroq, lekin u har oy xarajatlarini oldindan rejalashtiradi, kichik bo‘lsa ham moliyaviy zaxira yaratgan va kutilmagan vaziyatlarga tayyor.

Bir kuni zilzila oqibatida Anvar va Malikaning xonadonlari zarar ko‘rdi va ularni shoshilinch ta’mirlash uchun katta mablag‘ zarur bo‘ldi. Sizningcha, ularning har biri qanday yo‘l tutadi? Kim bu vaziyatni yengilroq hal qila oladi? Javobingizni asoslang.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash usullari

Shaxsiy moliyani boshqarishda ba’zan kutilmagan holatlar yoki moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda mavjud mablag‘lardan oqilona foydalanish, moliyaviy zaxiralarga ega bo‘lish va muqobil daromad manbalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu moliyaviy barqarorlikni saqlash va moliyaviy xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir shaxs o‘z moliyaviy holatini nafaqat joriy daromadlari, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniq vaziyatlarga tayyorgarligi orqali ham boshqaradi. Shu bois muqobil daromad manbalari va zaxiralar shaxsiy moliyani samarali boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday zaxiralar odatda kundalik iste’mol uchun mo‘ljallanmaydi va faqat zarurat tug‘ilganda ishlatiladi.

Guruh muhokamasi

Suratlarga diqqat bilan qarang. Ularning qay biri qo‘shimcha daromad manbalari bo‘lishi mumkin? Javobingizni izohlang.






Moliyaviy zaxira – kutilmagan yoki rejalashtirilmagan xarajatlarni qoplash, daromad vaqtincha kamayib ketganda moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish hamda moliyaviy xavflarni yumshatish uchun oldindan jamg‘arilgan mablag‘.

Moliyaviy zaxira – ertangi kunga ishonch omili. Oilaviy yoki shaxsiy byudjetni yuritishda mablag‘ni oqilona sarflash, tejash, maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini rejalashtirish muhimdir. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlarda byudjetning moliyaviy barqarorligini ta’minlashni hisobga olish kerak. Chunki hayotda turli kutilmagan vaziyatlar bo‘lishi mumkin.



Tabiiy ofatlar



Ish joyini yo‘qotish



Favqulodda holatlar



Kasalliklar sababli ish yoki daromad manbayining vaqtincha to‘xtashi

Shunday vaziyatlarda byudjetning moliyaviy barqarorligini saqlash uchun moliyaviy zaxira zarur bo‘ladi. Odatda moliyaviy zaxira 6–12 oylik xarajatlar miqdorida shakllantiriladi.

Nega aynan xarajatlar? Chunki oila bir oyda qancha mablag‘ sarflashini bilish muhim. Bu esa vaqtincha daromad bo‘lmaganda ham odatiy turmush tarzini davom ettirishga yordam beradi. Moliyaviy zaxira moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i” deb ham ataladi.

Shaxsiy moliyani boshqarishda nafaqat daromad va xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirish, balki kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklarga tayyor bo‘lish ham muhim. Shu sababli moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i” shaxsiy moliyani himoya qiluvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i” – shaxs yoki oila uchun favqulodda vaziyatlarda foydalanish maqsadida shakllantirilgan, tezkor va ishonchli moliyaviy zaxira.

Moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i” qanday vazifalarni bajaradi?

– kutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganda moliyaviy barqarorlikni saqlashga yordam beradi;
– yangi daromad manbalarini izlash uchun vaqt va imkoniyat yaratadi;
– qarz olish va kreditga qaram bo‘lib qolishning oldini oladi;
– ruhiy bezovtalikni kamaytiradi va kelajakka ishonchni oshiradi.

“Xavfsizlik yostig‘i”ning miqdori nimaga bog‘liq?

– daromad manbayining barqarorligiga (daromad qanchalik beqaror bo‘lsa, shuncha ko‘p zaxira kerak bo‘ladi);
– shaxsning qaramog‘idagi kishilar soni va majburiy to‘lovlar miqdoriga;
– kredit va qarzlar miqdoriga;
– qo‘shimcha yoki muqobil daromad manbalarining mavjudligiga.

Moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i”ning hajmi oila yoki shaxsning oylik xarajatlariga bog‘liq bo‘ladi. Mutaxassislar aniq bir summani emas, balki jamg‘arilgan mablag‘ daromad bo‘lmagan taqdirda asosiy xarajatlarni necha oy davomida qoplay olishini hisobga olishni tavsiya etadilar.

Zaxira necha oyga yetishi kerak?

Minimal daraja – 3 oylik asosiy xarajatlar.
Optimal daraja – 6 oylik xarajatlar.
Maksimal daraja – daromadi beqaror bo‘lganlar uchun 9–12 oylik xarajatlar.



Kerakli summani qanday hisoblash mumkin? Buning yo‘li oddiy. Avvalo, uy-joy, oziq-ovqat, transport, kommunal xizmatlar, kredit va boshqa majburiy to‘lovlar uchun bir oyda qancha mablag‘ sarflashingizni aniqlaysiz. So‘ng bu summani tanlangan oylar soniga ko‘paytiring. Hosil bo‘lgan natija moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i”ni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ miqdorini ko‘rsatadi.

Guruh muhokamasi

Moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i”ni qayerda va qanday shaklda saqlash maqsadga muvofiq deb o‘ylaysiz? Javobingizni jadval ko‘rinishida taqdim eting hamda har bir variantning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiring (5-jadval).

5-jadval

Saqlash joyi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Misol: Naqd pul (uyda).	Tez va oson foydalanish mumkin.	Yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi mumkin; inflyatsiya tufayli qiymati kamayishi mumkin.
...	...	...

Savol va topshiriqlar

1. Siz o‘quvchi bo‘lsangiz ham, moliyaviy zaxira shakllantira olasizmi? Uni qanday yo‘llar bilan shakllantirish mumkin?

2. Agar asosiy daromad manbayingiz vaqtincha to‘xtab qolsa, qaysi qo‘shimcha daromad manbayiga tayanishni istardingiz? Nima uchun?

3. Tasavvur qiling: siz talabasiz va oyiga 2 000 000 so‘m stipendiya olasiz. Oylik majburiy xarajatlaringiz 1 500 000 so‘mni tashkil etadi. Hozirgi jamg‘armangiz 2 500 000 so‘m. Kutilmaganda quyidagi holatlar yuz berdi:

– tibbiy xarajatlar uchun 2 000 000 so‘m kerak bo‘ldi;
– telefon ta’miri 800 000 so‘mni talab qiladi;
– daromad 1 oyga to‘xtab qoldi.

Savollar:

A) Mavjud jamg‘arma barcha kutilmagan xarajatlarni qoplay oladimi? Hisoblab ko‘rsating. Agar jamg‘arma yetarli bo‘lmasa, yana qancha mablag‘ kerak bo‘ladi?

B) Muammoli vaziyatdan chiqish uchun quyidagi variantlardan faqat ikkitasini tanlang va tanlovingizni izohlab bering:

– qarz olish;
– vaqtinchalik qo‘shimcha ish topish;
– xarajatlarni qisqartirish.

Uyga vazifa

Oilangizda yuz bergan yoki esingizda qolgan biror moliyaviy qiyin vaziyatni eslang va yozing. Unda quyidagi savollarga javob bering:

O‘sha paytda oilangizda moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i” bor edimi?

Oilangiz ushbu vaziyatni qanday qaror orqali hal qildi (jamg‘arma, qarz, xarajatlarni qisqartirish va boshqalar)? O‘sha vaziyatdan qanday xulosa chiqardingiz? Moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i”ni shakllantirish nega muhim deb o‘ylaysiz?

Moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i”ni qanday hisoblash mumkin?



QO‘SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1-vaziyat.

Kreditning to‘liq qiymati nimalardan tarkib topadi? Javobingizni daftaringizga yozing va raqamlar o‘rniga mos kategoriyalarni kiriting (asosiy olingan pul miqdori, foiz, komissiyalar, yig‘imlar (to‘lovlar), sug‘urta va boshqa to‘lov).



2-vaziyat.

Faraz qiling, siz kredit bo‘yicha har oy 2 000 000 so‘m to‘lash imkoniyatiga egasiz. Kredit muddati – 3 yil. “Finlit.uz” saytining kredit kalkulyatori yordamida (Bosh sahifa → Interaktiv xizmatlar → Kreditlar → Depozit va kredit kalkulyatori → Kredit kalkulyatori) quyidagi topshiriqlarni bajaring.



1. Kalkulyatorning tegishli maydonlariga quyidagi ma’lumotlarni kiriting:

kredit turi; tovar (yoki xizmat) qiymati;

foiz stavkasi; kredit muddati;

kreditni qaytarish tartibi; kredit summasi.

2. Natijalarni tahlil qiling. Ikki yoki uchta tijorat bankining rasmiy vebsaytidan kreditlar haqida ma’lumot toping va ularni taqdim etish shartlari (foiz stavkasi, kredit muddati va boshqalar)ni taqqoslang.

3. Endi kredit muddatini 7 yilga uzaytiring. Hisoblash natijalarini taqqoslang va quyidagi savollarga javob bering: kreditning foiz stavkasi o‘zgardimi? Nima sababdan? Kredit bo‘yicha oylik to‘lov miqdori va kredit uchun jami to‘lov summasi qanday o‘zgardi?

VI BOB.

INVESTITSIYA

6.1. Oqilona moliyaviy qaror qabul qilish
6.2. Aktiv va passiv daromadlar
6.3. Investitsiyalar
6.4. Shaxsiy mablag‘ni sarflash va tejash
6.5. Moliyaviy risk
6.6. Moliyaviy risklarning oldini olish
Qo‘shimcha topshiriqlar

6.1. OQILONA MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISH

Bugungi darsda:

– investitsiyaning qo‘shimcha daromad manbayi sifatidagi imkoniyatlarini aniqlaysiz va tushuntirasiz;

– oqilona moliyaviy qaror tushunchasi va uning shaxsiy moliyadagi ahamiyatini tahlil qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Tasavvur qiling: ota-onangizga kutilmaganda 5 000 000 so‘m mukofot puli tushdi. Ular bu puldan quyidagi maqsadlarda foydalanishi mumkin:

– bankka omonat qo‘yish;

– kichik onlayn savdo yoki xizmat ko‘rsatish faoliyatiga investitsiya qilish.

Har bir variantning qanday afzalliklari va xavflari mavjud? Qaysi qaror qisqa muddatda ko‘proq foyda keltiradi, qaysi biri esa uzoq muddatda barqarorroq natija beradi?

Deyarli har bir inson zarur buyumlarni xarid qilayotganda ortiqcha pul sarflamaslikni istaydi. Rejalashtirilmagan xarajatlardan qochish uchun moliyaviy mablag‘larni oqilona boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi tavsiyalar moliyaviy qarorlarni yanada puxta va oqilona qabul qilishga yordam beradi.

1. His-tuyg‘ular ta’sirida moliyaviy qaror qabul qilmang.

Kuchli hissiy holatda inson mantiqiy fikr yuritishi qiyin bo‘ladi. Avval tinchlanib, vaziyatni xolis baholang, so‘ngra moliyaviy qaror qabul qiling.



2. Charchagan yoki asabiy holatda bo‘lsangiz, muhim moliyaviy qarorlar qabul qilmang.

Bunday vaziyatda muhim qarorni qabul qilishni kechiktirish maqsadga muvofiq. Avval dam olib, xotirjamlikni tiklang, so‘ngra masala ustida mulohaza yuriting. Foydali qoida: muhim moliyaviy qarorlarni kechki payt, ayniqsa, soat 21:00 dan keyin qabul qilmaslik tavsiya etiladi.



3. Xayolingizga yaxshi g‘oya kelsa, uni ertasi kuni yana bir bor o‘ylab ko‘ring.

Agar g‘oya haqiqatan ham puxta bo‘lsa, u ertasi kuni ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Dam olib, xotirjam bo‘lgach, vaziyatga yanada xolis nazar bilan qaray olasiz.



4. Yetarli ma’lumotga tayanib reja tuzing.

Kerakli ma’lumot va tavsiyalarni qayerdan hamda kimdan olish mumkinligini aniqlang. Rejangizni muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqing hamda moliya va investitsiya sohasidagi ekspertlarning fikr va tavsiyalarini o‘rganib boring.



5. Tuzgan rejangizga amal qiling.

Rejangizga qat’iy amal qiling. Asossiz tavakkalchilik moliyaviy yo‘qotishlar yoki xatolarga olib kelishi mumkin. Tavakkal qilish istagini sport, ijod yoki ta’lim kabi boshqa foydali faoliyatlarga yo‘naltiring, moliyaviy qarorlarni esa har doim puxta o‘ylab qabul qiling.



6. Faqat siz nazorat qila oladigan masalalarga e’tibor qarating.

Avvalo, nimani boshqara olishingizni aniqlang. Bular – rejalaringiz, harakatlaringiz va qabul qiladigan qarorlaringizdir. Nazorat qilib bo‘lmaydigan omillar (bozor sharoiti yoki tashqi vaziyat)ni ham inobatga oling. E’tiborni o‘zingiz boshqara oladigan qarorlarga qaratib, qat’iy ravishda rejangizga amal qiling.



Guruh muhokamasi

Tasavvur qiling: kundalik xarajatlardan tashqari qo‘shimcha 1 000 000 so‘m mablag‘ingiz bor. Siz uni qanday sarflagan bo‘lar edingiz? Quyidagi uchta moliyaviy qarordan birini tanlang va savollarga javob bering:

- Pulni to‘liq ko‘ngilochar ishlarga sarflayman, chunki hayotdan zavq olish muhim.
- Pulni jamg‘arib qo‘yaman, chunki kelajak haqida o‘ylash kerak.
- Pulni daromad keltiradigan faoliyatga investitsiya qilaman, axir “pul pulni topadi”.

Qaysi qaror moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga ko‘proq xizmat qiladi?

Qaysi qarorni qabul qilishda his-tuyg‘ular ta’siri kuchliroq?

Oqilona moliyaviy qaror – shaxsning o‘z moliyaviy imkoniyatlari, maqsadlari, ehtiyojlari va mavjud xavflarni hisobga olgan holda qisqa va uzoq muddatli manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatli qarori.

Yoshlar va talabalar uchun qo‘shimcha daromad manbalari yo‘l xaritasi

1-jadval

Yo‘nalish	Misollar	Foyda	Xavflar / Ehtiyot choralari
1. Onlayn ish va frilanserlik faoliyati	Blog, “YouTube”, “TikTok”; grafik va video dizayn; dasturlash; matn yozish va tarjima	Mustaqil ishlash, tajriba orttirish, global bozorga chiqish imkoniyati tug‘iladi.	Vaqt noto‘g‘ri taqsimlanishi, daromad noaniqligi
2. Ta’lim	Davlat tili, xorijiy til, turli fanlar, musiqa yoki san’atni o‘rganishga oid to‘garaklar	O‘qitish tajribasi, bilim mustahkamlanadi.	Muloqot va vaqt muammosi
3. Savdo va tijorat faoliyati	Onlayn do‘kon; qo‘l mehnati mahsulotlarini sotish	Tijorat va mustaqil daromad topish ko‘nikmasi rivojlanadi.	Boshlang‘ich mablag‘ talabi, mahsulot sotilmasligi xavfi
4. Xizmat ko‘rsatish	Tarjima qilish, tahrirlash; uy hayvonlari parvarishi; tadbirlar o‘tkazish va sport mashg‘ulotlari tashkil etish; yetkazish xizmatlari	Ko‘nikma va tajriba shakllanadi; tez daromad olish mumkin.	Mijoz topish qiyinchiligi; vaqt cheklovi
5. Investitsiya va moliyaviy vositalar	Mikroinvestitsiya, qisqa muddatli depozit, aksiyalar	Pulni ko‘paytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish imkoniyati bo‘ladi.	Moliyaviy yo‘qotish xavfi; bilim yetishmasligi

Tavsiya:

1. Har doim vaqtingiz va kuch-g‘ayratingizni samarali taqsimlang.
2. Avvalo, qiziqishlaringiz va ko‘nikmalaringizni aniqlang.
3. Faoliyatni moliyaviy jihatdan xavfsiz yo‘nalishlardan boshlang (masalan, mahorat kurslari yoki onlayn frilanserlik faoliyati).
4. Kichik daromadni tejab, uni qayta investitsiya qilish orqali imkoniyatlaringizni kengaytiring.

Frilanserlik – mutaxassisning mustaqil mehnat faoliyati shakli. U doimiy ish joyiga bog‘lanmay, turli buyurtmachilar uchun ish bajaradi va natijaga qarab haq oladi. Vaqtini va loyihalarni mustaqil boshqaradi.

Guruh muhokamasi

Frilans platformasining ishlash sxemasini ko‘rib chiqing. Bosqichlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring, har bir bosqich nima uchun xizmat qilishini izohlang va frilans platformasi orqali ishlashning afzallik va kamchiliklarini muhokama qiling.



Savol va topshiriqlar

1. Bitim bo‘yicha mablag‘larni vaqtincha foydalanishga beruvchi taraf kim?

a) debitor b) qarzdor d) kreditor e) vositachi

2. Nigora va Jamshidning oylik daromadi 5 000 000 so‘mdan. Ularning majburiy xarajatlari (ovqat, transport, uy) oyiga 4 000 000 so‘mni tashkil etadi. Nigora moliyaviy savodxonlikka ega, ammo tejashga unchalik uquvli emas. U har oy qo‘lida qolgan mablag‘ning atigi 10 foizini jamg‘aradi, qolgan qismini esa mayda ehtiyojlarga sarflaydi. Jamshidning moliyaviy bilimi unchalik yuqori emas, biroq u mablag‘larini oqilona boshqaradi. Har oy qo‘lida qolgan pulning 60 foizini zaxira sifatida to‘playdi. Jamg‘arilgan pullarni bankda yillik 12 foiz daromad bilan saqlaydi.

Oddiyroq hisob uchun: oyiga 1 foiz (kapitalizatsiyasiz) deb oling. Nigora va Jamshidning oylik jamg‘armasi miqdorini aniqlang. Yil oxirida har birining jamg‘armasi qancha bo‘lishini hisoblang.

Uyga vazifa

Ilhom amaki dalahovli sotib olishni rejalashtirdi. Shu maqsadda u avtomobilini 50 000 000 so‘mga sotdi va dalahovli izlay boshladi. Mashina sotilishidan tushgan pulni uyda, ishonchli joyda saqladi. Biroq uzoq vaqt davomida o‘ziga yoqadigan dalahovli topa olmadi. Keyin kasal bo‘lib qolib, yarim yil shifoxonada davolandi. Sog‘aygach, qidirishni davom ettirdi. Kerakli dalahovlini topganida esa, avtomobil sotilganiga bir yil bo‘lgan edi. Bu vaqt ichida ko‘chmas mulk narxlari 8 foizga oshdi. Agar Ilhom amaki pulni 10 foiz stavkali bank depozitiga qo‘yganida jamg‘armasi qancha ko‘paygan bo‘lar edi? Bunday vaziyatda pul mablag‘larini qanday boshqarish kerak? Maqbul moliyaviy reja taklif qiling.

6.2. AKTIV VA PASSIV DAROMADLAR

Bugungi darsda:

– aktiv va passiv daromad o‘rtasidagi farqlarni solishtirasiz;

– aktiv va passiv daromad manbalarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilasiz hamda ularning shaxsiy moliyaviy rejalashtirishdagi ahamiyatini baholaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

“Oilaning umumiy daromadi” chizmasini diqqat bilan ko‘rib chiqing. Guruhda muhokama qiling va daromad manbalarini ikki guruhga ajrating.

1-guruh: doimiy ravishda ishlashni, vaqt va kuch sarfini talab qiladigan daromadlar.

2-guruh: faol ish jarayonisiz yoki bevosita inson ishtirokisiz ham kelib turadigan muntazam daromadlar.

Qaysi daromad manbalari barqarorroq hisoblanadi? Nima uchun?

Qaysi daromad manbalari moliyaviy “xavfsizlik yostig‘i”ni shakllantirishga yordam beradi?



Daromadning ikki turi mavjud.

Birinchi turdagi daromad insonning kundalik mehnati va sarflagan vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Agar inson ishlamasa, odatda bu daromad ham to‘xtaydi. Demak, bunday daromad insonning mehnat faoliyati va mehnat qilish imkoniyatlariga bog‘liq. U qisqa muddatda nisbatan barqaror bo‘lishi mumkin, biroq uzoq muddatda moliyaviy xavfsizlikni to‘liq ta’minlay olmaydi.

Ikkinchi turdagi daromad esa oldindan yaratilgan aktivlar yoki imkoniyatlar hisobiga olinadi va doimiy mehnatni talab qilmaydi. Bu turdagi daromad insonning vaqtiga kamroq bog‘liq bo‘lib, moliyaviy mustaqillikka erishishga yordam beradi. Natijada daromad manbalari ko‘payadi va moliyaviy xavflarga bardoshlilik oshadi.

Aktiv daromad – shaxsning bevosita mehnati va vaqt sarfi evaziga olinadigan daromad bo‘lib, mehnat faoliyati to‘xtasa, odatda bu daromad ham to‘xtaydi.

Passiv daromad – oldindan yaratilgan aktivlar yoki boshqa daromad manbalari hisobiga, shaxsning doimiy mehnatisiz olinadigan daromad bo‘lib, ma’lum shartlar bajarilganda muntazam oshib borishi mumkin.

Shaxsiy moliyani samarali boshqarish uchun daromadni faqat bitta manbadan olish bilan cheklanmaslik tavsiya etiladi. Turli daromad manbalariga ega bo‘lish moliyaviy barqarorlikni oshiradi va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy qiyinchiliklar xavfini kamaytirishga yordam beradi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va kelajakdagi moliyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatini oshiradi.

Ma’lumot uchun

Bir xil obyekt ham aktiv, ham passiv daromad manbayi bo‘lishi mumkin. Masalan, daromad keltiradigan avtomobil – aktiv, faqat xarajat talab qiladigan avtomobil esa – passiv.



Guruh muhokamasi

Aktiv va passiv daromadlar o‘rtasidagi farq va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish shaxsiy moliyani ongli hamda mas’uliyatli boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi vaziyatlarni diqqat bilan o‘qing va har bir holat daromadning aktiv yoki passiv turiga mansubligini aniqlang. Javoblaringizni daftaringizga yozing.

O‘quvchi darsdan keyin kuryer bo‘lib ishlaydi va ishlagan soatiga ko‘ra haq oladi.

Daromad turi: _____ Izoh: _____

Talaba internetda videodars tayyorlab, vaqt o‘tishi bilan undan daromad ola boshladi.

Daromad turi: _____ Izoh: _____

Fotima har kuni mijozlarga go‘zallik saloni xizmatlarini ko‘rsatib daromad topadi.

Daromad turi: _____ Izoh: _____

Oldindan bank omonatiga qo‘yilgan mablag‘dan har oy foiz daromadi kelib turadi.

Daromad turi: _____ Izoh: _____

Muallif bir marta yozgan elektron kitobi uchun vaqti-vaqti bilan qalamhaqi oladi.

Daromad turi: _____ Izoh: _____

Oila o‘ziga tegishli uyni ijaraga berib, har oy ijara haqi oladi.

Daromad turi: _____ Izoh: _____

Aktiv va passiv daromadlardan faqat bittasini ustuvor deb bilish to‘g‘ri emas. Aktiv daromad kundalik xarajatlarni qoplashda muhim o‘rin tutadi, passiv daromad esa uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu ikki turdagi daromadni birgalikda shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish shaxsiy moliyani samarali boshqarish hamda moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

Daromad turi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Aktiv daromad	– tez va muntazam olinadi; – kundalik ehtiyojlarni qondirishga yordam beradi; – aniq daromad manbayiga ega.	– to‘liq vaqt va mehnatga bevosita bog‘liq; – mehnat faoliyati to‘xtasa, daromad ham odatda to‘xtaydi; – uzoq muddatli moliyaviy xavfsizlikni mustaqil ravishda ta’minlay olmaydi.
Passiv daromad	– vaqtga kamroq bog‘liq; – moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi; – uzoq muddatda barqaror daromad keltirishi mumkin.	– shakllantirish oson emas; – dastlab vaqt, bilim yoki mablag‘ talab etadi; – daromad darhol shakllanmasligi yoki muntazam bo‘lmasligi mumkin.

Guruh muhokamasi

1-guruh. Passiv daromad tushunchasini izohlang, uning afzalliklarini sanab bering va bir nechta misol keltiring.

2-guruh. Aktiv daromad tushunchasini izohlang, uning afzalliklarini sanab bering va bir nechta misol keltiring.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun aktiv daromad doimiy mehnatni talab qiladi, passiv daromad esa vaqt o‘tishi bilan nisbatan barqaror bo‘lishi mumkin? Javobingizni misollar bilan asoslang.

2. Oila kelajakda barqaror daromad manbalariga ega bo‘lishni istaydi, ammo hozircha uning yagona daromad manbayi ishhaqi hisoblanadi. Bu holatda qaysi turdagi daromadni rivojlantirish muhimroq deb hisoblaysiz? Javobingizni asoslang.

3. Umid aka qishloqda yashaydi va chorvachilik bilan shug‘ullanadi. U uzoq yillar davomida sifatli pishloq va yogurt ishlab chiqarib, o‘z brendini yaratdi. Keyinchalik boshqa korxonalar uning brendi ostida mahsulot ishlab chiqarishni boshladi va Umid aka ulardan royalti to‘lovlarini ola boshladi.

Bunday vaziyatda Umid akaning daromad turi qanday o‘zgaradi? Javobingizni tushuntiring.

4. Quyidagi daromad manbalarini ularning barqarorligi va ishonchliligiga (ya’ni mehnat faoliyati to‘xtaganda ham daromad keltirish imkoniyatiga) ko‘ra tartiblang.

– ishhaqi;
– bank depozitidan foiz;
– ijara daromadi;
– biznesdan olinadigan foyda;
– mualliflik yoki onlayn platformalardan olinadigan daromad.

Nima sababdan aynan shunday tartiblaganingizni izohlang.

Uyga vazifa

O‘zingiz uchun passiv daromad manbayini yaratish rejasini tuzing. Rejangizda quyidagi savollarga javob bering:

• Qanday passiv daromad manbayini yaratmoqchisiz? Nima uchun aynan shu variantni tanladingiz?

• Buning uchun qancha mablag‘ va vaqt kerak bo‘ladi?

• Bir yildan so‘ng qancha daromad olishni rejalashtiryapsiz?

• Mavjud xavflarni qanday kamaytirish yoki bartaraf etish mumkin? Reja tuzishda SMART mezonlardan foydalaning.

6.3. INVESTITSIYALAR

Bugungi darsda:

– investitsiyalar (bank depozitlari, aksiyalar, obligatsiyalar, ko‘chmas mulk; real, moliyaviy, intellektual, portfel)ni tasniflaysiz va ularning xususiyatlarini sodda misollar orqali tushuntirasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Uch kishining 20 million so‘mdan mablag‘i bor.
- Birinchisi pulni bankka omonat sifatida qo‘ydi.
- Ikkinchisi mablag‘ni biznesga investitsiya qildi.
- Uchinchisi esa uy yoki yer sotib oldi.

Har bir variantning afzalliklari va xavflarini tahlil qiling.

Qaysi variant yuqoriroq daromad keltirishi mumkin? Qaysi variantning xavfi nisbatan pastroq? Javobingizni asoslang.

Faraz qilaylik, siz ma’lum miqdorda pul jamg‘ardingiz. Bu mablag‘ni darhol sarflashingiz, uyda saqlashingiz yoki daromad keltiradigan sohaga investitsiya qilishingiz mumkin. Ma’lumki, pulni shunchaki saqlab qo‘yish vaqt o‘tishi bilan uning xarid qobiliyatini pasaytiradi. Agar jamg‘argan mablag‘imizdan oqilona foydalansak, ya’ni uni daromad keltiradigan sohaga investitsiya qilsak, pullarimizni nafaqat qadrsizlanishdan saqlab qolishimiz, balki ko‘paytirishimiz ham mumkin.

Investitsiya (sarmoya kiritish) – pul mablag‘larini kelajakda foyda olish maqsadida aktivlar yoki daromad keltiruvchi faoliyatga yo‘naltirish. Investitsiya har doim muayyan darajadagi xavf bilan bog‘liq bo‘ladi. Ba’zan investor kutilgan daromadni olmasligi yoki hatto zarar ko‘rishi ham mumkin. Biroq investitsiyalarni oqilona boshqarish qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratadi.



Investitsiya – pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar yoki boshqa moddiy va nomoddiy boyliklarni kelajakda foyda, daromad yoki boshqa manfaat olish maqsadida muayyan faoliyatga yo‘naltirish.

Investor – kelajakda daromad olish maqsadida o‘z pulini qimmatli qog‘ozlarga, biznesga, ko‘chmas mulkka yoki boshqa investitsiya vositalariga yo‘naltiradigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Investitsiya qilish orqali investor o‘z mablag‘ini ko‘paytirishga yoki ularni qadrsizlanishdan himoya qilishga intiladi.

Guruh muhokamasi

Hozir siz o‘quvchisiz. Sizni investor deb atash mumkinmi? Javobingizni izohlang.

Qimmatli qog‘oz mulkka egalik qilish yoki undan daromad olish huquqini tasdiqlovchi hujjatdir. Qimmatli qog‘ozlar bozori (yoki fond bozori) – qimmatli qog‘ozlar sotib olinadigan va sotiladigan bozordir. Fond bozorida aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi qilinadi. Fond bozori korxona va firmalarga qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali rivojlanish uchun mablag‘ jalb etishga yordam beradi. Investorlar esa qimmatli qog‘ozlarni sotib olib, ulardan daromad olish imkoniga ega bo‘ladilar.



Bank depoziti	Aksiya	Obligatsiya	Ko‘chmas mulk sarmoyasi
Mablag‘ ma’lum muddatga bank omonatiga qo‘yiladi va foiz ko‘rinishida daromad keltiradi.	Aksiya – egasining kompaniyadagi ulushi va dividend olish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz. Dividend – kompaniya foydasining aksiyadorlarga to‘lanadigan qismi. Aksiyalarga investitsiya kiritish daromad keltirishi mumkin, biroq ular har doim muayyan darajadagi xavf bilan bog‘liq.	Davlat, kompaniya yoki boshqa tashkilotning qarz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz. Uni sotib olgan investor belgilangan muddat tugagach, kiritgan mablag‘ini hamda foiz daromadini olish huquqiga ega. Ayrim obligatsiyalar bo‘yicha daromad diskont hisobiga olinishi mumkin.	Ko‘chmas mulkka investitsiya – mablag‘ni saqlash va ko‘paytirish maqsadida uy-joy, bino yoki yer kabi ko‘chmas mulk obyektlariga investitsiya kiritishdir. Daromad ko‘chmas mulkni ijaraga berish yoki uni keyinchalik yuqoriroq narxda sotish hisobiga olinishi mumkin.

1. Real investitsiya

Real investitsiya pul mablag‘larini ko‘z bilan ko‘rish va kundalik hayotda foydalanish mumkin bo‘lgan moddiy aktivlarga yo‘naltirishdir. Bunga yer, bino, texnika, uskuna, zavod, ko‘chmas mulk kabi obyektlar kiradi. Asosiy maqsadi ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish hajmini kengaytirish orqali daromad olishdan iborat. Masalan, tadbirkor yangi uskuna sotib olib, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytiradi yoki fermer yerga investitsiya kiritib, hosildorlikni oshiradi. Real investitsiya odatda uzoq muddatli bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, katta mablag‘ va ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin.

2. Moliyaviy investitsiya

Moliyaviy investitsiya pul mablag‘larini qimmatli qog‘ozlar va moliyaviy vositalarga yo‘naltirishdir. Bunga aksiyalar, obligatsiyalar, bank omonatlari va investitsiya fondlari misol bo‘ladi. Bu turdagi investitsiyada investor ishlab chiqarish jarayonini bevosita boshqarmaydi, balki moliyaviy aktivlardan daromad oladi. Moliyaviy investitsiyalarning ayrim turlarini nisbatan tez pulga aylantirish mumkin. Biroq bozor sharoiti o‘zgarib turishi sababli ular muayyan darajadagi xavf bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Intellektual investitsiya

Intellektual investitsiya insonning bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyadir. Masalan, ta’lim olish, kasb o‘rganish, xorijiy til yoki yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish. Bu turdagi investitsiya darhol daromad keltirmasligi mumkin, biroq kelajakda yuqoriroq daromad topish, kasbiy rivojlanish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini oshiradi. Intellektual investitsiya eng ishonchli va barqaror investitsiya turlaridan biri. Chunki bilim va ko‘nikmalar insonning eng muhim resurslaridan biridir.

4. Portfel investitsiyasi

Portfel investitsiyasi pulni bitta emas, balki bir nechta investitsiya yo‘nalishlariga taqsimlab joylashtirishdir. Portfel investitsiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad – xavfni kamaytirish. Masalan, investor mablag‘ining bir qismini bank omonatiga, bir qismini aksiyalarga, yana bir qismini obligatsiyalarga yo‘naltirishi mumkin. Agar aksiyalardan kutilgan daromad olinmasa yoki ularning qiymati pasaysa, bank omonati yoki obligatsiyalardan olingan daromad yo‘qotishlarni qisman qoplashi mumkin. Portfel investitsiyasi xalqaro moliya amaliyotida investitsiya xavfini boshqarishning eng samarali yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlar xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Guruh muhokamasi

Sinfda uch guruhga bo‘lining:

1-guruh – bank depozitlari tarafdorlari;

2-guruh – aksiyalar yoki biznesga investitsiya tarafdorlari;

3-guruh – intellektual investitsiya tarafdorlari.

Har bir guruh qisqa tayyorgarlikdan so‘ng o‘z tanlovining afzalliklarini dalillar bilan himoya qiladi va debat shaklida muhokamada ishtirok etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi fikrlarni o‘qing. To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini belgilang.

Mulohazalar	To‘g‘ri/Noto‘g‘ri
Bank depoziti investitsiya emas, chunki unda yo‘qotish xavfi yo‘q.	
Aksiyalar faqat boy insonlar uchun mos investitsiya hisoblanadi.	
Ta’limga sarflangan mablag‘ investitsiya hisoblanmaydi.	
Sarmoyani faqat bitta investitsiya yo‘nalishiga yo‘naltirish xavfsizroq.	

2. Quyidagi jumlani o‘xshatish orqali davom ettiring: “Investitsiya …ga o‘xshaydi, chunki …”. Masalan: urug‘ ekish, sport bilan shug‘ullanish, safarga tayyorgarlik ko‘rish, uy qurish va boshqalar.

3. A) Quyidagi holatlardan qaysilari investitsiya uchun xavf tug‘dirishi mumkin? Javobingizni asoslang.

– Barcha mablag‘ni bitta yo‘nalishda investitsiya qilish;
– faqat tanishlarning maslahatiga tayanish;
– qisqa vaqt ichida tez boyishni kutish;
– investitsiya haqida yetarli ma’lumot olmaslik;
– xavfi past investitsiya variantini tanlash.

B) Quyidagi juftliklarni taqqoslang. Har bir holatda qaysi variant afzalroq ekanini va nima sababdan shunday deb hisoblaganingizni yozing:

– bank depoziti ↔ aksiya;
– obligatsiya ↔ ko‘chmas mulkka investitsiya;
– moliyaviy investitsiya ↔ intellektual investitsiya.

Uyga vazifa

Tasavvur qiling:

Sizda 25 000 000 so‘m mablag‘ bor. Uni kamida 5 yil muddatga investitsiya qilmoqchisiz. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

– investitsiya usullarini tanlang;
– mablag‘ni tanlangan investitsiya turlari o‘rtasida taqsimlang;
– har bir tanlovning afzalliklari va xavflarini izohlang;
– nima uchun mablag‘ni faqat bitta investitsiya yo‘nalishiga kiritmaganingizni tushuntiring.



6.4. SHAXSIY MABLAG‘LARNI SARFLASH VA TEJASH

Bugungi darsda:

– shaxsiy mablag‘larni investitsiyalashning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilasiz.

O‘ylab ko‘ring!

2026-yil	Bank, 12%	Sug‘urta, 7%	Oltin, 18%
Mablag‘ (so‘m)	1 000 000	1 000 000	1 000 000
2035-yil	?	?	?

Quyidagi formula bo‘yicha $\mathbf{A=P\times(1+r/100\%)^n}$ (A – yakuniy summa, P – boshlang‘ich mablag‘, r – yillik foiz stavkasi, n – yillar soni) 2035-yil oxiridagi yakuniy summani va investitsiyadan olingan daromadni hisoblang. Qaysi investitsiya turi eng ko‘p daromad keltiradi? Javobingizni izohlang.

Investitsiya turlarining jozibadorligini baholashda likvidlik, daromadlilik, ishonchlilik mezonlari muhim hisoblanadi. **Likvidlik** investitsiyani qisqa muddat ichida bozor narxiga yaqin qiymatda sotish imkoniyatini bildiradi. **Daromadlilik** investitsiyadan olinadigan daromad miqdorini ifodalaydi. **Ishonchlilik** mavjud xavflar sharoitida investitsiyaning barqaror daromad keltirish xususiyatini anglatadi. Mazkur mezonlarni birgalikda baholash investitsiya tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Investitsiya nafaqat daromad olish imkoniyatini yaratadi, balki muayyan xavflar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun investitsiyaning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish har bir investor uchun suv bilan havodek zarur.

Afzalliklari

1. Investitsiya vositalari jamg‘armalarni inflyatsiya ta’siridan himoya qilishga yordam beradi.
2. Investitsiya uzoq muddatda mablag‘ni ko‘paytirishga hamda jamg‘armalarni oshirishga yordam beradi.
3. Investitsiya vaqt o‘tishi bilan muntazam qo‘shimcha daromad manbayiga aylanishi mumkin.
4. Yetarli bilim va tajribaga ega investor uchun investitsiya asosiy daromad manbayiga aylanishi mumkin. Ayrim investitsiyalar yuqori daromad keltiradi.
5. Investitsiya mablag‘ni saqlash, ko‘paytirish va moliyaviy mustaqillikka erishish imkoniyatidir.

Guruh muhokamasi

Quyidagi hayotiy misollarni o‘qing va investitsiyaning afzalliklari aks etgan misollarni ajrating. Javobingizni asoslang.

a) Bozorni yetarli o‘rganmasdan, faqat unga talab bo‘lgani uchun aksiya sotib olish;

b) Har oy oz miqdorda jamg‘arib va investitsiya qilib borish orqali 10 yil ichida uy sotib olish uchun yetarli mablag‘ yig‘ish;

d) Aksiyalarga investitsiya kiritib, dividend yoki ularning qiymati oshishi hisobiga qo‘shimcha daromad olish;

e) Yillik inflyatsiya yuqori bo‘lgan davrda pulni bank omonatiga qo‘yish;

f) Ko‘chmas mulkka investitsiya kiritib, uni ijaraga berish yoki keyinchalik yuqoriroq narxda sotish orqali daromad olish;

g) Aksiyalarga investitsiya kiritilgandan so‘ng kompaniya zarar ko‘rishi natijasida investitsiya qiymatining kamayishi.

Kamchiliklari

1. Har doim daromad keltirmaydi, mablag‘ning bir qismi yoki barchasi yo‘qolishi mumkin.
2. Xavf mavjud: bozor sharoitidagi o‘zgarishlar yoki iqtisodiy muammolar zarar keltirishi mumkin.
3. Bilim va tajriba yetishmasa, noto‘g‘ri qarorlar moliyaviy zarar keltirishi mumkin.
4. Ba’zi investitsiyalarni tezda naqd pulga aylantirish qiyin, bu esa favqulodda vaziyatlarda muammo tug‘dirishi mumkin.
5. Investitsiyalar odatda vaqt talab qiladi, daromad esa darhol kelmasligi mumkin.

Investitsiya tez pul topish usuli emas, balki kapitalni uzoq muddatda ko‘paytirish jarayonidir. Investitsiyada muvaffaqiyat ko‘p jihatdan to‘g‘ri yondashuv, yetarli bilim va xavflarni boshqarish qobiliyatiga bog‘liq.

Muvaffaqiyatli investitsiya faoliyati uchun:

- maqsadni aniq belgilash;
- bozor haqida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish;
- vaziyatni tahlil qilish;
- tanlangan strategiyaga rioya qilish;
- ehtimoliy yo‘qotishlarga oldindan tayyor turish lozim.

Eslab qoling: investitsiyalar har doim muayyan xavflar bilan bog‘liq bo‘ladi. Mablag‘ kiritishdan oldin investitsiyaning barcha jihatini puxta o‘rganish va soha mutaxassislari bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Oqilona sarflash daromadga qarab xarajatlarni rejalashtirish, ustuvor ehtiyojlarni aniqlash va ortiqcha iste’moldan tiyilishni anglatadi.

Sarf – shaxsning kundalik ehtiyojlarini qondirish va hayot sifatini yaxshilash uchun o‘z mablag‘larini sarflash jarayoni.

Tejash moliyaviy xavfsizlikning asosi sanaladi.

Tejash – daromadni oqilona sarflash va keraksiz xarajatlardan voz kechish orqali mablag‘ni saqlab qolish odati.

Savol va topshiriqlar

1. Tejash va investitsiya o‘rtasidagi farq nimada?

2. Quyidagi ta’riflarga mos so‘zni toping:

– pulni hozir ishlatish, darhol ehtiyojni qondirish;

– pulni hozir ishlatmay, kelajak uchun saqlash;

– pulni kelajakda daromad keltiradigan sohaga yo‘naltirish.

3. Quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang va javobingizni izohlang:

A) Investitsiya har doim daromad keltiradi.

B) Tejash – pulni umuman sarflamaslikdir.

D) Jamg‘arma kutilmagan vaziyatlarda yordam beradi.

E) Passiv daromad olish uchun har kuni ishlash shart.

4. Zafar yil boshida D kompaniyasining aksiyasini 880 000 so‘mga sotib oldi. Yil oxirida u aksiyani 1 364 000 so‘mga sotdi. Bundan tashqari, yil davomida 275 000 so‘m dividend oldi. Aksiyadan olingan yillik daromadni hisoblang.

Uyga vazifa

Sizda 6 000 000 so‘m bo‘sh mablag‘ mavjud. Bu mablag‘ni siz quyidagi uch yo‘nalish bo‘yicha taqsimlashingiz kerak:

– sarflash (kundalik ehtiyojlar, ta’lim, shaxsiy rivojlanish);

– tejash (moliyaviy xavfsizlik yostig‘i, kelajak ehtiyojlari);

– investitsiya (bank omonati, biznes, aksiyalar, onlayn savdo va boshqalar).

Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Yo‘nalish	Ajratilgan summa (so‘m)	Nima uchun shunday taqsimladingiz?
Sarflash		
Tejash		
Investitsiya		
Jami	**6 000 000**	

Quyidagi savollarga yozma javob bering:

1. Qaysi yo‘nalishga eng ko‘p mablag‘ ajratdingiz va nima uchun?

2. Agar daromadingiz kamaysa, qaysi yo‘nalish sizni moliyaviy jihatdan ko‘proq himoya qiladi?

3. Qaysi qaror uzoq muddatda sizga ko‘proq foyda keltiradi?

6.5. MOLIYAVIY RISK

Bugungi darsda:

– moliyaviy risk (tavakkalchilik) turlari (inflyatsiya, ish joyini yo‘qotish, daromadning pasayishi, kutilmagan xarajatlar)ni farqlaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Yangi gadjet sotib olish bilan bog‘liq moliyaviy risklarni aniqlang:

Variant	Natija	Moliyaviy risk
1. Daromadingizning bir qismini tejab, gadjetni keyinroq sotib olish.	Gadjetni olishga ko‘proq vaqt ketadi.	
2. Daromadingizning bir qismini sarflab, gadjetni yaqin orada sotib olish.	Gadjet tezroq olinadi.	
3. Daromadingizni to‘liq sarflab, gadjetni hoziroq sotib olish.	Gadjet darhol olinadi.	

Puxta o‘ylab qaror qabul qilish va moliyaviy xavflarni baholash uchun moliya bozori hamda moliyaviy aktivlar narxiga ta’sir qiluvchi omillarni tushunish zarur. Bozorni bilish investitsiya faoliyatida turli variantlarni taqqoslashga yordam beradi. Bu esa daromadni oshirish va ehtimoliy zararlarni kamaytirish imkoni demakdir.

Shaxsiy moliyani boshqarishda faqat daromad va xarajatlarni hisobga olish yetarli emas. Inson turli kutilmagan vaziyatlarga ham tayyor bo‘lishi kerak. Ana shunday ehtimoliy salbiy holatlar **moliyaviy risk** deb ataladi.

Moliyaviy risk – investitsiya qilingan mablag‘larni to‘liq yoki qisman yo‘qotish, zarar ko‘rish yoki kutilganidan kam daromad olish ehtimoli.

Odatda daromadlilik va risk o‘zaro bog‘liq bo‘ladi: kutiladigan daromad qanchalik yuqori bo‘lsa, risk ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Aksincha, kutilayotgan daromad qanchalik past bo‘lsa, risk ham shunchalik past bo‘ladi. Umuman olganda, turli moliyaviy vositalarga turli darajadagi risk xosdir (3-jadval).

3-jadval

Moliyaviy risk turi	Qisqacha tavsif	Shaxsiy moliyaviy holatga ta’siri
Inflyatsiya	Narxlarning oshishi natijasida pulning xarid qobiliyati pasayishi	Bir xil daromad evaziga avvalgiga qaraganda kamroq mahsulot va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo‘ladi.
Ish o‘rnini yo‘qotish	Asosiy daromad manbayining vaqtincha yoki doimiy yo‘qotilishi	Kundalik xarajatlarni qoplash qiyinlashadi, jamg‘arma tez tugaydi.

Daromadning pasayishi	Ishhaqi yoki boshqa daromad miqdorining kamayishi	Rejalashtirilgan xarajatlarni kechiktirishga va ko‘proq tejashga to‘g‘ri keladi.
Kutilmagan xarajatlar	Oldindan rejalashtirilmagan moliyaviy xarajatlar	Jamg‘arma bo‘lmasa, qarzga botish ehtimoli ortadi.

Guruh muhokamasi

Quyidagi jadvalni tahlil qiling va moliyaviy risklarning daromad va xarajatlar muvozanatiga ta’sirini o‘rganing. Moliyaviy risklarni kamaytirish uchun oldindan qanday choralar ko‘rish kerakligini aniqlang.

Moliyaviy risklarning shaxsiy moliyaga ta’siri

Daromad va xarajat muvozanati buzilishi	byudjet tanqisligi yuzaga keladi
Jamg‘arma yetishmasligi	qarzga bog‘liqlik kuchayadi
Moliyaviy barqarorlikning pasayishi	rejalashtirilgan xaridlar kechiktiriladi
Psixologik bosimning ortishi	moliyaviy qarorlar sifati pasayadi

Risklarni boshqarish uchun, avvalo, ularni tahlil qilish kerak. Har bir investitsiya turida qanday risklar bo‘lishi mumkinligini bilish zarur. Shuningdek, tanlangan investitsiya usuli haqida to‘liq va ishonchli ma’lumot to‘plash maqsadga muvofiq. Masalan, moliyaviy vosita qanday ishlaydi, u qanday qilib daromad keltiradi, vositachi qanday yo‘l bilan foyda oladi? Ishonchli ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki foydasiz investitsiyalardan himoya qiladi. Tajribali investorning to‘g‘ri strategiyasi – investitsiyadan kutilayotgan daromadni mavjud risklar bilan taqqoslashdir. Risk va daromad o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. Shu sababli investitsiya haqida qaror qabul qilayotganda aynan shu ko‘rsatkichlarning nisbatiga e’tibor qaratish lozim.

Guruh muhokamasi

Quyidagi variantlardan “Moliyaviy risk → Ko‘rilgan chora → Natija” zanjiriga moslarini tanlang.

Birinchi bo‘g‘in uchun variantlar

1. Kundalik xarajatlarni qoplash qiyinlashdi.
2. Jamg‘arma tez tugadi.
3. Byudjet muvozanati buzildi.
4. Oldindan jamg‘arilgan mablag‘ bor edi.

Ikkinchi bo‘g‘in uchun variantlar

A) Jamg‘armaga mablag‘ ajratish imkoni bo‘lmadi.
B) Moliyaviy zaxiradan foydalanildi.
D) Qarz olishga to‘g‘ri keldi.
E) Xarajatlarni qisqartirishga to‘g‘ri keldi.

Uchinchi bo‘g‘in uchun variantlar

I. Moliyaviy barqarorlik saqlab qolindi.
II. Qarz olish zarurati paydo bo‘ldi.
III. Xarajatlarni yanada qisqartirishga to‘g‘ri keldi.
IV. Moliyaviy stress kuchaydi.

Savol va topshiriqlar

1. 17–18 yoshlilar uchun qaysi moliyaviy risk eng xavflisi hisoblanadi (inflyatsiya, daromadning kamayishi, ish yo‘qotish yoki kutilmagan xarajatlar)? Nima uchun? Jamg‘arma moliyaviy risklarni kamaytiradimi yoki faqat vaqtincha yengillik beradimi? Fikringizni asoslang.

2. Agar daromad o‘zgarmagan holda narxlar oshsa, shaxsiy byudjetda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?

3. Rasmni kuzating. Agar ta’minotchi shartnoma shartlarini bajarmasa yoki mijoz to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirmasa, kompaniya zarar ko‘rishi mumkin. Bu qanday risk hisoblanadi? Kompaniya bunday riskni kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rishi mumkin? Kamida 3 ta taklif yozing.



Uyga vazifa

Jadvaldagi har bir vaziyatga xos moliyaviy riskni aniqlang.

Vaziyat	Qanday moliyaviy risk mavjud?	Shaxsiy moliyaviy holatga ta’siri
Sanjar mablag‘ini taqsimlab, beshta turli kompaniyaning aksiyalariga investitsiya qildi.		
Sug‘urta kompaniyasi turli narx belgilash strategiyalarini sinab ko‘rmoqda.		
Asosiy foiz stavkasi doimiy ravishda o‘zgarib turadi: ba’zan pasayadi, ba’zan esa oshadi.		
Kompaniya xalqaro savdo bilan shug‘ullanadi, ya’ni tovarlarni xorijdan import qiladi yoki xorijga eksport qiladi.		

6.6. MOLIYAVIY RISKLARNING OLDINI OLISH

Bugungi darsda:

– moliyaviy risklar (tavakkalchiliklar)ning shaxsiy moliyaga ta’sirini bir nechta misollar bilan tushuntirasiz;

– moliyaviy risklar (tavakkalchiliklar)ning oldini olish choralari (sug‘urta, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish, jamg‘armalarni yaratish)ni izohlaysiz.

O‘ylab ko‘ring!

Aziz yosh mutaxassis sifatida ishlab, 10 million so‘m jamg‘argan. Bir kuni ketma-ket uchta voqea yuz berdi:

1. Aziz ishlaydigan korxonada vaqtinchalik qisqartirishlar bo‘lishi haqida gap-so‘z tarqaldi.
2. Uning sog‘lig‘i bilan bog‘liq kutilmagan muammo yuzaga kelib, davolanish xarajatlari paydo bo‘ldi.
3. Do‘sti unga “Tez va katta daromad olamiz, barcha pulimizni bitta foydali biznesga kiritaylik” degan taklifni bildirdi.

Aziz uchun eng katta moliyaviy risk qaysi? Nima uchun? Agar siz Azizning o‘rnida bo‘lsangiz, pulni qanday taqsimlardingiz?

Moliyaviy risklar, kutilmagan vaziyatlar shaxsning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ularning oldini olish yuzaga kelgandan keyin hal qilishdan muhimroq. Oqilona rejalashtirish, moliyaviy intizom, daromad va muntazam ehtiyotkorlik bilan nazorat qilish kutilmagan vaziyatlarga tayyor turishga yordam beradi. Bu pul yo‘qotishlarini kamaytiradi, moliyaviy barqarorlikni saqlashga va shaxsning o‘z moliyaviy imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Demak, oldindan ko‘rilgan choralar shaxsiy moliyani samarali boshqarishga yordam beradi.

Moliyaviy ehtiyot chorasi – moliyaviy risklar sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni kamaytirish yoki ularning oldini olish uchun oldindan ko‘riladigan chora-tadbir.

Quyidagi jadvalda moliyaviy risklarning oldini olish uchun qo‘llanadigan asosiy choralar va ularning shaxsiy moliyadagi ahamiyati aks ettirilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, moliyaviy risklarning oldini olish uchun faqat bitta chorani qo‘llash yetarli emas. Buning uchun bir nechta chorani birgalikda qo‘llash zarur. Rejalashtirish, ehtiyotkorlik va jamg‘arma kabi choralar uyg‘unlashganda shaxsiy moliyaviy barqarorlik sezilarli darajada mustahkamlanadi (4-jadval).

4-jadval

Ehtiyot chorasi	Qisqacha mazmuni	Shaxsiy moliyadagi ahamiyati
1. Rejalashtirish	Daromad va xarajatlarni oldindan belgilash	Moliyaviy tartib va nazoratni ta’minlaydi.
2. Moliyaviy ehtiyotkorlik	Moliyaviy qarorlarni shoshmasdan qabul qilish	Keraksiz moliyaviy yo‘qotishlarning oldini oladi.
3. Jamg‘arma yaratish	Kutilmagan vaziyatlar uchun zaxira mablag‘ to‘plash	Qarzga botish ehtimolini kamaytiradi.
4. Daromad manbalarini ko‘paytirish	Faqat bitta daromad manbasiga bog‘lanib qolmaslik	Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.
5. Oldindan himoya choralarini ko‘rish	Riskni oldindan baholash va tayyorgarlik ko‘rish	Moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytiradi.

Moliyaviy risklarning salbiy ta’sirini ularni boshqarish strategiyalari orqali kamaytirish mumkin. Bunday strategiyalarga sug‘urta, diversifikatsiya va jamg‘arma kabi muhim choralar kiradi. Ular shaxsning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga hamda kutilmagan vaziyatlarda moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

Moliyaviy risklarni boshqarish strategiyalari



Diversifikatsiya
Pul mablag‘larini turli aktivlar va investitsiya yo‘nalishlari o‘rtasida taqsimlash orqali risklarni kamaytirish



Hedjerlash
Risk darajasini oldindan ko‘rilgan choralar yordamida kamaytirish va kutilmagan yo‘qotishlardan himoyalanish



Sug‘urtalash
Sug‘urta kompaniyasiga sug‘urta badali to‘lash orqali kutilmagan moliyaviy zararlardan himoyalanish



Zaxiralar
Kutilmagan xarajatlar uchun oldindan moliyaviy zaxira shakllantirish

Moliyaviy risklarni boshqarish strategiyalari jismoniy shaxslar uchun ham mos bo‘lib, ular kundalik hayotda oddiy usullar orqali qo‘llanishi mumkin.

1. Diversifikatsiya (pul mablag‘larini turli yo‘nalishlarga taqsimlash).

Oila barcha pul mablag‘larini naqd holda saqlamaydi. Mablag‘ning bir qismi bank kartasida, bir qismi uyda naqd pul ko‘rinishida, yana bir qismi esa bank omonatida saqlanadi. Agar bank kartasi bilan bog‘liq muammo yuzaga kelsa, boshqa mablag‘lardan foydalanish mumkin.

2. Hedjerlash (kelajakdagi moliyaviy xatarlarni kamaytirish usuli).

Hedjerlash – kelajakdagi noaniqliklar va narx o‘zgarishi xavfidan himoyalanish maqsadida shartlarni oldindan kelishib qo‘yishdir. Masalan, maishiy texnikani bo‘lib to‘lash

shartnomasi tuzilganda uning narxi oldindan belgilanadi. Natijada, keyinchalik narx oshgan taqdirda ham xaridor kelishilgan narx bo‘yicha to‘lovni amalga oshiradi.

3. Sug‘urtalash (moliyaviy himoyalanish).

Sug‘urtalash – kutilmagan hodisalardan moliyaviy himoyalanish vositasidir. Misol: oila avtomobilni sug‘urtalaydi. Agar yo‘l-transport hodisasi yuz bersa, sug‘urta kompaniyasi yetkazilgan zararni qisman yoki to‘liq qoplaydi.

4. Zaxira jamg‘armasi (jamg‘arma yaratish).

Zaxira jamg‘armasi – kutilmagan vaziyatlar uchun oldindan yig‘ilgan pul.

Masalan, oila har oy daromadining bir qismini jamg‘arib boradi. Oila a’zolaridan biri kasal bo‘lib qolsa yoki boshqa kutilmagan xarajat yuzaga kelsa, bu jamg‘arma yordam beradi.

Moliyaviy risklarni boshqarish strategiyalari kundalik hayotda ham qo‘llanadi. Diversifikatsiya, hedjerlash, sug‘urtalash va zaxira jamg‘armasi shaxsiy moliyani himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Guruh muhokamasi

Quyidagi holatlarni o‘qing va moliyaviy risklarni boshqarishning qaysi strategiyasiga oidligini aniqlang:

A) Alisherning otasi favqulodda tibbiy xarajatlar uchun alohida pul yig‘ib qo‘ygan.

B) Botirning otasi pulini bank depoziti, kichik savdo va ta’limga taqsimlagan.

D) Avtomobil avariyasi sodir bo‘lganda xarajatlar sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplangan.

E) Daromadining bir qismini faqat kutilmagan holatlar uchun saqlaydi.

F) Investor pulini faqat bitta manbaga emas, bir nechta yo‘nalishga taqsimlagan.

Savol va topshiriqlar

1. A) Moliyaviy risklarning oldini olishda qaysi chora eng muhimi hisoblanadi (sug‘urta, diversifikatsiya, hedjerlash, jamg‘arma)? Nima uchun?

B) Sug‘urta moliyaviy risklarni to‘liq bartaraf etadimi yoki faqat ularning salbiy ta’sirini kamaytiradimi? Fikringizni asoslang.

2. Aziz mol-mulki va pul mablag‘lariga yanada e’tiborli bo‘la boshladi. U orzusidagi avtomobilni sotib olish uchun pul jamg‘arishga qaror qildi. Jumladan:

– uyiga seyf o‘rnatdi;

– moliyaviy reja tuzdi;

– har oy ma’lum miqdorda pul jamg‘arib bordi.

Aziz maqsadiga juda yaqin kelgan edi. Biroq valyuta kursi keskin o‘zgardi. Natijada uning jamg‘argan puli mo‘ljallagan avtomobilining hatto yarmiga ham yetmay qoldi. Nima sababdan valyuta kursining o‘zgarishi Azizga muammo tug‘dirdi?

Aziz bu riskni kamaytirish uchun oldindan qanday choralar ko‘rishi zarur edi?

Uyga vazifa

Keys. “Moliyaviy risklar” chizmasidan foydalanib, jadvalni to‘ldiring:

Moliyaviy risk (chizma bo‘yicha)	Hayotiy misol	Oqibat	Riskni kamaytirish strategiyasi
Nafaqaga chiqish	Og‘ir surunkali kasallik tufayli mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqaga chiqish	Asosiy daro-mad manbayini yo‘qotish	Sug‘urtalash, diversifikatsiya
*	*	*	*



QO‘SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1-vaziyat.

Azizning otasi bankning investitsiya xizmati orqali bir korxonaning aksiyalarini sotib oldi. U korxona faoliyati va aksiya narxi haqidagi ma’lumotlarni fond birjasi hamda rasmiy moliyaviy saytlarda muntazam kuzatib bordi. Vaqt o‘tishi bilan aksiyaning bozor narxi oshdi, korxona esa yil yakunida foyda oldi.

O‘rganganlaringiz asosida aksiyadan olinadigan daromad manbalarini ko‘rsatuvchi oddiy sxema chizing. Maslahat: aksiya kursining o‘zgarishi va dividendlardan olinadigan daromadni alohida ko‘rsating.



Aksiya kursi
Aksiyaning bozor narxi uni sotib olish va sotish sanalari orasida o‘zgarishi



Aksiya bo‘yicha dividendlar
Korxona foydasining har yili aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismi

2-vaziyat.

Puxta shakllantirilgan investitsiya portfeli shunchaki aktivlar to‘plami emas, balki undagi har bir investitsiya vositasi o‘z vazifasini bajaradigan yaxlit tizimdir.

Portfel investitsiyasi yondashuvi kimlar uchun mos keladi? To‘g‘ri javob(lar)ni tanlang.

A) Uzoq muddatga va nisbatan kam xatar bilan investitsiya kiritishni istaganlar.

B) Investitsiya qilishni bosqichma-bosqich o‘rganmoqchi bo‘lgan yangi boshlovchilar.

D) Investitsiyalarni har kuni chuqur tahlil qilishga vaqti bo‘lmagan shaxslar.

E) Barcha mablag‘ini bitta aktivga yo‘naltirib, tez va katta foyda olishni ko‘zlaganlar.

F) Investitsiya faoliyatini tizimli strategiya asosida yuritmoqchi bo‘lganlar.

G) Faqat qisqa muddatli chayqovchilik bilan shug‘ullanishni istaganlar.



O‘quv nashri

Aktamov Sherzod Ravshanbekovich
Boranbayeva Saodat Xasanovna
Nizamov Anvar Negmatovich

IQTISODIYOT VA BIZNES

9-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
Toshkent – 2026

Muharrir	*Sobirjon Yoqubov*
Musahhih	*Xayriddinmurod Abulfaizov*
Texnik muharrir	*Abdujalil Karimov*
Badiiy muharrir	*Dilmurod Jalilov*
Rassom	*Sarvar Farmonov*
Sahifalovchi-dizayner	*Ravshan Malikov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2026-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 12,6. Nashriyot-hisob tabog‘i 9,5.
Adadi 000 000 nusxa. Buyurtma № .

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.